21,3 – 25,5 «yaxshi»	• Mavzu mohiyatini yoritish; • Mavzu bo'yicha mustaqil Ijodiy fikrlay olishni namoyish etish; • Mavzu bo'yicha kurib chiqilayotgan masalalarni tushuntirib bera olish; • Mavzu bo'yicha qo'shimcha bilimlarga ega bo'lishini namoyish etish; • Topshiriqlarning 71-85% to'g'ri bajarilgan.
16,5 – 21 «qoniqarli»	• Mavzu mohiyatini qisman yoritish; • Mavzu bo'yicha mustaqil Ijodiy fikrlay olishni namoyish etish; • Mavzu bo'yicha ko'rib chiqilayotgan masalalarning ayrim tushunchalarini tushuntirib bera olish; • Topshiriqlarning 55-70% to'g'ri bajarilgan.
0 – 16,2	• Mavzu mohiyatini yoritmaslik; • Mavzu bo'yicha mustaqil Ijodiy fikrlay olmaslik; • Mavzu bo'yicha ko'rib chiqilayotgan masalalarning tushuntirib bera olmaslik; • Topshiriqlarning 55% kami to'g'ri bajarilgan.

MUSTAQIL TA'LIM BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI

Ball	Baho	Bilim darajasiga baho qo'yish mezonlari
5 – 4,3	A'lo	- Dunyo mamlakatlarini chegarasini tushirish, nomini yozi poytaxtlarini belgilash. Ularni bir-biridan o'zaro rang bilan farq qilishini bilishlari zarur.
4,2-3,5	Yaxshi	Ayrim dunyo mamlakatlari yoki poytaxtlari tushib qolgan holda
3,4-2,7	Qoniqarli	- Kichik davlatlar raqam ostiga olinmagan bo'lsa, bazi davlatlar tushib qolgan bo'lsa, dengiz va okeanlar nomlari yozilmagan bo'lsa
2,6-0	Qoniqarsiz	Harita to'liq ishlanmagan va talab darajasi past bo'lgan holda

TAVSIYA ETILADIGAN DARSLIK VA O'QUV QO'LLANMALAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk keljak sari. –T.: O'zbekiston, 1998.
3. Алисов Н.В., Хореев Б.С. Экономическая и социальная география мира. –М.: Гардараки, 2003.
4. Алиев М. Г., Ишанходжаева Д. А., Хачиев Г. А. Экономика и финансы регионов мира в цифрах сравнения. –Т., 2003.
5. Azizova F.V., Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi. O'quv qo'llanma. TDSHI, 2010.
6. Вавилова Е. В. Экономическая и социальная география мира. Учебное пособие. –М., 2006.
7. Soliyev A., Muhammadaliyev R.. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. –Т., 2005.
8. Soliyev A., Ahmedov E., Muhammadaliyev R. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. –Т.: Universitet, 2003.
9. Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред В. В. Вольского –М.: Крон-пресс, 2003.
10. Социально – экономическая география зарубежного мира. –Дрофа, 2001.
11. Энциклопедический справочник Страны мыра. –Смоленск: Русич, 2002.
12. Страны и народы. Восточная и центральная Азия. –М.: Мысль 1982.
13. Страны и народы Юго-Восточная Азия. –М.: Мысль, 1982.
14. Страны и народы Юго-Западная Азия. –М.: Мысль, 1982.
15. Справочник Корея. 82-89 стр.1995.
16. Словарь географических слов-и терминов. – М.: 1982.
17. Ergashev Sh. va boshqalar. Jahon mamlakatlari. Qisqa ma'lumotnoma. –Т., 2007.
18. Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М.П.Ратановой. –М.: Дрофа, 2004.
19. Jumaev U. Ne'matov J. Dunyoning 36 davlati. Ma'lumotnoma. –Т., 2006.
20. Географический атлас мира. –М., 2004.
21. Географический справочник. ЦРУ. –Екатеренбург, 2004.
22. Корея Справочник Кореская служба информации для зарубежных стран.
23. Лавров В. Г. Экономическая и социальная география стран зарубежного мира. –М., 2001.
24. Максаковский В.П.: Географическая картина мира. Часть 1,2. –М., Дрофа, 2003.
25. Максаковский В. П.. Экономическая и социальная география мира (1,11 части). –М., 1998.
26. Мир географии - М. Мысль 19846 8-29
27. Qayumov A., Nazarova X., Egamberdiyev F., Yoqubov O'. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. –Т., 2004.

28. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1-9 – том. –Т., 2005.
29. О‘зР. Tashqi ishlar vazirligining ma’lumotlari.
30. Хачиев Г. А. Мировая экономика: факты и цифры, (информационно-справочное издание). –Т., 1998.

Qo‘shimcha adabiyotlar.

1. Атлас мира (XXI). Дорлинг Киндерсли. –М., 1999
2. Африка и Азия. – том 1-2. –М., 1987.
3. Природные ресурсы стран Азии и Северной Африки. –М., 1995.
4. Справочник “Корея”, “Современная Турция” и пр. –М., 2000.
5. Толорая Г. Д.. Республика Корея. –М., 1991.
6. G‘ulomov P. Jo‘g‘rofiya atamallari va tushunchalari izohli lug‘ati. –Т.: О‘qituvchi. 1994.

Internet saytlar.

1. www.geografiya.ru
2. www.ziyonet.uz
3. www.glossry.ru
4. www.press-servis.uz
5. www.gov.uz/ru/ctn
6. .www.5ballov.ru
7. www.wikipedia.org

“Geografiya” fanining tayanch konspekti

(Tuzuvchi: Azizova F.V.)

Tasdiqlangan sana 26.08.2013)

Ma’ruza №1

Mavzu: Zamonaviy dunyo geografiyasi.

Geografiya fani, uning maqsadi va vazifasi

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: 1. Geografiya fanining dunyoga kelishi, o‘rganish ob’ektlari, maqsad va vazifalari, rivojlanish bosqichlari to‘g‘risida bilim berish.

2. Talabalarga geografiyaning birligi to‘g‘risidagi zamonaviy tasavvurlar haqida ma’lumotlar berish.

Tayanch so‘z va iboralar: gorizont tomonlari; arxipelag; botiq; Yer po‘sti; geografik qobiq; iqlim mintaqalari; ko‘rfaz; materk sayozligi.

Reja:

1. Geografiya fanining dunyoga kelishi.
2. Zamonaviy geografiya maqsadlari.
3. Geografiyaning birligi to‘g‘risida zamonaviy tasavvur.

Bizning yer to‘g‘risidagi zamonaviy bilimlarimiz bir vaqtda vujudga kelgan emas, ular asta – sekin paydo bo‘lganlar va odamzodning sanoqsiz avlodlari ko‘p asrlar davomida qilgan ishlarini natijasidan kelib chiqqan. Geografiyaning rivojlanishi butun insoniyatning umumiy madaniy rivojlanishi bilan amalga oshgan, zamonaviy geografiya esa o‘tgan asr tarixi bilan chambarchas bog‘liq.

Nomalum joylarga kelib qolgan qadimgi sayyohlar haqiqatdan doimo ko‘rganlarini tasvirlab kelgan edilar; daryonlarni tog‘larni, o‘rmonlarni, dengizlarni odamlarni, ularning ho‘jaligini, urf – odatlarini, dostonlarini, tabiat va kasallik bilan kurashish usullarini, ularning tarixini va h.k. Bu vaqtlarda butun atrof – muhit inson uchun ilmiy bilish ob’ekti bo‘lgan. Usha uzoq davrlarda geografiya shunday asos bo‘lib xizmat qilgan, shunday hilma – hil malumotlar to‘plami bo‘lganki, shular asosida ko‘pdan – ko‘p fanlar o‘z negizini boshlagan: fizika, astronomiya, iqtisodiyot va etnografiya, tibbiyot va tarix. Geografiya tarixi – butun jahon tarixini asosiy boblaridan biri bo‘lib, geografiya taraqqiyoti odamzodning dunyo-qarashiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Haqiqatdan, geografiyaning kerakligiga hech kim shubha bilan qaragan emas. Odamlar yangi yerlarni ochib kelib, yer kurrasidagi “oq dog‘larni” o‘chirib kelgan edilar. Geografiya yetqazib bergan ma’lumotlar boshqa fanlarni ta’minlab turar edi, insonning amaliy faoliyati xilma-xil hodisalar va jarayonlar to‘g‘risida chuqirlashgan bilimlar talab qilar edi. Shunday qilib, yangi ilmiy yo‘nalishlar paydo bo‘lar edi. Yorqin va dramatik davrdagi Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin (XV asr oxirlari – XVII asr o‘rtalari) yangi yerlar to‘g‘risidagi malumotlar hayratga solganda, geografiyadan ajralib chiqqan ilmiy mustaqil fan sohalari tez avj olib rivojlangan.

Geografiya entsiklopedik fan bo‘lgan, u mamlakat va halqalar to‘g‘risidagi xilma-xil bilimlar yig‘indisidan iborat bo‘lgan. Undan o‘zining aniq tekshirish ob’ektlari mavjud bo‘lgan tor fanlar ajralib chiqdi. Bu – geomorfologiya – relyef to‘g‘risidagi fan, gidrologiya – suvlar to‘g‘risidagi fan, iqlimshunoslik – havo massalarini o‘rganuvchi fan va h.k.

O‘zaro bog‘liq va o‘zaro aloqador zamonaviy tabiatshunoslikdagi nazariy tasavvur geograflar uchun o‘ziga hos bo‘lgan tabiatni tekshirishda geografik qulay yo‘l bo‘lib qoldi. Geografik qulay yo‘l nima uchun kerak, uni ustunligi nimadan iborat? Balki atrofimizdagi tabiiy muhitni tushinish uchun fizika, biologiya, geologiya, himiya fanlarini bilishi yetarlidir? Vaholanki, bu bilimlar zarur bo‘lib yetarli emas ekan. Tabiat va uning ob’ektlariga kompleks “ko‘pqirrali” qarash zarur. Bizning atrofimizni 4 ta o‘zaro ta’sir qiluvchi va bir – biriga o‘tuvchi atmosfera, gidrosfera, litosfera, biosfera qobiqlari o‘rab turadi. Yerning geografik qobig‘i bu bir butun, qonuniyat orqali o‘rganiladigan tabiiy qism – tabiiy geografiyaning umumiy ob’ekti bo‘lib qoldi.

Shunday qilib, zamonaviy geografiyaning asosiy maqsadlaridan biri – bu yerning geografik qobig'ida bo'layotgan jarayonlarni tekshirishdan iborat.

Ammo, biz omillar ro'yhatida insonning ho'jalik faoliyatini eslatib o'tmadik. Bu alohida omil va tabiiy jarayonni ilmiy tahlil qilish zamonaviy geografiyaning mustaqil vazifasidir.

Tabiat orqali tug'ilgan odam tabiat atrofiga faqat mehnati va idroki yordamida aktiv moslashib boradi, u o'z faoliyatida tabiatga ta'sir ko'rsatib uni o'zgartira boshlaydi. Tabiat ustidan qo'lga kiritilgan g'alabalarga hursand bo'lish kerak emas. Har bir qo'lga kiritilgan g'alaba uchun tabiat o'z qasdini oladi.

Bugungi kunda jamiyatni tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri global masshtabda olib borilyapti. Yer sharida aholi soni juda tez o'sayapti – 6 mld.dan ortiq. Natijada, tabiatdan to'laroq foydalanish va hom ashyoni qazib chiqarish o'sayapti. Tabiatni o'zgarishida insonning ho'jalik faoliyati hal qiluvchi sabab bo'lib qolmoqda. Sivilizatsiya rivojlangan sari inson faoliyati natijasida tabiat chekina boshladi, ko'pincha g'alabalar honavayron bo'lgan yerlarni, - kesib olingan o'rmonlarni, hayvonlari va qushlari yo'q bo'lib ketgan o'rmonlarni qoldirdi.

Bu global muammoni yechishda geograflar bevosita ishtirok etmoqdalar. Tabiatga nisbatan o'ylamasdan qilingan munosabat jamiyat uchun havfli bo'lib qoldi. Tabiatni honavayron bo'lishi yoki ekologik krizis – bu jamiyatning krizisi, bu hattoki sivilisatsiyani nobud bo'lishiga olib kelishi hech gap emas.

Shunday qilib, geografiya tabiat va jamiyatning o'zaro ta'siri muammosida ijtimoiy fan sifatida qatnashgan. Ijtimoiy – iqtisodiy geografiya nima bilan shug'ullanadi? Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya ijtimoiy fan bo'lib, u aholi va ho'jalikni, butun dunyoda, ayrim hududlarda, mamlakatlarda rivojlanish va joylashish qonuniyatlarining tatqiq etadi. Bu fan halqaro munosabatlarga jamiyat bilan tabiatning o'zaro aloqalariga, butun jahon muammolariga oid masalalariga ham to'xtalib, jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichini yahshiroq tushinishga yordam beradi.

Tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabat murakkab muammo bo'lib, uning vazifalarini chuqur o'rganish faqat bir fan orqali emas, balki bir necha yo'nalishlarni birlashtirgan holda tabiatdan oqilona foydalanishda kengroq va qulay yo'llarni qidirish zarur. Tabiiy geografiya yerning geografik qobig'ini bir butun moddiy usulda o'rgandi, uning tarkibidagi umumiy qonuniyatlarni, tuzilishini va kelib chiqishini geografik jarayonlar energetikasini, ularni bir-biri bilan aloqalarni, materik va okeanlar tabiatidagi asosiy o'hshashliklar va farq qiluvchi omillarni o'rganadi. Geografiyadan ajralib chiqqan tor fanlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

Landshaftshunoslik – geokompleks usullarni o'rganadi. (geokompleks – yerning geografik qobig'ining tabiiy bo'linmalari). Yuqori pog'onali kompleks bir butun geografik qobiq, uni har zamonda landshaft qobig'i bilan tenglashtiradi. Tuproqshunoslik – yerning maxsus moddiy jinsi to'g'risidagi fan. Tuproq – bu tirik modda va litosferani o'zaro ta'siridan kelib chiqqan natija, hilma – hil iqlim va relyef sharoitlarida shakllanadi.

Geomorfologiya – ustki geografik qobig'dagi boshqa komponentlar bilan o'zaro ta'sirini o'rganadigan fan. Bu o'zaro ta'sir natijasida yer usti relyefining hilma – hil shakllari, ularning kelib chiqishi va rivojlanishini o'rganadi.

Glyatsiologiya – muzlikshunoslik (geokriptologiya) – bu fan yer ustidagi (muzlik, dengiz muzliklari, qorliklar, qor ko'chkilari va boshqalar) va litosferadagi (doimiy muzlik, yer ostidagi muzliklar) muzlar paydo bo'lish sharoitlarini rivojlanishi va shakllarini o'rganadi.

Okeanologiya – dunyo okeani to'g'risidagi fan.

Iqlimshunoslik – havo massalarini shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari to'g'risidagi fan.

Biogeografiya – umumlashtiruvchi fan. Organizmlar va ularning turkumlarini geografik joylashish qonuniyatlarini aniqlaydi.

Mamlakatshunoslik – umumlashtiruvchi geografik yo‘nalish, tabiiy-ijtimoiy kompleksni maxsus darajasi – davlatning bir butun tabiiy- ijtimoiy sifati o‘rganiladi.

Tarixiy geografiya – tabiiy –ijtimoiy usullarni ochilishi, vujudga kelishi va tarixiy rivojlanishini o‘rganadi.

Xulosa: zamonaviy geografiya bilimlarning o‘zaro bog‘langan bir butun usulidir.

Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Zamonaviy geografiya qanday dunyoga kelgan?
2. Zamonaviy geografiyaning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
3. Tabiiy va ijtimoiy geografiya nima bilan shug‘ullanadi?
4. Geografiyadan qanday tarmoqlar ajralib chiqqan?

Adabiyotlar:

1. “Mir geografii” M.Misll 1984. 8-29 bet.
2. В. В. Вольского. Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред– М.: Крон-пресс, 2003.
3. Soliyev A., Muhammadaliev R.. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. –T., 2005.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI Ma’ruza №2

Mavzu: Dunyo siyosiy xaritasining shakllanishi. Dunyo mamlakatlarini toifalash

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:1. Dunyo siyosiy xaritasi haqida tasavvur xosil qilish

2. Jahon mamlakatlarini turli jihatiga ko‘ra guruhlash to‘g‘risida bilim ko‘nikmalari xosil bo‘ladi

Tayanch so‘z va iboralar: siyosiy-geografik o‘rin; yarim orol; yalpi mahsulot; Okeaniya; milliy daromad; ko‘rfaz; Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT).

Reja:

1. Dunyo siyosiy xaritasini tarixiy shakllanish bosqichlari.
2. Jahon mamlakatlarini hududi va aholisini soni bo‘yicha guruhlash.
3. Mamlakatlarni toifalarga ajratish (iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar).
4. Mamlakatlarni boshqaruv shakliga ko‘ra guruhlash.

Dunyoni hozirgi siyosiy xaritasini shakllanishi uzoq tarixiy jarayon bo‘lib, kishilik jamiyati rivojlanishining butun yo‘lini aks ettiradi.Dunyo siyosiy xaritasi asrlar davomida o‘zgarib kelgan, u davlatlarning paydo bo‘lishi va parchalanib ketishini, ular chegaralarining o‘zgarishini, yangi yerlarni kashf qilinishi va mustamlaka etilishini, metropoliya va mustamlakalarni paydo bo‘lishi,dunyoni bo‘lib olish va qayta bo‘lib olishini aks ettirib kelgan.XX asrning boshlarida jahon xududlarini bo‘lib olinishi tugagan edi va buyuk imperialistik mamlakatlar o‘rtasida ularni qayta taqsimlash uchun kurash boshlandi.(1-jahon urushi.)

2-jahon urushidan so‘ng dunyoning siyosiy xaritasida bir qancha sotsialistik davlatlarni paydo bo‘lishi, mustamlakachilik tizimining parchalanishi va o‘nlab ozod bo‘lgan mamlakatlarni vujudga kelishi urushdan keyingi butun davr asosini G‘arb bilan Sharqning jahon bo‘ylab qarama-qarshi turishi ular o‘rtasidagi sovuq urushni tashkil etdi. Ko‘pdan-ko‘p harbiy siyosiy ittifoqlardan, shu jumladan ikkita yirik ittifoq:Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO) va Varshava shartnomasi tashkiloti, vujudga keldi.Yer kurrasining turli joylarida yuzlab harbiy bazalar bunyod etildi, mahalliy urushlar bo‘lib o‘tdi.

XX asrning 80- yillarida xalqaro munosabatlarda qarama- qarshi turishdan o‘zaro bir-birini tushunish va hamkorlikka o‘tish boshlandi. Xalqaro keskinlik kamaya boshladi, dunyo tinchroq va havfsizroq bo‘lib qoldi.O‘zaro ishonchsizlik, xafvsirash va dushmanlik o‘rniga yahshi qo‘shnichilk qaror topa boshladi.

XX asrning 90-yillarida dunyo siyosiy xaritasida, ayniqsa Yevropada, katta o‘zgarishlar yuz bera boshladi: Yugoslaviya hududidagi xarbiy harakatlar natijasida u Serbiya, Sloveniya, Makedoniya, Xorvatiya, Bosniya va Gersogoviniya, Chernogoriya kabi mustaqil davlatlarga parchalandi, bunga millatlararo munosabatlar sabab bo‘ldi. GFR va

GDR birlashdi, poytaxti Berlin bo‘lib qoldi. SSSR parchalanishi natijasida dunyo siyosiy xaritasida 15 mustaqil davlat paydo bo‘ldi. Chexoslovakiya parchalanib xaritada Chexiya va Slovakiya davlatlari o‘rin topdi.

II-jahon urushidan keyingi butun davr mobaynida Fors ko‘rfazini o‘z ichiga olgan Yaqin Sharq asosiy “Olovli nuqta” bo‘lib qoldi. Bu yerda sayyoramizdagi turli madaniyat va dinlar juda murakkab xolda yonma-yon shakllanib borgan.

Dunyo mamlakatlarini guruhlashtirish. Dunyo mamlakatlarini quyidagi xususiyatlariga ko‘ra guruhlashtirish mumkin:

1. Hududining kattaligiga ko‘ra dunyoda har birining maydoni 3 mln km²dan ortiq 7 ta eng katta davlat ajratiladi. Ularning butun maydoni yer yuzi quruqligining yarmidan ko‘prog‘ini egallaydi. Bu:

- 1) Rossiya Federatsiyasi – 17100000 km²
- 2) Kanada – 9900000 km²
- 3) Xitoy Xalq respublikasi – 9600000 km²
- 4) AQSh – 9500000 km²
- 5) Braziliya – 8500000 km²
- 6) Avstraliya – 7700000 km²
- 7) Hindiston – 3200000 km²

2. Aholi soniga ko‘ra har biridagi aholi 100 mln kishidan ortiq bo‘lgan eng katta 11 ta mamlakat ajratiladi. Bu davlatlardagi aholining soni yer yuzi aholisining 3/5 qismiga to‘g‘ri keladi:

- 1) Xitoy – 1.330 mlrd
- 2) Hindiston – 1.1 mlrd
- 3) AQSh – 300mln
- 4) Indoneziya – 245mln
- 5) Braziliya – 182mln
- 6) Pokiston – 151 mln
- 7) Rossiya – 150mln
- 8) Bangladesh – 138.5 mln
- 9) Nigeriya – 134 mln
- 10) Yaponiya – 127.2 mln
- 11) Meksika – 105 mln

Dunyo siyosiy xaritasida o‘rta va kichik mamlakatlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Mitti mamlakatlar ham bor, ularni odatda mikro davlat deb atashadi,

Mamlakat nomi	Maydoni (km ²)	Aholisi (ming k. hisobi)
Vatikan	0,44	900
San-Marino	61,2	27336
Lixteynshteyn	160	32528
Monako	195	31842
Andorra	468	67627

Mamlakatlar ko‘pincha geografik o‘rni xususiyatlariga qarab ham guruhlashtiriladi. Bu xususiyatiga ko‘ra dengiz bo‘yida, yarimorolda, orollarda joylashgan mamlakatlar, arxipelag-mamlakatlarga bo‘linadi. Xududi bevosita dengizga tutash bo‘lmagan mamlakatlar (40 taga yaqin) alohida guruhni tashkil etadi.

Dunyo mamlakatlarini toifalash. Jahon mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko‘ra ham bir-biridan farq qiladi. Ularni 2 guruhga bo‘linadi: Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar.

Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar ikkita toifaga ajratiladi:

Birinchi toifani yuksak rivojlangan AQSh, Yaponiya, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Kanadadan iborat “katta yettilik” deb nomlanuvchi mamlakatlar tashkil etadi.

Rivojlangan mamlakatlarni ikkinchi kichik toifasiga kamroq rivojlangan, birinchi navbatda Yevropa mamlakatlari kiradi. Bu mamlakatlar har birining siyosiy va iqtisodiy qudrati uncha katta bo'lmasa ham, lekin umuman olganda ular jahon ishlarida katta, shu bilan birga tobora ortib borayotgan ahamiyat kasb etadi. Misol: Ispaniya, Shveytsariya, Avstriya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Daniya, Irlandiya, Islandiya, Norvegiya, Shvesiya, Finlandiya.

Uchinchi toifa sotsializm tuzimi barbod bo'lib, bozor iqtisodiyoti yo'nalishida rivojlanayotgan mamlakatlarga ajratiladi. Ular ikki guruhga ajratiladi:

2. Sharqiy Yevropa mamlakatlariga Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Ruminiya, Bolgariya, Sloveniya, Xorvatiya, Bosniya va Gersogoviniya, Serbiya, Chernogoriya, Makedoniya.

3. Sobiq sovet ittifoqi tarkibidan ajralib chiqqan mamlakatlarga Rossiya, Latviya, Litva, Estoniya, Belorussiya, Ukraina, Moldova, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Uzbekiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston kiradi.

Qolgan barcha mamlakatlar va BMT xududlari rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiritiladi. Ular butun yer yuzi maydonining yarmini egallaydi, aholisi esa dunyo aholisi sonini yarmidan ortig'ini, Xitoyni qo'shib hisoblaganda 70% dan ortig'ini tashkil etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar dunyo siyosiy haritasida Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Okeanida ekvator dan shimolga va janubga katta masofaga cho'zilgan mintaqani egallaydi. Bu mamlakatlardan ayrimlari (Eron, Tailand, Efiopiya, Misr, Lotin Amerikasi mamlakatlari va boshqalar) 2-jahon urushidan ancha oldin mustaqillikka ega bo'lgan. Ko'pchiligi esa mustaqillikka urushdan keyin erishgan. Ular 5 toifaga bo'linadi:

1- toifa. Tayanch mamlakatlar-Xitoy, Hindiston, Braziliya, Meksika.

2- toifa. Yangi sanoatlashgan mamlakatlar-Koreya respublikasi, Singapur, Malayziya, Tayvan, Gonkong (Osiyo yo'lbarisi), Tailand, Indoneziya

3- toifa. Neft eksport qiluvchi mamlakatlar-Saudiya Arabistoni, Quvayt, Qatar, BAA, Eron, Iroq, Liviya, Jazoir, Nigeriya, Angola, Venesuela, Indoneziya (OPEK).

4- toifa. O'z taraqqiyotidan sezilarli darajada orqada qolayotgan mamlakatlar – KXDR, Vyetnam, Laos, Mongoliya, Kuba, Albaniya, (Sotsializm tuzumi xozirgacha saqlanib qolayotgan mamlakatlar)

5- toifa. Eng kam rivojlangan 42 ta mamlakat kiradi: Osiyoda –Bangladesh, Nepal, Afg'oniston, Yaman. Afrikada-Mali, Niger, Chad, Efiopiya, Somali. Lotin Amerikasida – Gaiti kabi mamlakatlar.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Dunyo siyosiy xaritasida II jahon urushidan keyin qanday o'zgarishlar ro'y bergan?
2. XX asrning 90-yillarida dunyo siyosiy xaritasida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
3. Mamlakatlarni qaysi jihatiga ko'ra guruhlash keng tarqalgan?
4. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'ra mamlakatlar qanday guruhlarga bo'linadi?
5. Rivojlanayotgan mamlakatlar qanday toifalarga bo'linadi?
6. Boshqaruv shakliga ko'ra mamlakatlar qanday guruhlarga bo'linadi?

Adabiyotlar:

1. Географический справочник ЦРУ.-Екатеринбург,2004
2. Энциклопедический справочник «Страны мира» Смоленск, Русыч 2006
3. В. В. Вольского. Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред– М.: Крон-пресс, 2003.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI .,2010

Ma'ruza № 3

Mavzu: Osiyoning umumiy ta'rifi.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: 1. Osiyoning geografik o'rni, reliefi, iqlimi va ichki suvlari to'g'risida bilim berish.

4. Talabalarda Osiyoning tabiat mintaqalari va ma'muriy-hududiy bo'linishi to'g'risida bilim ko'nikmalarini hosil qilish.

Tayanch soʻz va iboralar: relyef; botiq; tekislik; plato; plita; yassi togʻlik; musson iqlimi; keng bargli oʻrmonlar; dunyo okeani; dengiz.

Reja:

1. Osiyoning geografik oʻrni va relʼefi.
2. Iqlimi va ichki suvlari.
3. Tabiat mintaqalari.
4. Maʼmuriy-hududiy boʻlinishi.

Osiyoning geografik oʻrni va relyefi. Osiyo butun dunyoning eng katta qitʼasi xisoblanadi. Uning umumiy maydoni 43.4 mln.km². Yevropa bilan qoʻshib xisoblaganda Yevrosiyo materigini tashkil etadi. Osiyo bilan Yevropa oʻrtasidagi chegara odatda Ural togʻlaridan oʻtkaziladi, yoki ularning sharqiy etagida joylashgan Emba (Gʻarbiy Qozogʻistonda), Kuma, Manich, (RF janubi- gʻarbida) daryolardan, Kaspiy, Azov, Qora, Marmar dengizlaridan, Bosfor va Dardanell boʻgʻozlaridan oʻtgan. Afrika bilan Osiyo Suvaysh kanali orqali bogʻlangan, Shimoliy Amerikadan uni Bering boʻgʻozi ajratib turadi.


Osiyoni oʻrab turgan Shimoliy muz, Tinch va Hind okeanlarida, ularning chekka dengizlarida, hamda materik ichkarisida joylashgan Atlantika okeani dengizlarida juda koʻp orollar mavjud. Orollarning umumiy maydoni 2 mln.km² tashkil etadi.

Osiyo qitʼasida baland togʻlar katta hududni egallaydi. Togʻlarning oʻrtacha balandligi 950 m, yer sharining eng baland nuqtasi Ximolay togʻ tizmasida Jomolungma choʻqqisi (8848m) joylashgan. Osiyo xududining $\frac{3}{4}$ qismini togʻ va yassi togʻlar egallaydi. Asosiy togʻ tizmalari: Ximolay, Qoraqurum, Pomir, Tyanshan, Xindiqush, Kunlan, Katta Kavkaz, Oltoy, Sayan, Verxoyansk, Chersk.

Yirik togʻliklar: Tibet, Stanovoe, Koryaksk.

Yassi togʻliklar: Oʻrta Sibir, Arabiston, Dekan.

Yirik tekisliklar: Gʻarbiy Sibir, Turon, Buyuk Xitoy, Xind-Ganga.



Xorijiy Osiyoni tabiiy xaritasi.

Sharqiy Osiyo orollarida va Malay arxipelagida koʻp kuchini yoʻqotmagan vulqonlar bor, bu yerlar zilzila jihatidan xavflidir.

Iqlimi va ichki suvlari. Osiyoning shimolida – arktika iqlimi, Sharqiy Sibirda – keskin kontinental-moʻtadil iqlim, Sharqiy va Janubiy Osiyoda musonnli iqlim, Markaziy va Gʻarbiy Osiyoda choʻl va chalachoʻl iqlimi kuzatiladi. Muzliklar markaziy Osiyoning eng baland Ximolay, Pomir, Tyanshan, Oltoy togʻlarida joylashgan (umumiy maydoni 120000 km² ortiq). Xududning katta qismini, asosan Shimoliy va Sharqiy Sibirda, koʻp yillik

muzliklar(maydoni 10 mln km dan ortiq) egallagan. Shimoliy muz okeani xavzasida Ob,Enisey,Irtish,Lena yirik daryolar bor.

Tinch okeani havzasida Osiyoning eng uzun daryosi Yansizi (5800 km), Sitszyan, Mekong, Xuanxe, Xind okeani xavzasida Xind, Ganga, Braxmaputra, Iravadi, Saluin, Shatt-al-Arab yirik daryolari oqib o'tadi. Ichki suvlarining oqib tushish maydoni juda katta(Kaspiy va Orol dengizlarining havzalari, Markaziy Osiyoning ko'pdan-ko'p rayonlari). Osiyoning yirik ko'llari qatoriga Baykal, Balhash, Issiq ko'l, Van, Urmiya, Kukunor, Payanxu, Duntexu, Tonlesap ko'llari kiradi.

Tabiat mintaqalari.Osiyo hududida Shimoliy yarimsharga hos bo'lgan barcha tabiiy mintaqalar joylashgan.Arktika orollarida va shimoliy Muz okeani sohil bo'ylarida Arktika cho'llari va Tundralar yoyilgan, janubdan ularni ensiz hududni egallagan o'rmon-tundra o'rab olgan. Janub tomonga yo'nalgan sari Tayga, aralash va keng bargli o'rmonlar, o'rmon-dasht va dashtlar almashinib keladi. Chala cho'l va cho'llar Arabiston yarim orolida, Eron yassi tog'larining ichki qisimlarida joylashgan.

G'arbiy Osiyoning subtropiklarida O'rta dengiz tipidagi o'simliklar tarqalgan, Sharqiy Osiyoda esa musson aralash va keng bargli o'rmonlar mavjud. Sharqiy va janubiy Osiyoning tropik kengliklarida bargi to'kiladigan o'rmonlar va savannalar, shamol tomoniga ro'para bo'lgan tog' yonbag'irlarida doimiy yashil o'rmonlar, ekvatorial kengliklarda (asosan Indoneziyada) ko'pyarusli botqoqlashgan o'rmonlar-Gileyalar tarqalgan.



Osiyoning siyosiy xaritasi.

Mamuriy hududiy bo'linishi. Osiyo hududida MDHning asosiy qismi va boshqa mamlakatlar joylashgan. Osiyoda 3 mlrd dan ortiq aholi yashaydi. Hududiy bo'linishiga ko'ra Osiyo 4 ta mintaqaga ajraladi.

1. Janubiy-G'arbiy Osiyo. Uning tarkibiga Afg'oniston, Eron, Turkiya, Suriya, Livan, Iordaniya, Iroq, Saudiya Arabistoni, Yaman, Ummon, BAA, Bahrayn, Qatar, Quvayt, Isroil, Kipr, Falastin kiradi.

2. Janubiy Osiyo mintaqasiga Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Nepal, Butan, Shri-Lanka, Maldiv respublikasi kiradi.

3. Janubiy-Sharqiy Osiyo Vyetnam, Laos, Kambodja, Tailand, Myanma (Birma), Malayziya, Singapur, Bruney, Indoneziya, Sharqiy Timor, Filippin davlatlaridan tarkib topgan.

4. Sharqiy va Markaziy Osiyoda Mangoliya, Xitoy, Makao, Yaponiya, KXDR va Janubiy Koreya joylashgan.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Osiyoning geografik o'rni va relyefini ta'riflang?
2. Osiyo qanday iqlim mintaqalarida joylashgan?

3. Osiyo suv resurslari bilan qay darajada ta'minlangan?
4. Osiyoda qanday tabiat mintaqalarini kuzatish mumkin?
5. Osiyo ma'muriy-hududiy jihatdan nechiga bo'linadi?

Adabiyotlar:

1. V.G.Maksakoviy Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Toshkent., O'qituvchi – 1995.
2. «Страны и народы» том Зарубежная Азия,. Москва «Мысль» 1979.
3. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI „2010

Ma'ruza №4

Mvzu: Koreya haqida umumiy ma'lumot

O'quv mashg'ulotining maqsadi: 1.Koreyaning tabiiy, iqtisodiy, siyosiy geografik o'rniga baho berish ko'nikmasini hosil qilish. 2. Talabalarda relyef va uning shakllari hamda foydali qazilmalarning turlari to'g'risida tushuncha hosil qilish.

Tayanch so'z va iboralar: plato; karst; delta; botiq; temir rudasi; antrosit; grafit; ohaktosh; talk; kvars; qo'ng'irko'mir; temir rudasi; oltin; yonuvchi slanets; dengiz shelfi; relyef

Reja :

1. Umumiy ma'lumot:
 - a) Shimoliy Koreya
 - b) Janubiy Koreya
2. Koreya yarimorolining relyefi
3. Foydali qazilmalari

Yevropaliklar tomonidan qabul qilingan Koreyani nomi - o'rta asrlardagi davlat Koryo nomidan kelib chiqqan. Koreyani shoirona nomi "Ertalabki salqin mamlakat", "Ertalabki osoyishta mamlakat" nomlari ham keng tarqalgan.

Koreya Osiyoning eng chekka sharqida, asosan Koreya yarim orolida va 3 mingdan ortiq (3400) atrofidagi orollarda joylashgan mamlakat. Koreya geografik sharoitiga ko'ra Osiyoning shimoli-sharqiy quruqlik qismi va Tinch okeanning chekka orollari o'rtasida tabiiy ko'pri bo'lib xisoblanadi. Maydoni 218,89 ming km², shundan 6 ming km² orollarga to'g'ri keladi. Shimoldan janubga uzunligi -800 km, g'arbdan sharqqa maksimum 354km, ming 175km ni tashkil qiladi.

Shimolda Koreya Xitoy(1416km) va Rossiya(19km) bilan chegaradosh. Suv yo'li chegarasining uzunligi 1400km. Dengiz bilan chegarasining uzunligi 8700km. Koreya qirg'og'i Sharqda Yapon dengizi bilan, g'arbda Sariq dengiz bilan, janubda Koreya bo'g'ozi suvlari bilan yuvilib turadi.

Axolisi 70 mln kishidan ortiq. Bu yer yuzidagi axoli eng zich yashaydigan joy bo'lib, o'rtacha zichlik 1km²da 463 kishi. Etnik tarkibi bir xil: deyarli mamlakat axolisining hammasi (99% koreyslar). Ozigina qismi xitoyliklar. Davlat tili – koreys tili.

Koreya - qadimiy mamlakat, o'zining tarixi va boy madaniyatiga ega. Koreya yaxlit mamlakat bo'lib, amerika imperialistlarining aybi bilan ikkiga bo'lindi. Bu ikki hudud orasidagi zonaning kengligi 4km, uzunligi 250km. Yarim orolning shimoliy qismini Shimoliy Koreya va Janubiy qismini Janubiy Koreya egalladi.

Er.av. II-I asrlarda hozirgi Koreya hududi Xitoy mustamlakasi bo'lgan. Er.av 37-yilda Koreya yarim orolining shimolida Koreya davlati Kogure bo'lgan, janubiy qismi 2 ta qirollikka Pekche va Sillaga bo'lingan. X asr oxirida Koreya davlati Kore sulolasi hukumronligi ostida birlashadi. Koreya sulolasi Li hukumronligi vaqtida (1392-1910) mamlakat Yapon (XVI asr oxiri) va manjurlar (XVIII asr) bosqinchilari ostida qoldi. XIX asrda Xitoy, Yaponiya, Rossiya o'rtasida munozarali hudud bo'lib qoldi. 1910 yilda Yaponiya o'z mustamlakasiga aylantirdi. 30-yillar boshida yapon mustamlakachilariga qarshi milliy ozodlik kurashi partizanlar harakati shaklini oldi. Ikkinchi jaxon urushidan keyin yapon millitarizmining mag'lubiyatga uchrashida SSSR hal qiluvchi rol o'ynadi. Yaponiyaning Koreya ustidan hukumronligiga chek qo'yildi. Koreya vatanparvarlarining uzoq yillik kurashi g'alaba bilan tugallandi. Ikkinchi jahon urushida keyin Shimoliy Koreyada

xalq demokratik inqilobi boshlandi. Shimoliy Koreyada yangi demokratik hukumat organlari - xalq qo'mitalarining tashkil etilishi, 1946-yilda "Ishchilar partiyasi" rahbarligi ostida demokratik o'zgarishlar o'kazildi: yer islohati, sanoatni milliyalashtirish va boshqalar.

Janubiy Koreyada 1945-yil kuzda reaksion kuchlar amerika xarbiylari yordamida demokratik harakatlarni bostirdi va mamlakatning bo'linishiga sabab bo'ldi. 1948-yil sentyabrda mana shu sharoitda Yuqori Xalq kengashi Shimoliy va Janubiy Koreyaning ko'pchilik aholi ovoz berishi natijasida KXDRning tuzilganligi e'lon qilindi va Janubda esa Koreya Respublikasi tashkil topdi.



Koreya yarim orolining siyosiy xaritasi.

Shimoliy Koreya maydoni 120,54 ming km². Axolisi 23.486.550 kishi. Poytaxti - Pxen'yan. 9 ta ma'muriy provintsiyaga va 4 ta markazga bo'ysunuvchi shaxarlar (Pxen'yan, Keson, Xamxin, Chxonjin). Davlat boshligi - prezident. Davlat hukumatining Yuqori organi va qonun chiqaruvchi organi - bir palatali Yuqori Xalq yig'ini hisoblanadi. 1948-yil Kim Ir San rahbarligida Mehnat partiyasi MK hukumati shakllandi. 1958-yilda qishloq va shaharlarda ijtimoiy shakllanish tugallandi. 1972-yil dekabrda KXDRning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi.

KXDR xalq hukumati yillarida mustamlaka mamlakatdan industrial-agrar sotsialistik mamlakatga aylandi. Iqtisodiy rivojlanishi sotsialistik mamlakatlar bilan hamkorlikda olib

borildi. Sanoat xissasiga sanoat mahsulotlari va qishloq xo'jalikning $\frac{3}{4}$ qismi to'g'ri keladi. Elektr energiyasi ishlab chiqariladi, ko'mir, temir, rux, molibden, volfram, qo'rg'oshin, mis, alyuminiy, magniy, oltin, grafit, pirit, tuz qazib chiqariladi.

Asosiy sanoat tarmoqlari: qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoati. Qurilish materiallari ishlab chiqariladi, yog'ochni qayta ishlovchi, kimyo va neft kimyosi, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoat tarmoqlari bor. Qishloq xo'jaligida dehqonchilik ustun turadi. Yerlarga ishlov beriladi va sug'oriladi. Sholi, texnika ekinlari, dukkaklilar, paxta, tamaki va boshqalar yetishtiriladi. Plantatsiyalarda jenshen, bog'dorchilik, sabzavotchilik rivojlangan. Yirik shoxli qoramollar, cho'chqachilik, parrandachilik, baliqchilik tarmoqlari bor.

Temir yo'llarning uzunligi - 4915km dan ortiq, shundan 3500km elektrlashtirilgan, avtomobil yo'llari - 31200 km dan ortiq. Dengiz portlari: Vonsan, Chxonjin, Nampxo, Xinnam.

Tashqi aloqalar aylanmasining hissasi 80% dan ortiq. Metallurgiya, kimyo, mashinasozlik, tog'-kon sanoati mahsulotlari, baliq mahsulotlari, mevalar eksport qilinadi. Hamkorlari: Xitoy, Yaponiya, Rossiya, Germaniya. Pul birligi-vona.

Janubiy Koreya maydoni 98190km². Axolisi-48 mln kishidan ortiq.

Poytaxti Seul shaxri. 9ta ma'muriy provintsiyaga bo'linadi. Yirik shaharlari Seul va Pusan. Mamlakat iqtisodi chet el kapitaliga bog'liq (Yaponiya va Amerika). Iqtisodi militarizatsiya va industrializatsiyalashtirilgan. Eksport tarmog'i va og'ir sanoat tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Yoqilg'i sanoatida elektr energiya va ko'mir qazib olish rivojlangan. Metallurgiya, mashinasozlik, neftni qayta ishlovchi va kimyo sanoati, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari rivojlangan. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i dehqonchilik. Don (sholi, g'alla, arpa), dukkaklilar yetishtirish ustun turadi. Paxta, tamaki, kanop kabi texnika ekinlari yetishtiriladi. Bog'dorchilik, sabzavotchilik tarmoqlari bor. Temir yo'llarning uzunligi 6,24ming km, shundan 525km elektrlashtirilgan. Avtomobil yo'llari 87534km. Dengiz portlari: Pusan, Ulsan, Inchxon.

Eksport mahsulotlari: yengil sanoat mahsulotlari, avtomobil, kema, po'lat, elektronika mahsulotlari, mashina va jihozlar, baliq. Asosiy tashqi savdo hamkorlari: Yaponiya, AQSh, Xitoy, Gonkong, Tayvan, Avstraliya, Saudiya Arabistoni. Pul birligi - Janubiy Koreya vonasi.

Relyefi. Koreya tog'li mamlakat. Tog'lar uning hududini 80%ini tashkil qiladi. Yer yuzasining dengiz sathidan o'rta balandligi 482m. Tog'larning burmalanishi o'z xarakteriga ko'ra turli xil tektonik harakatlar natijasida yuz bergan. Bunday harakatlar mamlakatning shimoli-sharqiy rayonida kuzatiladi. Koreya yer yuzasining shakillanishida vertikal harakatlar katta rol o'ynagan. Ba'zi bir bu tektonik harakatlar hozir ham davom etmoqda. Buni natijasida Koreyani hamma hududi seysmik zona hisoblanadi, lekin seysmik xavf darajasi turli rayonlar uchun turlicha.

Koreya tog'larini ikki asosiy sistemaga ajratish qabul qilingan: Shimoliy Koreya tog'lari mamlakatning shimoliy qismida joylashgan, Sharqiy Koreya tog'lari Koreya yarim orolini sharqiy qismini egalaydi.

Shimoliy Koreya tog'lari bir qator yassi tog'liklar va tog' tizmalaridan tashkil topgan. Ancha yirik tizmalar Hamgyon, Pudjallyon, Nannim, Machxallyon hisoblanadi. Bu tog'lar Koreyani ancha baland qismi hisoblanadi. Shimoliy Koreya tog'larining yarimiga yaqin maydoni 1500 m balandda yotadi, aloxida cho'qqilar 2000m gacha va undan balandga ko'tariladi.



Koreya yarim orolining tabiiy xaritasi.

Hamgyon tizmasi deyarli 400km Yapon dengizi sohiliga parallel cho'zilgan. Shimoli-sharqiy qismi deyarli hamma joyda 1500m dan pastga tushmaydi, aloxida cho'qqilari 2300m gacha ko'tariladi. Pudjallyon tizmasi Hamgyon tizmasining janubi-g'arbiy davomi hisoblanadi.

Hamgyon va Pudjallyon tizmalaridan shimolda Kema va Pektu yassitog'liklari joylashgan. Ularning yirigi Kema bo'lib, u g'arbda Nannim tizmasi va sharqda Maxgon tizmalari orasida joylashgan.

Shimoliy Kema zamonaviy vulkanizm izlarini o'zida saqlagan bazaltli yassitog'lik - Chenbeksan bilan tutashadi. Bu yassitog'likning janubi-sharqiy qismida Koreya - Xitoy chegarasida vulqon - Pektusan joylashgan. Koreyadagi eng baland tog' (2750 m). Nannimdan g'arbda Shimoliy Koreya tog'lari uncha baland emas, lekin relyefi juda murakkab. Bir nechta tog' tizmalari janubi g'arbda Sariq dengiz sohili tomon deyarli bir-biriga parallel cho'zilgan. Shimoliy Koreya tog'li rayoni tabiiy resurslarga boy. Bu yerda mamlakatning asosiy o'rmon massivlari joylashgan, gidroenergiya, foydali qazilmalar zahirasiga boy.

Sharqiy Koreya tog'lari meridional yo'nalishda zanjir hosil qilgan. Ular Sharqiy Koreya ko'rfazidan janubda Yapon dengizi sohiliga parallel cho'zilgan. Shu yerdan Yapon va Sariq dengizga quyuluvchi daryolar boshlanadi.

Txebek tog'lari Sharqiy Koreya tog'larini o'rta qismini egallab, janubi-g'arbiy yo'nalishda cho'zilgan bir qator kichik tizmalardan tashkil topgan. Txebek tog'larining janubiy qismi murakkab tuzilishda. Txebekda, asosan g'arbiy pasaygan qismida keng vodiylarda aholi dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Sharqiy Koreya tog'larining janubiy qismi ikkita asosiy yo'nalishga ajralgan: janubiy Kyonsan va janubi-g'arbiy Sobek.

Koreyaning katta qismi tog'lar va adirlar bilan band, lekin pasttekisliklar nisbatan kam. Koreya hududi umumiy maydonining taxminan $\frac{1}{4}$ qismini tashkil etadi. Pasttekisliklar tog' tizmalari orasida va dengiz sohili bo'yida joylashgan.

Keng pasttekisliklar mamlakatning g'arbiy qismida dengiz sohili bo'yida joylashgan. Ular orasida Xangan daryosining quyi oqimida va Koreya yarim orolining janubi-g'arbidagi Kimgan daryosi havzasida, shuningdek yarim orolning shimoli-g'arbidagi Pxenyan pasttekisligi alohida ajralib turadi. G'arbiy sohil bo'yidagi pasttekisliklar Koreyaning aholi eng zich joylashgan va yaxshi o'zlashtirilgan hududlaridan biri hisoblanadi. Bu yerdagi iliq nam iqlim va unumdor tuproqlar sholichilikni rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratgan.

Koreyaning sharqiy sohilbo'yi pasttekisliklari ancha kichik: ulardan eng kattasi Sharqiy Koreya bo'g'ozi yaqinidagi Xamkin pasttekisligi hisoblanadi. Tekisliklarga mamlakatning 25% maydoni to'g'ri keladi.

Janubiy Koreyada oxaktoshlardan iborat bo'lgan g'orlar bor. Ulardan eng mashhurlari - Kossigul, Xvansongul. Bu g'orlarda stalaktitlar va stalakmitlar, ko'llar, daryolar bor.

Foydali qazilmalar. Koreya hududida geologik ishlar natijasida ba'zi metall va minerallarning yirik zahiralar topilgan. Masalan volfram rudalari dunyodagi eng yirik zahiralar turkumiga kiradi. Undan tashqari mamlakatda oxaktosh, talk, kaolin, kvarsning yirik konlari topilgan. Grafit konalari ham jahon miqyosida katta hisoblanadi. Ulardan tashqari, Koreya yarimorolida magnezit, qo'rg'oshin, mo'libden va boshqa metal rudalari uchraydi. Mamlakatda deyarli neft konlari yo'q. Shuning uchun asosiy yoqilg'i energetik resurslar sifatida antratsit va ko'ng'ir ko'mir xizmat qiladi. Antratsit Tedongan daryosining o'rta qismida va Sharqiy Koreya tog'larida qazib olinadi. Qo'ngir ko'mirning eng yirik konlari esa shimoli-sharqda joylashgan.

Temir rudasi Koreya sharoitida yer yuziga yaqin joylashgan. Taxminiy xisob-kitoblarga ko'ra temir ruda zahiralarining xajmi 2 mld.t., shu jumladan 1,3 mld.t. Musanda (Xamgenpukto provinsiyasi). Bulardan tashqari yirik temir konlari Xvanxenamdo va Konvondo provinsiyalarida ham bor.

Rux, qo'rg'oshin, kumush olinadigan polimetall rudalari Kamdon rayonida (xamgennamdo), shuningdek Inkxa rayonida(Xvanxepukto) va Kanvondo provinsiyasining janubida joylashgan.



Koreya Respublikasining tabiiy xaritasi.

Mis konlari shimoli-g'arb va janubda mavjud. Bu yerlarda mis bilan birga oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallar uchraydi. Koreya yarimorolining ko'p yerlarida grafit, magnezit, oltin uchrab turadi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Koreyaning GO'ga tabiiy, iqtisodiy va siyosiy baho bering.
2. Koreya qaysi davlatlar bilan chegaradosh?
3. Koreya yer yuzasini tuzilishini izohlab bering.
4. Koreya tabiiy resurslar bilan qay darajada ta'minlangan?

Adabiyotlar:

1. «Страны мира» Энциклопедический справочник Смоленск «Русич» 2001г.
2. «Экономическая география зарубежных стран» под.ред. С.Н.Ледовских и М.С.Розина М. «Высшая школа» 1982г.
3. В.П. Максаковский «Экономическая и социальная география мира» М.1995г.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDShI .,2010
5. Г.Д.Толорая «Республика Корея», 1991 стр.8-14

Ma'ruza №5

Mavzu: Koreya iqlimi va ichki suvlari

O'quv mashg'ulotining maqsadi : 1.Koreya iqlimi to'g'risidagi bilim berish; 2. Koreyaning suv resurslari to'g'risidagi bilim konikmalari hozil bo'ladi.

Tayanch so'z va iboralar: musson iqlimi, mo'tadil, subtropik, atmosfera sirkulyatsiyasi daryo

Reja:

1. Koreya yarimorolining iqlim sharoiti
2. Koreyaning suv resurslari

Koreya quyi kengliklarda va dengiz havzalari bilan o'ralganligiga qaramay mamlakatning katta qismida iqlimi mo'tadil va ancha og'ir. Buning sababi shuki Osiyo qit'asining sharqiy chekkasida o'ziga xos bo'lgan atmosfera sirkulyatsiyasi jarayonlari havo oqimining mavsumiy almashinuvi bilan izohlanadi. Qishda kuchli sovuq quruq havo oqimlari Koreyaga quruq sovuq havoni olib keladi. Yozda mamlakat hududi kuchli atmosfera namligini olib keluvchi okean havo massalari ta'sirida bo'ladi. Qishki va yozgi mussonlar atmosfera sirkulyatsiyasining tarkibiy qismi bo'lib va u Koreya iqlimida musson xarakterini ifodalaydi.

Koreyada mavsumlarni juda aniq ajratish mumkin. Buni sababi shuki, qishda Osiyo qit'asida shakllanayotgan kuchli antitsiklon sovuq havoni Tinch okeani tomon haydaydi, yozda esa butun yarim orol okeandan keladigan mussonlar hukmida bo'ladi. Qishki musson noyabrdan martgacha bo'ladi. Janubiy Koreyada mart oxirgi sovuq oy hisoblanadi, shimolda bahor kech keladi. Aprelda qishki sovuq shamollar o'zgarib, qorlar erib, sovuq ancha yumshaydi va mamlakat bo'ylab bahor keladi.

Musson atmosfera sirkulyatsiyasining yumshashi bilan havo haroratining tez ko'tarilishi, 10°C gacha va undan yuqori kuzatiladi. O'simliklarning vegetatsiya davri boshlanadi. Bahor ikki oy davom etadi.

Iyunda Koreya hududi yozgi musson ta'sirida bo'ladi, lekin yozgi musson iyulda aniq ifodalanadi. Iyulda yomg'irli kunlar ko'p bo'ladi. Kuchli yomg'irlar tez-tez bo'lib turadi.

Yozgi shamollar tartibi sentyabrda o'zgaradi. Shu bilan birga namlik ham kamayadi, lekin havo harorati hali yuqori bo'ladi.

Koreya haroratlar sharoiti uchun yillik harorat tebranishining kattaligi bilan xarakterlanadi. Eng issiq va eng sovuq oyning haroratlari orasidagi farq hamma joyda katta, lekin shimoliy rayonlarda juda yuqori darajada. Amnakkonning yuqori oqimida joylashgan. Chungan shahrida eng issiq oy va eng sovuq oyning o'rtacha harorati orasidagi farq 40°C dan oshadi. Bu farq Pxenyanda 32,5°C ni va xattoki Koreya yarim orolining eng chekka janubida (Makpxo) harorati orasidagi farq deyarli 25°C ni tashkil qiladi. Qishki mussonalar uchun ochiq bo'lgan g'arbiy sohil haroratining yillik amplituda tebranishi odatda Yapon dengizi sohiliga nisbatan 2-7°C yuqori bo'ladi.

Yozda harorat taqsimoti bir hil, lekin eng issiq mavsumning davomiyligi har hil rayonlarda turlicha. Koreya janubida 6 oy davomida (may-oktyabr) o'rtacha harorat 16°C atrofida, shimoli-sharqiy rayonlarda esa bu mavsum faqat 4 oy davom etadi.

Koreya hududining katta qismi issiqlik resurslari bilan yuqori darajada ta'minlangan, issiqsevar sug'oriladigan o'simliklar - sholi, yeryong'oq, paxta, kunjut va boshqalar uchun yetarli darajada. Yarimorolning yuqori harorat kursatkichlari bilan ajralib turuvchi janubida sitrus mevalar yetishtirish mumkin.

Koreyaning turli rayonlarida atmosfera yog'inlarining yillik miqdori 600 mm dan 1500 mm gacha. Yog'inning katta qismi mamlakatning janubida ko'proq tushadi, shimolga tomon yog'in miqdori kamayib boradi. Bu esa relyefga bog'liq ravishda o'zgarib boradi. G'arbiy siklonlarga ochiq tog'larning g'arbiy va janubi- g'arbiy yonbag'irlarida yog'inning o'rta yillik miqdori 1000 mm dan oshadi, tog' tizmalari bilan to'silgan shimoli-sharqiy sohilbo'ylariga 700 mm dan kam yog'in tushadi. Shuningdek, shimoli-g'arbiy sohillardagi pasttekisliklarga va asosan Xvanxe yarim oroli yaqinidagi orollarga nisbatan kam yog'in tushadi, bir yilda 500 mm dan oshmaydi. Sharqiy sohilda joylashgan Vonsan va Kannim buxtasiga bir yilda 1200 mm dan ko'p yog'in tushadi.

Ichki suvlari. Koreya yer usti suvlariga boy. Tushadigan yog'inning yarimidan ko'pi yer usti oqimini tashkil qiladi. Yer usti oqimining qatlami hamma joyda 40 sm dan oshadi, ba'zi daryo havzalarida u 70 sm ga yetadi. Oqimning asosiy qismi yuqori tog' daryolariga to'g'ri keladi. Koreyada asosiy oqim issik mavsumga - 4 yoz oyiga, asosan kuchli oqim iyulda kuzatiladi.

Koreyadagi daryolar kalta, suv yig'adigan havzasi kichik, lekin sersuvligi bilan farq qiladi. Daryo to'ri Koreya yarim orolining g'arbida va janubida to'plangan hamda ular Sariq dengiz, Koreya bo'g'ozi havzasiga tegishli.

Amnokkan - Koreyaning eng yirik daryosi bo'lib, havzasining maydoni 69000 km². Amnokkan baland tog'dan oqadi va faqat ozgina qismi tekislikdan oqadi.

Tedongan - daryosi Shimoliy Koreya tog'larining janubiy yonbag'ridan boshlanadi. Daryo havzasi katta emas, lekin sersuv.

Xangan - daryosi Sharqiy Koreya tog'laridan boshlanadi va yuqori oqimida tog' daryosi xarakterida. O'rta va quyi oqimlarida adir va pasttekisliklardan oqadi.

Naktongan - daryosi Koreya bo'g'oziga quyiladi, keng havza va uzunligi bilan ajralib turadi.

Koreyani sharqiy sohilidagi, Xitoy va Rossiya bilan chegarasidagi asosiy daryosi - Tumangan. Koreya daryolari kema qatnoviga qulay. Daryolardan gidroenergiya manbalari sifatida keng foydalaniladi, sun'iy sug'orishda foydalanish uchun suv omborlar qurilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Koreya qanday iqlim mintaqasida joylashgan?
2. Koreyada yog'inlarning taqsimlanishi
3. Koreyaning eng yirik daryolari qaysilar?

Adabiyotlar:

1. «Страны мира» Энциклопедический справочник Смоленск «Русич» 2001г.
2. «Экономическая география зарубежных стран» под.ред. С.Н.Ледовских и М.С.Розина М. «Высшая школа» 1982г.
3. В.П. Максаковский «Экономическая и социальная география мира» М.1995г.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI .,2010
5. Г.Д.Толорая «Республика Корея», 1991 стр.8-14

Ma'ruza № 6

Mavzu: Koreya aholisi va mehnat resurslari

O'quv mashg'ulotining maqsadi: 1.Koreya aholisining etnik va diniy tarkibi, uning zichligi hamda joylashishi haqida bilimlar berish 2.Koreya aholisining dunyoda tutgan o'rni haqida bilim ko'nikmalari xosil bo'ladi

Tayanch so'z va iboralarlar: etnik tarkib, urbanizatsiya, demografiya, emigratsiya, mehnat resurslari, aholi zichligi, aholining tabiiy o'sishi, aglomeratsiya.

Reja:

1. Shimoliy Koreya aholisi
2. Janubiy Koreya aholisi
3. Diniy tarkibi
4. Aholi zichligi va uning joylashishi
5. Koreyada urbanizatsiya jarayoni.

Shimoliy Koreya aholisi 23.486.550 kishini tashkil qiladi, o'rta zichlik 1 km² da 195 kishi atrofida to'g'ri keladi. Etnik tarkibi bir xil, deyarli mamlakatning hamma aholisi koreyslar, 1% atrofida aholi xitoylar. Davlat tili koreys tili. Tug'ilish har 1000 kishiga 23,31 ta. O'lim har 1000 kishiga 5,47 ta (bolalar o'limi har 1000 chaqaloqqa 26,8 ta). O'rtacha umr ko'rish erkaklarda 67 yosh, ayollarda 73 yosh.

Janubiy Koreya aholisi 48mln. kishidan ortiq, o'rtacha zichlik 1 km²da 463 kishi atrofida. Etnik tarkibi bir xil koreyslar, oz qismi xitoylar. Davlat tili koreys tili. Tug'ilish har 1000 kishiga 15,63, o'lim har 1000 kishiga 6,18 ta. (bolalar o'limi har 1000 chaqaloqqa 20,9). O'rtacha umr ko'rish: erkaklarda 68 yosh, ayollarda 74 yosh. Mehnatga layoqatli aholi

200 mln. kishini tashkil qiladi, xizmat ko'rsatish tarmog'ida 52%, sanoatda 27%, qishlok xo'jalikda 21% aholi band.

Koreyada buddizm eng qadimiy dinlardan bir hisoblanadi. U xitoy hududidan kirib kelgan. Buddizm Koreyada Kore sulolasi davrida ancha gulladi. Bu davrda budda cherkovlari mamlakatning ham iqtisodiy ham siyosiy hayotida muhim rol o'ynadi.

XIV asr oxirida buddizmni ta'siri kamayadi. Bu esa hukumat boshiga Li sulolasi kelishi bilan bog'liq bo'ladi. Bir necha yillar davomida qator qonunlar chiqdi. Rohiyblarni yerlarga egalik qilish huquqlarini chekladi. Rohiblarni poytaxtga va yirik shaharga chiqishi man qilinadi, budda ibodatxonalarini tiklash taqiqlandi. O'zining ta'sirini va davlat ahamiyatini yo'qotgan buddizm konfutsionizmlar bilan bir qatorda amal qiladi. Konfutsianizm Koreyada V- VII asrlarda tarqaldi.

Xristianlik Koreyada birinchi marta 1592-yilda paydo bo'ladi. Biroq, faqatgina XVIII asr oxiridagina ozmi-ko'pmi xristianlik g'oyalari tarqaldi.

Janubiy Koreyada buddizmga 27% aholi, xristionlikka 24%, qolganlari konfutsianizm, chondoko' diniga e'tiqod qiladilar. Shimoliy Koreyada an'anaviy dini budda va konfutsionizm, biroq hozirgi vaqtda diniy faoliyat amalda yo'q.

Koreya hududida aholi notekis taqsimlangan. Tabiiy o'sish Shimoliy Koreyada Janubiy Koreyaga qaraganda bir muncha yuqori. Agar 1960-yillarda aholining yillik o'rtacha o'sishi 2,5% bo'lgan bo'lsa, 1990-yillarda bu ko'rsatkich 1% dan ham kamayib ketdi. Bu mamlakatda o'tkazilayotgan oilani rejalashtirish xarakatining natijasidir.

Aholi zich joylashgan provintsiya Xvanxe-Namdo (KXDR) o'rtacha zichlik Pxenyan-Namdo, Pxenyan-Pukto, Xvanxe-Pukto'da ham yuqori. Ikkinchi jahon urushiga qadar koreyslar migratsiyasi asosan 2 regionga - Manchjuriyaga va Yaponiyaga qaratilgan edi. Hozir Manchjuriyada 2 mln. va Yaponiyada 0,6 mln. koreys yashamoqda. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Koreya va Amerika munosabatlari ko'plab koreyslarni AQSh ga ko'chib borishiga olib keldi. Ba'zi taxminiy hisoblarga ko'ra, hozir AQSh da 1 mln. dan ortiq koreys millatiga mansub shaxslar yashamokda. Hisob kitoblarga ko'ra 1945-yildan keyin Shimoliy Koreyadan Janub Koreyaga 2 mln. kishi ko'chib o'tgan.

KXDR aholisining ko'p qismi xalq hukumatining dastlabki yillarda qishloqlarda yashagan. Sotsiolistik industrlashtirishni intensiv jarayoni aholini qishloqlardan shaharlarga ko'chib o'tishiga sabab bo'ladi. 1956-yildan 1980-yilgacha shahar aholisini soni 3,2 marta oshdi. Hozirgi vaqtda shaharlarda va ishchi posyolkalarda mamlakat aholisining 0,5 dan ko'pi yashaydi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Janubiy Koreyada urbanizatsiya jarayoni avj olib ketdi va hozir aholining 74,4% i shaharlarda istiqomat qiladi. 1960-yildan boshlab KRsida aholi qishloqlardan shaharga ko'chib bora boshladi va shahar aholisi 1960-yildagi 6 mln. dan 1990-yilgacha 32,4mln. ga ko'paydi. So'nggi 30 yil mobaynida mamlakatda misli ko'rilmagan industrlashtirish jarayoni kuzatilib, bu YAiM ni keskin ko'payishiga olib keldi. Mamlakat poytaxti Seulda aholi soni katta bo'ladi. Uning aholisi 1960-yilda 2,5 mln. kishi bo'lgan bo'lsa, 1990-yilga kelib bu raqam 10,6 mln kishiga yetdi. Shaharlar qiyofasi ham o'zgardi: masalan, 60-yillarda poytaxtda 10 qavatdan ortiq bo'lgan binolar mutlaqo bo'lmagan bo'lsa, hozir 30 qavatdan ortiq ko'plab binolarni uchratish mumkin va Yeido rayonida hattoki 63 qavatli go'zal bino bor. Shaxarlar soni ham ko'paydi. Agar 1945-yilda mamlakatda 12 ta yirik shahar bo'lgan bo'lsa, hozir maxsus statusga ega bo'lgan bir shahar Seul markazga bo'ysunuvchi 5 shahar- Pusan, Tegu, Inchxon, Kvanchju. Techjon va yana 67ta pravintsiyaga bo'ysunuvchi shaharlar qayd etilgan.

Tekisliklarda qishloqlar to'da-to'da bo'lib joylashgan. Qishloq aglomeratsiyalari ularning aholisini dushmanlardan himoya qilish uchun xizmat qilgan, o'tmishda ularda katta oilalar ko'p bo'lgan. Ba'zan ayrim qishloqlarda bir xil familiyaliklar ko'p uchrardi, bu shundan dalolat beradiki, ko'pchiligi bir urug'ga mansub, masalan., Kimgachxon, ya'ni Kimlar qishlog'i. Qishloqlar ko'pincha tog'larning janubiy etaklarida joylashgan bo'ladi. Bunday joylashish sovuq qish mussonlaridan saqlaydi. Qishloqlar zamonaviy sement va

cherepitsa bilan qurilgan, chiroyli aholi punktlariga aylanib bormoqda. Qishloq hayotidagi asosiy o'zgarish uning aholisining o'sish sur'atlari pasayib ketganligi bilan bog'liqdir.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Shimoliy va Janubiy Koreya axolisiga qiyosiy baxo bering.
2. Koreya aholisining diniy tarkibi qanday?
3. Koreyada aholi zich va siyrak joylashgan provinsiyalarni ayting.
4. Koreyada urbanizatsiya jarayonini izohlang.

Adabiyotlar:

1. «Страны мира» Энциклопедический справочник Смоленск «Русич» 2001г.
2. «Экономическая география зарубежных стран» под.ред. С.Н.Ледовских и М.С.Розина М. «Высшая школа» 1982г.
3. В.П. Максаковский «Экономическая и социальная география мира» М.1995г.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHl „2010
5. Г.Д.Толорая «Республика Корея», 1991 стр.8-14

Ma'ruza № 7

Mavzu: Koreya og'ir sanoati.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: 1Koreya og'ir sanoati haqida bilimlar berish 2. Koreyaning og'ir sanoat tarmoqlari haqida bilim ko'nikmalari xosil bo'ladi

Tayanch so'z va iboralar: og'ir sanoat; yengil sanoat; qora metallurgiya; rangli metallurgiya.

Reja:

1. Koreya og'ir sanoatiga umumiy ta'rif.
2. Elektro-energetika sanoati.
3. Metallurgiya sanoati.
4. Mashinasozlik sanoati.

Koreya Respublikasi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan industrial-agrar mamlakat. "Osiyo yo'lbarzlari" deb nomlanuvchi mamlakatlar orasida yetakchi o'rinni egallaydi.(KR, Tayvan, Gonkong, Singapur, Malayziya). O'zining sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha kapitalistik dunyoda u 15-o'rinni egallaydi, aylanma tovar hajmi bo'yicha 13 o'rin, kemasozlik buyicha 1-o'rin, televizor chiqarish bo'yicha, 4-o'rinni egallaydi. Ko'rinib turibdiki, Janubiy Koreyaning xalqaro maydondagi obro'si ham mustahkamlandi.

Koreya iqtisodi murakkab tarixiy sharoitda shakillandi. XIX asrning 80-yillaridan bu yerga chet el kapitali kirib kela boshladi. Bunda Yaponiya faol namoyon bo'ldi. XIX asrning oxirida mamlakatning bir qator yetakchi tarmoqlarini o'z ta'siriga bo'ysundurgan edi. XXasrning 20-yillarida butun yarim orol Yaponiyaning agrar xom-ashyo bazasiga aylandi. Boy tabiiy resurslari ayovsiz ekspluatatsiya qilindi. Sanoat faqat bir talab - Yaponiya mahsulotlarini tashib ketishi qulay bo'lishi sharoiti asosida joylashtirildi. Xom ashyo va mehnat resurslari bilan taminlanganlik darajasi sanoatda ikkinchi darajali rol o'ynadi.

Yaponlarning hukumronligi yillarida asosiy sanoat markazlari shaharlarda tashkil qilindi. Mashinasozlik tarmog'i umuman yo'q edi, faqat kichik ta'mirlash ustaxonalari bor edi. Hamma kerakli mashinalar va jixozlar Yaponiyadan keltirilar edi. Qishloq xo'jalikda hech qanday siljishlar bo'lmadi. Asosiy ish quroli egar va omoch edi.

Biroq Koreya ozod bo'lgandan boshlab iqtisodiyot rivojlanishining qoloqligi va mustamlaka xarakteridaligiga qaramay, yagona ishlab chiqarish kompleksi asosida olib borildi. Mamlakatning Shimoliy qismi yoqilg'iga, elektr energiyaga, metallarga va sanoat mahsulotlarining boshqa turlariga bo'lgan ichki ehtiyojni ta'minladi. Janubiy Koreya mamlakatni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minladi.

1945-yilda Shimoliy va Janubiy Koreya orasidagi iqtisodiy aloqalar tugatilindi va ularning iqtisodiy rivojlanishi turli yo'llardan ketdi.

Sotsializmni xom ashyo texnika bazasini yaratish jarayonida KXDR mehnatkashlari oldida uzoq mustamlaka hukumronligi og'ir iqtisodiy asoratlarni bartaraf qilish vazifasi turar edi. 1950-53 yillardagi urush deyarli hamma fabrika-zavod binolarini, ko'plab ko'priklarni va to'g'onlarni, aholi punktlarini vayronaga aylantirdi. KXDR mehnatkashlari qisqa vakq

ichida urush keltirgan vayronalarni bartaraf etildi. Sotsiolistik davlatlarni beg'araz yordami tufayli ko'pgina korxonalar va xo'jalik ob'ektlari tiklandi, ta'mirlandi yoki qaytadan qurildi.

KXDR iqtisodiy rejali asosda olib boriladi. Urushdan keyingi birinchi uch yillik rejasining (1954-56) vazifalari qishloq xo'jaligini tiklashga qaratildi. Keyingi ikkita 10 yillik va 7 yillik rejalari sotsiolizmni xom ashyo, texnika bazasini tiklashga va mehnatkashlarni turmush darajasini ko'tarishga qaratildi. Lekin Shimoliy Koreya iqtisodiy rivojlanishi va turmush darajasi jihatidan Janubiy Koreyadan orqada qolmoqda.

Tabiiy resurslarning cheklanganligiga, ichki bozorning rivojlanmaganligiga qaramay Koreya Respublikasi so'nggi 10 yillikda iqtisodiy o'sish sur'ati dunyodagi eng yuqori o'rinlardan biriga erishdi. 1962-yildan boshlab Koreya Respublikasi birinchi besh yillik rejasini amalga oshira boshladi va keyinchalik o'rta hisobda YAiM yiliga 8%dan o'sib bordi, bu ko'rsatkich 1992-yilga kelib 295 mld. dollarni tashkil kildi. Shu davrga kelib YAiM jon boshiga 87 dollardan 6700 dollargacha o'sdi. Sanoat strukturasi ham o'zgardi, masalan, qayta ishlash tarmoqlari ulushi 14,4%dan 27,3%gacha oshdi. Shu davr ichida Koreyaning tovar ayriboshlashi 500 mln. dollardan 158,4 mld. Dollarga, ya'ni salkam 309 marta ko'paydi. 60-yillarning boshida hukumat tashqi aloqalarni kuchaytirish, eksportni rivojlantirish va asta sekin jahon iqtisodiyotiga kirib borish bosh strategiyasini qabul qildi va amalga oshira boshladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish strategiyasi mohiyati yengil sanoat mahsulotlari eksportini keskin oshirish bilan bog'liq edi, chunki bu tarmoq rivojlanishida Koreya Respublikasi boshqa mamlakatlarga nisbatan qulayliklarga va keng imkoniyatlarga ega edi. Mamlakat iqtisodiy rivojlanishida 1976-78-yillar juda muvaffaqiyatli bo'ldi, chunki bu yillar yalpi milliy mahsulot yiliga 11,2%ga ko'paydi. Agar 1985-yilda Koreya Respublikasi xorijiy davlatlardan 46,8 mld.dollar qarzi bo'lgan bo'lsa, 1989- yilga kelib u barcha qarzlardan qutuldi va o'zi kredit beruvchi mamlakatlardan biriga aylandi.

Sanoati. Xo'jalikni asosini sanoat tashkil qiladi. Sanoatning umumiy strukturasi qazib oluvchi tarmoqlarning ulushi 1966-yildan 1992-yilgacha 34,8% dan 7,6% gacha pasaydi. Hozirgi kunda bu tarmoqlarning ulushi hammasi bo'lib 5%ni tashkil kiladi. Ayni vaqtda qayta ishlash sanoatining va xizmatlarining ulushi oshib bordi. Ularning yarimidan ko'proq mahsulotlari yengil sanoat tarmoqlariga, shu jumladan 1/3 qismi mashinasozlikka yetkazib berilayapti. Ko'mir qazib chikarish tarmog'ida 60 ming kishi band bo'lib, u ichki ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli emas. Ulardan tashqari qazib olish sanoat tarmog'ida volfram kontsentrati, oltin, mis, polimetall, menerallar, ohaktosh, talk ishlab chiqaradi. Temir rudasi qazib olish Yanneda, volfram esa Sandom konida to'plangan.

Po'lat, elektron asbob-uskunalar, mashinalar va transport asbob-uskunalari, shuningdek kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish sezilarli o'sishi natijasida og'ir va kimyo sanoatining ulushi ortib bormoqda. :

Energetika. Koreya energetikasining rivojlanish dasturida energiya manbai sifatida neftni ko'mir va atom energiyasi bilan almashtirish ko'zda tutilgan. 1961-yilda Koreya Elektrik Pauer Korporeyshen tashkil qilindi. Mamlakatda 37ta IES, 31 ta GES va 9ta AES lar ishlaydi. Barcha ishlab chiqarilgan energiyaning 58,1% issiqlik, 31,5% atom va 10,4% GES lar beradi. Bundan ko'rinib turibdiki Koreya elektro energetikasining asosini IESlar tashkil qiladi. Mamlakatni tashvishga solayotgan muammo neft importiga bog'liqlikdir. 80-yillarning oxirida 44% elektra energiya ishlab chiqarishda neftdan foydalanildi. 1979-yilda Koreya rayonida birinchi AES bunyod qilindi. 80-yillar oxirida ularning soni 9taga yetdi. 90-yillarda elektrobalsda AESlarning xissasi Amerika, Fransuz, Kanada firmalari bilan xamkorlikda 33% ga yetdi. Elektr o'tkazgichlarning umumiy uzunligi 20 ming. km.dan oshib ketdi.

Antratsit asosiy energiya manbai bo'lib qolmoqda, chunki mamlakatda suyuq energiya manbalari topilmagan, gidroresurslar esa cheklangan. Gidroenergetika ikkinchi darajali rol o'ynaydi, 30% dan kam gidroresurslardan foydalaniladi. Ko'mirning umumiy zaxiralari 1,6 mlrd. tonna deb baholanmoqda. Eng yirik ko'mir koni Samchxok- Chunsun Koreyaning 56,3% ko'mirini beradi va Kanvondo provintsiyasida joylashgan. Energetikaning rivojlanishi kelajakda AESga bog'liqdir.

Metallurgiya. Qora metallurgiya tarmog'i yetakchi o'rinni egallaydi, chunki 40% metall xorijga, asosan AQSh va Yaponiyaga sotiladi. Po'lat ishlab chiqarish bo'yicha Koreya 1993-yilga kelib jahonda 6- o'ringa chiqdi va Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya davlatlaridan o'zib ketdi. Bu katta g'alaba, chunki 60-yillarning o'rtalarigacha Koreya Respublikasida metallurgiya faqat metallalomni qayta ishlanishiga asoslangan edi. Eritilgan po'latning ko'p qismini jahondagi eng katta komplekslardan biri, 1973-yilda qurib topshirilgan Pxoxan Ayron end Stil Kompani Ltd yetkazib beradi (80%).



Koreya Respublikasining iqtisodiy xaritasi.

Kemasozlik, avtomobilsozlik, mashinasozlik, elektronika sanoatining metallga bo'lgan talabi 80% ga qondiriladi.

Qora metallurgiyaga nisbatan rangli metallurgianing ahamiyati kamroq. Koreya elektrolit mis (200 ming.tonna), rux (300 ming.tonna), qo'rgoshin (67 ming.tonna) va alyuminiy ishlab chiqariladi. Agar qo'rgoshin va ruxga bo'lgan talab mamlakatning ichki bozorida to'la ta'minlansa, alyuminiy umumiy talabning 10%ni qondiradi. Kelajakda o'rta hisobda yiliga 7% rangli metallarga talab oshib boradi. Aytib o'tish lozimki, Koreya Respublikasida oz miqdorda oltin va kumush ham qazib chiqariladi.

Mashinasozlik. Koreya Respublikasida mashinasozlik dunyo xo'jaligi bilan mustahkam bog'langan tarmoqdir.

Chetdan asosan moliyaviy vositalar, texnologiya va komplektlovchi buyumlar keltiriladi. Umumiy mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarish darajasi ancha yuqori. Mashinasozlikda 2000 atrofida firmalar ishlaydi, oz qismi chet el namunalari asosida

ih-tisoslashgan. Stanoksozlikda tokarlik, shlifovka qiluvchi, frezer, shuningdek sonli boshqaruv dasturi bo'lgan stanoklar ishlab chiqariladi. Zamonaviy stanoklarni Xvanchxon Mashineri Uorks Kompani, Xende Motor Kompani, Xevi Indastriz Kompani ishlab chiqaradi. -

Elektron sanoati eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlaridandir. Agar 60-yillarda oddiy tranzistorli radiopriyomnik yig'ilgan bo'lsa, hozirga kelib sonli televizorlar, videotekslar, suyuqkristalli ekrani bo'lgan televizorlar, proeksion televizorlar, vidiokameralar, telekommunikatsion asbob-uskunalar, vidiomagnitafonlar, kopiroval apparatlar, fakslar, kalkulyatorlar, personal kompyuterlar, xullas zamonaviy elektonikaning barcha mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Hozir Koreya Respublikasi jahondagi 5ta eng yirik elektronika mahsulotlari yetkazib beruvchi mamlakatlar safiga kirdi. Bu tarmoqning mahsulotlari eksportda yildan yilga ortib bormoqda. Televizor va vidiomagnitafonlar ishlab chiqrish hajmi bo'yicha Koreya Respublikasi jahonda 2-o'ringa chiqib oldi.

Elektron sanoatida 1000 dan ortiq firmalar ishlab turibdi, lekin elektron gigantlari "Samsung", "LG" oldinda bormoqda. Elektron sanoat albatta yuqori malakali injenerlar, konstruktorlar, yuqori malakali ishchilar bilan uzviy bog'langan, shuning uchun ko'proq katta shaharlarda joylashgan (Seul, Pusan va h.k.).

Avtomobilsozlik mamlakatning xalkaro mehnat taqsimotidagi rolini yaqqol ko'rsatuvchi, tez rivojlanayotgan tarmoqqa aylandi. 1986-yil Koreya Respublikasining avtomobilsozlik bo'yicha eng katta firmasi "Xende" jahonda avtomobil' parki eng katta bo'lgan AQSH ga o'zining kichik gabaritli ikki eshikli "Poni Eksel'" avtomobilini eksport qila boshladi. Bu avtomobillar nisbatan arzon, 5,5 ming. dollar turadi.

Mamlakatning ikkita avtomobil konserni GM Pusan va Punxeen shaharlarida 2ta zavodga ega. Mazkur konsern nafaqat yengil avtomobillar, balki yuk avtomobillari va avtobuslar ishlab chiqaradi.

Albatta rivojlangan davlatlar bilan avtomobilsozlikda raqobatga bardosh berish uchun koreys astokonstruktorlari tejamkor dvigatellar va avtomobillarga yuqori texnologiyali qismlar ishlab chiqishmoqda.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Koreyaning ishlab chiqarish salohiyati qanday?
2. Koreya og'ir sanoatiga umumiy ta'rif bering.
3. Yoqilg'i sanoatining asosini nima tashkil etadi?
4. Qora va rangli metallurgiya sanoatining rivojlangan markazlarini ayting.
5. Mashinasozlikni yetakchi tarmoqlari qaysilar?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Страны мира» Энциклопедический справочник Смоленск «Русич» 2001г.
2. «Экономическая география зарубежных стран» под.ред. С.Н.Ледовских и М.С.Розина М. «Высшая школа» 1982г.
3. В.П. Максаковский «Экономическая и социальная география мира» М.1995г.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI „2010
5. Г.Д.Толорая «Республика Корея», 1991 стр.8-14

Ma'ruza № 8

Mavzu: Koreya qishloq xo'jaligi.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: 1Koreyada qishloq xo'jalik tarmoqlari haqida bilimlar berish 2. Koreya qishloq xo'jalik tarmoqlari bo'yicha dunyoda tutgan o'rni haqida bilim ko'nikmalari hosil qilish.

Tayanch so'z va iboralari: qishloq xo'jalik, dehqonchilik, chorvachilik, lalmi yerlar texnika ekini

Reja:

1. Koreyada o'tkazilgan islohatlar natijalari
2. Dehqonchilik va uning yetakchi tarmoqlari
3. Baliqchilik tarmog'i

1962-yil iqtisodiy rivojlanishning birinchi rejasi qabul qilingandan 15yil o'tib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi ikki martaga oshdi. Biroq asosiy masala mamlakatni sholiga bo'lgan ehtiyojini to'liq ta'minlashga erishishdan iborat edi. Koreyslarning asosiy ozuqa mahsuloti bo'lgan sholi bilan o'zini ta'minlay olish darajasiga yetdi.

Qishloq xo'jaligi rivojlanishini ko'tarish asosan cheklangan ishlov beriladigan yerlar maydonida hosidorlikni oshirishga yo'naltirilgan. Sholi va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini yangi, yuqori hosildor navlari ekila boshladi. Fermer xo'jaliklarini o'sayotgan talabini qondirish uchun o'g'it va pestitsidlar ishlab chiqarish kengaytirildi.

Janubiy koreyada qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar hududini $\frac{1}{4}$ qismini tashkil etadi. Ishlov beriladigan yerlarning asosiy qismi g'arbiy va janubiy sohilbo'yi tekisliklarida joylashgan. Haydaladigan yerlarda mart oyi boshida sug'oriladigan sholi dalalariga suv quygunga qadar arpa, bug'doy va ba'zi sabzavotlar yetishtiriladi.

Sug'orilmaydigan dehqonchilik katta ahamiyatga ega: lalmi yerlar maydonining $\frac{2}{3}$ qismida bir yilda ikki marta hosol olinadi. Birinchi navbatda arpa va kam holda bug'doy ekiladi. Arpa mamlakatning donli ekinlari ichida ikkinchi o'rinni egallaydi, asosan janubiy provinsiyalarda yetishtiriladi. Donli ekinlar o'rimidan so'ng lalmi yerlarga sholi, makkajo'hori, tariq, dukkaklilar ekiladi. Lalmi yerlarning katta qismi dukkaklilarga ajratilgan, asosan hamma joyda keng tarqalgan soya ekiladi. Donli ekinlar yalpi hosilining taxminan $\frac{3}{4}$ qismi sholiga va $\frac{1}{5}$ qismi arpaga to'g'ri keladi.

Koreya janubida qadimdan ko'pgina texnika ekinlari yetishtiriladi: paxta, tamaki, kanob, rami va boshqalar.

Mamlakatda ishlab chiqaruvchilarga yuqori daromad keltiruvchi tarmoqlar - mevalar, sabzavotlar va boshqa ekinlarni yetishtirish tez o'sdi. Go'sht-sut sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish oshdi. 1980-yillarda keng tarqalgan vinilli issiqxonalardan foydalanish o'rta daromadli fermerlarni ishchi oilalarni o'rtacha yillik daromadiga tenglashishiga yordam berdi hamda sabzavotlar hosilini oshishiga imkon berdi. Sanoatlashish yo'lida qishloqlarda yashovchilar soni shubhasiz qisqardi. Qishloq aholisining xissasi keskin kamaydi. Qishloq tumanlarida ishchi kuchi yetishmasligi muammosini hal qilish yo'lida fermer xo'jaliklarini mexanizatsiyalash uchun katta yordam berish choralari ko'rildi. Mexanizatsiyani qo'llash sholi ekish va yeg'ish bilan bog'liq fermerlar mehnatini yengillashtirdi.

1970-yillar boshida mamlakatda Koreya hududining 66%ni egallovchi o'rmonlarni tiklash harakatlari boshlandi. Har yili mamlakatda daraxtlar ekish, yosh nihollar va ko'p yillik daraxtlarni asrashda faol ishlar olib borildi, bir vaqtni o'zida ancha mahsuldor va hashoratlar hamda kasalliklarga bardoshli daraxtlarni yangi navlarini topishmoqda.

Mamlakatda yosh daraxtlar va o'rmon resurslarini saqlash uchun o'rmonlarni kesishga qarshi qattiq nazorat o'rnatilgan. Bir necha yildirki taxta ishlab chiqarish ko'paymayapti. Taxtaga bo'lgan ehtiyojini asosan import hisobiga qondirmoqda. Barcha bu tadbirlar ma'lum darajada tuproqlar eroziyasini oldini olishga imkon berdi, shuningdek daryolar toshqinini oldini oladi.

Baliqchilik sanoati Koreyada rivojlangan va u valyuta tushumlarining muhim manbasiga aylangan. Ochiq dengizlar va sohilbo'yi suvlaridan baliq ovlash zamonaviy motorli qayiq'larni ishlab chiqishgandan so'ng doimo ortib bordi. Koreya baliqchilik bazasi G'arbiy Samoa va Las-Palmasda ochilgan.

Baliqchilik sanoati yettita dengizda 1970-yillarning o'rtalarida o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi, keyin esa yoqilg'i bahosining oshishi natijasida va ko'pchilik mamlakatlarda 200milli masofadagi sohilbo'yini iqtisodiy mintaqada deb e'lon qilgandan so'ng keskin tushib ketdi. Koreya qo'shni mamlakatlarning iqtisodiy mintaqasida baliq ovlash huquqiga ega bo'lishi uchun kelishuvni imzolagan.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Qishloq xo'jaligida o'tkazilgan islohatlarning natijalari qanday yakunlandi?
2. Mamlakatda oziq-ovqat ratsionining asosini nima tashkil etadi?
3. Koreyada qanday texnika ekinlari yetishtiriladi?

4. Baliqchilikning iqtisodiyotdagi ro'li qanday?

Adabiyotlar:

1. «Страны мира» Энциклопедический справочник Смоленск «Русич» 2001г.
2. «Экономическая география зарубежных стран» под.ред. С.Н.Ледовских и М.С.Розина М. «Высшая школа» 1982г.
3. В.П. Максаковский «Экономическая и социальная география мира» М.1995г.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDShI .,2010
5. Г.Д.Толорая «Республика Корея», 1991 стр.8-14

Ma'ruza № 9

Mavzu: Koreyaning ma'muriy-hududiy bo'linishi

O'quv mashg'ulotining maqsadi: 1.Koreyaning ma'muriy-hududiy bo'linishi haqida bilim berish.2.Koreyaning an'anaviy bo'linishi haqida bilim ko'nikmalari hosil qilish

Tayanch so'z va iboralar: ma'muriy-hududiy bo'linish,an'anaviy bo'linish

Reja:

1. Shimoliy Koreyaning ma'muriy-hududiy bo'linishi
2. Janubiy Koreyaning ma'muriy-hududiy bo'linishi
3. Koreyaning an'anaviy bo'linishi

Shimoliy Koreya ma'muriy jihatdan markaziy, provinsiya (markazga buysunuvchi shaharlar), shaharlar (rayonlar), uездlar (uezd markazlari, kvartallar, ishchi posyolkalari) ga bo'linadi.

Respublikaning shimoliy qismida 9ta provinsiya va markazga buysunuvchi 3 ta shahar bor:

Provinsiya nomi	Ma'muriy markazi
• Janubiy Pxenyan	Pxenson shahri
• Shimoliy Pxenyan	Sinichju shahri
• Chagan	Kange shahri
• Ryangan	Xeson shahri
• Shimoliy Xamgen	Chonchjin shahri
• Janubiy Xamgen	Xamxin shahri
• Kanvon	Vonsan shahri
• Shimoliy Xvanxe	Sarivon shahri
• Janubiy Xvanxe	Xechju shahri

Markazga bo'ysunuvchi shaharlar: poytaxt Pxenyan, Keson va Namixo.

Respublikaning shimoliy qismida 6200 ta uездlar va 4000ta ri bor.

Ilava №2

Janubiy Koreyada 9ta provinsiya bor:

Provinsiya nomi	Ma'muriy markazi
• Kengi	Suvon shahri
• Kanvon	Chxunchxon shahri
• Shmoliy Chxunchxon	Chxonchju shahri
• Janubiy Chxunchxon	Techjon shahri
• Shimoliy Cholla	Chonchju shahri
• Janubiy Cholla	Kvanchju shahri
• Shimoliy Kensan	Tegu shahri
• Janubiy Kensan	Chxanvon shahri
• Chechju	Chechju shahri

Janubiy Koreyada 50dan ortiq shaharlar, taxminan 140 uездlar va 1250 dan ko'p volostlar bor.

Koreyaning regional bo'linishi juda xilma-xil, uning bir qismi ko'p yoqlama topografik, boshqa qismi esa uzoq tarixiy rivojlanishi bilan tushuntiriladi. Choson qirolligi tashkil topgan dastlabki vaqtdan (1392-1910) 1896-yilgacha Koreya 8ta ma'muriy pravinsiyaga bo'lingan edi: Xamgendo, Pxenando, Xvanxedo, Kengido, Kanvondo,

Chxunchxondo, Chollado va Kensondo. 1896-yilda bu 8 ta pravinsiyadan 13 ta provinsiya tashkil topdi, shundan 8tasi hozirgi vahtda Janubiy Koreyada bor. 1945-yildan so`ng Chechjuda oroli alohida provinsiya bo`ldi, Pusan, Tegu, Inchxon, Kvanchju va yaqindagina Techjon shaharlari maqom oldi, provinsiya ekvivalent maqomi bevosita markaziy hukumatga bo`ysunadi.

Janubiy Koreyaning poytaxti Seul alohida maqomga ega bo`lgan yagona shahar hisoblanadi, ma`muriy jihatdan pravinsiya maqomidan yuqori turadi. Shunday qilib, Koreya Respublikasi alohida maqomga ega bo`lgan yagona shahardan, 5ta shahar-metropoliyasidan va 9ta pravinsiyadan tashkil topgan. Pravinsiyalar 55ta shaharlar(si) va 138 ta uездlar (kun)ga bo`lingan.

Koreyani 6ta yirik an'anaviy rayonlarga ajratish mumkin: sharqda Kvanbuk va g`arbda Kvanso (hozirgi vaqtda bu Shimoliy Koreyani bir qismi); Kixu (taxminan Kengido pravinsiyasining hududi va Chxunchxondo pravinsiyasining qismi); Kvandon (Txebe tog` tizmasidan sharqda Kanvondo pravinsiyasining qismi); Xonam (Chxunchxondo va Chollado pravinsiyalari shu hududning bir qismi); Yennam (Kensando pravinsiyasini birlashtiradi). Mana shu 6 ta an'anaviy rayonlar shevalari va urf-odatları orasida farqlar juda kam.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Shimoliy Koreya ma'muriy-hududiy jihatdan nachaga bo`linadi?
2. Janubiy Koreya ma'muriy-hududiy jihatdan nechaga bo`linadi?
3. Koreyaning an'anaviy bo`linishini ayting.

Adabiyotlar:

1. «Страны мира» Энциклопедический справочник Смоленск «Русич» 2001г.
2. «Экономическая география зарубежных стран» под.ред. С.Н.Ледовских и М.С.Розина М. «Высшая школа» 1982г.
3. В.П. Максаковский «Экономическая и социальная география мира» М.1995г.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDShI .,2010
5. Г.Д.Толорая «Республика Корея», 1991 стр.8-14

Semenar mashg'ulotlari uchun topshiriqlar to'plami

1-semenar mavzusi

Koreyaning o'simlik va hayvonot dunyosi

Reja:

1. Koreya hududidagi o'simliklar turlari.
2. Koreyadagi hayvonot dunyosi.
3. O'simlik va hayvonot dunyosining muhofazasi
4. Mamlakat hududidagi qo'riqxonalar va milliy bog'lar.

Adabiyotlar:

1. «Страны мира» Энциклопедический справочник Смоленск «Русич» 2001г.
2. «Экономическая география зарубежных стран» под.ред. С.Н.Ледовских и М.С.Розина М. «Высшая школа» 1982г.
3. В.П. Максаковский «Экономическая и социальная география мира» М.1995г.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI .,2010
5. Г.Д.Толорая «Республика Корея», 1991 стр.8-14

2-semenar mavzusi

Koreya tarixi

Reja:

1. Koreya hududida hukumronlik qilgan sulolalar.
2. Yapon qo'shinlarining istilosi.
3. Koreya yarimorolining ikki davlatga bo'linishi

Adabiyotlar:

1. Soliyev A., Muhammadaliev R.. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. –Т., 2005.
2. Страны и народы. Восточная и центральная Азия. – М.: Мысль 1982.
3. Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред В. В. Вольского – М.: Крон-пресс, 2003.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI .,2010

3-semenar mavzusi

Koreyaning davlat tuzumi va siyosiy partiyalari

Reja:

1. Koreyaning davlat tuzumi
2. Davlatning qonun chiqaruvchi organi
3. Davlatning ijro etuvchi organi
4. Koreyaning siyosiy partiyalari

Adabiyotlar:

1. Soliyev A., Muhammadaliev R.. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. –Т., 2005.
2. Страны и народы. Восточная и центральная Азия. – М.: Мисл 1982.
3. Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред В. В. Вольского – М.: Крон-пресс, 2003.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI .,2010

4-semenar mavzusi

Koreyada demografik siyosat

Reja:

1. Koreya o'tqazilgan demografik siyosat
2. Demografik siyosat bergan imtiyozlar
3. Koreyada demografik siyosat natijalari

Adabiyotlar:

1. Soliyev A., Muhammadaliev R.. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. –Т., 2005.
2. Страны и народы. Восточная и центральная Азия. – М.: Мысль 1982.
3. Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред В. В. Вольского – М.: Крон-пресс, 2003.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI .,2010

5-semenar mavzusi

Koreya yengil sanoati

Reja:

1. Koreyada yengil sanoat tarmoqlari
2. To'qimachilik sanoati
3. Oziq-ovqat sanoati
4. Kimyo sanoati

Adabiyotlar:

1. Soliyev A., Muhammadaliev R.. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. –T., 2005.
2. Страны и народы. Восточная и центральная Азия. – М.: Мысль 1982.
3. Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред В. В. Вольского – М.: Крон-пресс, 2003.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI „2010

6-semenar mavzusi

Koreya qishloq xo'jaligi tarmoqlari

Reja:

1. Koreyada o'tkazilgan islohatlar natijalari
2. Dehqonchilik va uning yetakchi tarmoqlari
3. Baliqchilik tarmog'i

Adabiyotlar:

1. Soliyev A., Muhammadaliev R.. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. –T., 2005.
2. Страны и народы. Восточная и центральная Азия. – М.: Мысль 1982.
3. Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред В. В. Вольского – М.: Крон-пресс, 2003.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI „2010

7- semenar mavzusi

Koreya transporti

Reja:

1. Koreyada transport yo'l tarmoqlari
2. Koreya metrosi
3. Temir yo'llar
4. Avtomobil yo'l transporti
5. Havo yo'llari
6. Suv transporti

Adabiyotlar:

1. «Страны мира» Энциклопедический справочник Смоленск «Русич» 2001г.
2. «Экономическая география зарубежных стран» под.ред. С.Н.Ледовских и М.С.Розина М. «Высшая школа» 1982г.
3. В.П. Максаковский «Экономическая и социальная география мира» М.1995г.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI „2010
5. Г.Д.Толорая «Республика Корея», 1991 стр.8-14

8-semenar mavzusi

Koreyaning tashqi iqtisodiy aloqalari

Reja:

1. Koreyaning tashqi aloqalariga umumiy ta'rif
2. AQSh bilan iqtisodiy aloqalari
3. Yaponiy bilan iqtisodiy aloqalari
4. Xitoy bilan iqtisodiy aloqalari

Adabiyotlar:

1. «Страны мира» Энциклопедический справочник Смоленск «Русич» 2001г.
2. «Экономическая география зарубежных стран» под.ред. С.Н.Ледовских и М.С.Розина М. «Высшая школа» 1982г.
3. В.П. Максаковский «Экономическая и социальная география мира» М.1995г.

4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDShI .,2010
5. Г.Д.Толорая «Республика Корея», 1991 стр.8-14

9-semenar mavzusi

Koreya va O‘zbekiston munosabatlari

Reja:

1. Koreyaya va O‘zbekiston o‘rtasida diplomatik munosabatlar
2. O‘zbekistonni Koreyaga eksport mahsulotlari
3. O‘zbekistonga Koreyaning import mahsulotlari

Adabiyotlar:

1. Soliyev A., Muhammadaliev R.. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. –T., 2005.
2. Страны и народы. Восточная и центральная Азия. – М.: Мисл 1982.
3. Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред В. В. Вольского – М.: Крон-пресс, 2003.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDShI .,2010

10-semenar mavzusi

Kotryaning madniyati

Reja:

1. Koreyaning an’anaviy uylari
2. Koreya xalqining milliy kiyimlari
3. Koreyslarning milliy taomlari
4. Koreyslarda choy marosimi
5. Koreya bayramlari

Adabiyotlar:

1. «Страны мира» Энциклопедический справочник Смоленск «Русич» 2001г.
2. «Экономическая география зарубежных стран» под.ред. С.Н.Ледовских и М.С.Розина М. «Высшая школа» 1982г.
3. В.П. Максаковский «Экономическая и социальная география мира» М.1995г.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDShI .,2010
5. Г.Д.Толорая «Республика Корея», 1991 стр.8-14

“Geografiya” fani bo’yicha o’quv materiallari

(diskda ilova qilingan)

1. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi. I qism.-TDShI, 2010.
2. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi. II qism.-TDShI, 2010.

“Geografiya” fanining ta’lim texnologiyalari

1-Mavzu: Zamonaviy Dunyo geografiyasi. Geografiya fanining maqsad va vazifalari.

Darsning texnologik kartasi


1- MAVZU	Zamonaviy Dunyo geografiyasi. Geografiya fanining maqsad va vazifalari
-----------------	---

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 15-20 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Ma’ruza.
Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi	• Geografiya fanining dunyoga kelishi. • Geografiya fanining o‘rganish ob’ekti, maqsadi va vazifasi. • Geografiyaning birligi to‘g‘risida zamonaviy tasavvurlar.
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> 1. Geografiya fanining dunyoga kelishi, o‘rganish ob’ektlari, maqsad va vazifalari, rivojlanish bosqichlari to‘g‘risida bilim berish. 2. Talabalarga geografiyaning birligi to‘g‘risidagi zamonaviy tasavvurlar haqida ma’lumotlar berish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • Geografiya fanining dunyoga kelishi haqida ma’lumot beradi. • Geografiya fanining o‘rganish ob’ekti, maqsadi va vazifasini tushuntiradi. • Geografiyaning birligi to‘g‘risida zamonaviy tasavvurlarni tavsiflaydi	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: • Geografiya fanining dunyoga kelishi haqida tassvurga ega bo‘ladi. • Geografiya fanining o‘rganish ob’ekti, maqsadi va vazifalari haqida ma’lumot beradi. • Geografiyaning birligi to‘g‘risida zamonaviy tasavvurlarni tavsiflaydi, izohlaydi.
O‘qitish usuli va texnikasi	Ko‘rgazmali ma’ruza, bayon qilish, blis-so‘rov, klaster, aqliy hujum
O‘qitish vositalari	Tarqatma materiallar, kartalar
O‘qitish shakli	Jamoa, guruh va yakkalikda ishlash
O‘qitish shart-sharoiti	Auditoriya

1- MASHG‘ULOT	MA’RUZA DARSINING TEXNOLOGIK KARTASI	
Bosqichlar va unga ajratilgan vaqt	Faoliyat mazmuni	
1- bosqich. Kirish qismi (10 daqiqa).	O‘qituvchi	Talaba
	1.1. Talabalar davomatini tekshiradi. 1.2. Mavzu, uning maqsadi, o‘quv mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi.	1.2. Eshitadi, yozib oladi.
	2.1. Talabalar e’tiborini bir nuqtaga qaratish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o‘tkazadi. - Geografiya fani haqida nima bilasiz?	2.1. Eshitadi. O‘ylaydi, savolarga javob beradi

2- bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa).	Geografiya qanday qismlarga bo'linadi? Javoblarni taxlil etadi, xulosalaydi. 2.2. O'qituvchi ko'rgazmali materiallar va kartalarni qo'llagan holda ma'ruzani boshlab, bayon etishda davom etadi. Geografiya fanining dunyoga kelishi haqida ; (Ilova № 1) Geografiya fanining ob'ekti, maqsadi, vazifalari haqida; (Ilova № 2) Geografiyadan ajralib chiqqan soxalar haqida keng qamrovli bilimlar beriladi. (Ilova № 3) 2.3. Ko'rsatilgan ko'rgazmali materiallarning muhokamasini tashkil etadi(Ilova №4) Talabalar javobini taxlil etadi va kamchiliklarni ko'rsatadi. 2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi (Ilova №5).	2.2. Tinglaydi, yozib oladi, kuzatadi. 2.3 Ko'rsatilgan ko'rgazmali materiallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, tegishli ma'lumotlarni yozib oladi. 2.3. Ko'rsatilgan ko'rgazmali materiallarning muhokamasida ishtirok etadi. Ko'rsatilgan kamchiliklarni qayd etadi 2.4. Mavzuning asosiy tushunchalarini va uning ta'riflarini yozib oladi
3- bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa).	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi va baholaydi 3.3. Seminar mashg'uloti uchun savollar o'qib eshitiradi, shuningdek mavzuga doir adabiyotlar ro'yxati beriladi. (Ilova №6).	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.3. seminar savollar va adabimiyotlar ro'yxatini yozib oladi.

Darsda qo'llaniladigan uslublar: a) klaster
b) aqliy xujum;



Aqliy hujum qoidasi

Hech qanday birgalikdagi baholash va tanqid!

Berilayotgan g'oyalar, hayoliy va juda zo'r bo'lsa ham ularni baholashga shoshilma, **hamma narsaga ruxsat etiladi.**

Tanqid qilma-barcha berilayotgan g'oyalar **qimmatli.**

Gapirayotganni bo'lma!

Tanbeh berishga shoshilma!

Aqlni peshlash uchun savollar:

- Tabiat haqidagi bilimlardan boshqa fanlar o'z negizini boshlagan degan fikrga siz qanday qaraysiz?
- Buyuk geografik kashfiyotlar qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?
- Geografiyadan qanday sohalar ajralib chiqqan?

Ilova №1

Mavzu bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan asosiy tushunchalar

Bizning yer to'g'risidagi zamonaviy bilimlarimiz bir vaqtda vujudga kelgan emas, ular asta - sekin paydo bo'lganlar va odamzodning sanoqsiz avlodlari ko'p asrlar davomida qilgan ishlarini natijasidan kelib chiqqan. Geografiyaning rivojlanishi butun insoniyatning umumiy madaniy rivojlanishi bilan amalga oshgan, zamonaviy geografiya esa o'tgan asr tarixi bilan chambarchas bog'liq.

Noma'lum joylarga kelib qolgan qadimgi sayyohlar haqiqatdan doimo ko'rganlarini tasvirlab kelgan edilar; daryolarni tog'larni, o'rmonlarni, dengizlarni odamlarni, ularning ho'jaligini, urf - odatlarini, dostonlarini, tabiat va kasallik bilan kurashish usullarini, ularning tarixini va h.k. Bu vaqtlarda butun atrof - muhit inson uchun ilmiy bilish ob'ekti bo'lgan. Usha uzoq davrlarda geografiya shunday asos bo'lib xizmat qilgan, shunday hilma - hil malumotlar to'plami bo'lganki, shular asosida ko'pdan - ko'p fanlar o'z negizini boshlagan: fizika, astronomiya, iqtisodiyot va etnografiya, tibbiyot va tarix. Geografiya tarixi - butun


jahon tarixini asosiy boblaridan biri bo'lib, geografiya taraqqiyoti odamzodning dunyo-qarashiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Haqiqatdan, geografiyaning kerakligiga hech kim shubha bilan qaragan emas. Odamlar yangi yerlarni ochib kelib, yer kurrasidagi "oq dog'larni" o'chirib kelgan edilar. Geografiya yetqazib bergan ma'lumotlar boshqa fanlarni ta'minlab turar edi, insonning amaliy faoliyati xilma-xil hodisalar va jarayonlar to'g'risida chuqirlashgan bilimlar talab qilar edi. Shunday qilib, yangi ilmiy yo'nalishlar paydo bo'lar edi. Yorqin va dramatik davrdagi Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin (XV asr oxirlari - XVIII asr o'rtalari) yangi yerlar to'g'risidagi malumotlar hayratga solganda, geografiyadan ajralib chiqqan ilmiy mustaqil fan sohalari tez avj olib rivojlangan.

Geografiya ensiklopedik fan bo'lgan, u mamlakat va halqalar to'g'risidagi xilma-xil bilimlar yig'indisidan iborat bo'lgan. Undan o'zining aniq tekshirish ob'ektlari mavjud bo'lgan tor fanlar ajralib chiqdi. Bu - geomorfologiya – relef tog'risidagi fan, gidrologiya - suvlar to'g'risidagi fan, iqlimshunoslik - havo massalarini o'rganuvchi fan va h.k.

1-shakl

**Geografiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi
Klaster**



O'zaro bog'liq va o'zaro aloqador zamonaviy tabiatshunoslikdagi nazariy tasavvur geograflar uchun o'ziga hos bo'lgan tabiatni tekshirishda geografik qulay yo'l bo'lib qoldi. Geografik qulay yo'l nima uchun kerak, uni ustunligi nimadan iborat? Balki atrofimizdagi tabiiy muhitni tushinish uchun fizika, biologiya, geologiya, ximiya fanlarini bilishi yetarlidir? Vaholanki, bu bilimlar zarur bo'lib yetarli emas ekan. Tabiat va uning ob'ektlariga kompleks "ko'pqirrali" qarash zarur.

Ilova №2

Geografiya fanining ob'ekti, maqsadi va vazifasi.

Bizning atrofimizni 4 ta o'zaro ta'sir qiluvchi va bir - biriga o'tuvchi atmosfera, gidrosfera, litosfera, biosfera qobiqlari o'rab turadi. Yerning geografik qobig'i bu bir butun, qonuniyat orqali o'rganiladigan tabiiy qism - tabiiy geografiyaning umumiy ob'ekti bo'lib qoldi.

Shunday qilib, zamonaviy geografiyaning asosiy maqsadlaridan biri – bu yerning geografik qobig'ida bo'layotgan jarayonlarni tekshirishdan iborat.

Ammo, biz omillar ro'yhatida insonning ho'jalik faoliyatini eslatib o'tmadik. Bu alohida omil va tabiiy jarayonni ilmiy tahlil qilish zamonaviy geografiyaning mustaqil vazifasidir.

Tabiat orqali tug'ilgan odam tabiat atrofiga faqat mehnati va idroki yordamida aktiv moslashib boradi, u o'z faoliyatida tabiatga ta'sir ko'rsatib uni o'zgartira boshlaydi. Tabiat ustidan qo'lga kiritilgan g'alabalarga hursand bo'lish kerak emas. Har bir qo'lga kiritilgan g'alaba uchun tabiat o'z qasdini oladi.


Bugungi kunda jamiyatni tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri global masshtabda olib borilyapti. Yer sharida aholi soni juda tez o'sayapti - 6 mld.dan ortiq. Natijada, tabiatdan to'laroq foydalanish va hom ashyoni qazib chiqarish o'sayapti. Tabiatni o'zgarishida

insonning ho‘jalik faoliyati hal qiluvchi sabab bo‘lib qolmoqda. Sivilizatsiya rivojlangan sari inson faoliyati natijasida tabiat chekina boshladi, ko‘pincha g‘alabalar honavayron bo‘lgan yerlarni, - kesib olingan o‘rmonlarni, hayvonlari va qushlari yo‘q bo‘lib ketgan o‘rmonlarni qoldirdi.

Bu global muammoni yechishda geograflar bevosita ishtirok etmoqdalar. Tabiatga nisbatan o‘ylamasdan qilingan munosabat jamiyat uchun havfli bo‘lib qoldi. Tabiatni honavayron bo‘lishi yoki ekologik krizis - bu jamiyatning krizisi, bu hattoki sivilisatsiyani nobud bo‘lishiga olib kelishi hech gap emas.

Shunday qilib, geografiya tabiat va jamiyatning o‘zaro ta’siri muammosida ijtimoiy fan sifatida qatnashgan. Ijtimoiy - iqtisodiy geografiya nima bilan shug‘ullanadi? Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya ijtimoiy fan bo‘lib, u aholi va ho‘jalikni, butun dunyoda, ayrim hududlarda, mamlakatlarda rivojlanish va joylashish qonuniyatlarining tatqiq etadi. Bu fan halqaro munosabatlarga jamiyat bilan tabiatning o‘zaro aloqalariga, butun jahon muammolariga oid masalalariga ham to‘xtalib, jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichini yaxshiroq tushinishga yordam beradi.

Tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabat murakkab muammo bo‘lib, uning vazifalarini chuqur o‘rganish faqat bir fan orqali emas, balki bir necha yo‘nalishlarni birlashtirgan holda tabiatdan oqilona foydalanishda kengroq va qulay yo‘llarni qidirish zarur. Tabiiy geografiya yerning geografik qobig‘ini bir butun moddiy usulda o‘rgandi, uning tarkibidagi umumiy qonuniyatlarni, tuzilishini va kelib chiqishini geografik jarayonlar energetikasini, ularni bir-biri bilan aloqalarni, materik va okeanlar tabiatidagi asosiy o‘hshashliklar va farq qiluvchi omillarni o‘rganadi.




Ilova №3

Geografiyaning birligi to‘g‘risida zamonaviy tasavvur.

Geografiyadan ajralib chiqqan tor fanlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

Landshaftshunoslik - geokompleks usullarni o‘rganadi. (geokompleks - eerning geografik qobig‘ining tabiiy bo‘linmalari). Yuqori pog‘onali kompleks bir butun geografik qobiq, uni har zamonda landshaft qobig‘i bilan tenglashtiradi. Tuproqshunoslik - yerning maxsus moddiy jinsi to‘g‘risidagi fan. Tuproq - bu tirik modda va litosferani o‘zaro ta’siridan kelib chiqqan natija, hilma - hil iqlim va relef sharoitlarida shakllanadi.

Geomorfologiya - ustki geografik qobig‘dagi boshqa komponentlar bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganadigan fan. Bu o‘zaro ta’sir natijasida yer usti relefining hilma - hil shakllari, ularning kelib chiqishi va rivojlanishini o‘rganadi.



Glyatsiologiya - muzlikshunoslik (geokriptologiya) - bu fan yer ustidagi (muzlik, dengiz muzliklari, qorliklar, qor ko'chkilari va boshqalar) va litosferadagi (doimiy muzlik, yer ostidagi muzliklar) muzlar paydo bo'lish sharoitlarini rivojlanishi va shakllarini o'rganadi.

Okeanologiya - dunyo okeani to'g'risidagi fan.

Iqlimshunoslik - havo massalarini shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari to'g'risidagi fan.

Biogeografiya - umumlashtiruvchi fan. Organizmlar va ularning turkumlarini geografik joylashish qonuniyatlarini aniqlaydi.

Mamlakatshunoslik - umumlashtiruvchi geografik yo'nalish, tabiiy-ijtimoiy kompleksni maxsus darajasi - davlatning bir butun tabiiy- ijtimoiy sifatini o'rganiladi

Tarixiy geografiya - tabiiy -ijtimoiy usullarni ochilishi, vujudga kelishi va tarixiy rivojlanishini o'rganadi.

Xulosa: zamonaviy geografiya bilimlarning o'zaro bog'langan bir butun usulidi

Ilova№5

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar: gorizont tomonlari,arxipelag,er po'sti,botiq, geografik qobiq, iqlim mintaqalari, ko'rfaz,materik sayyozligi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Geografiya fanining dunyoga kelish bosqichini mohiyati nimada ko'rinadi?
2. Geografiyaning o'rganish ob'ekti asosiy xususiyatlari nimada?
- 3.Geografiya fanining asosiy maqsadi nimadan iborat?
- 4.Geogrviya fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi nimalarda o'z aksini topadi?
- 5.Geografiyaning qanday qismlari mavjud?

Ilova№6

Adabiyotlar ro'yhati.

5. Социально – экономическая география зарубежного мира. - Дрофа, 2001
6. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlar geografiyasi.-ToshDSH, 2010
7. Soliyev A., Ahmedov E., Muhammadaliyev R. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. –T.: Universitet, 2003

2-Mavzu: Dunyoning siyosiy xaritasini shakllanishi va mamlakatlarni guruxlash

Darsning texnologik kartasi

2- MAVZU	Dunyoning siyosiy xaritasini shakllanishi va mamlakatlarni guruxlash
---------------------	--

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 15-20 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza.
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	• Hozirgi zamon dunyoning siyosiy xaritasini shakllanishi • Jahon mamlakatlarini hududi va aholisining soni bo'yicha guruhlash • Mamlakatlarni toifalarga ajratish • Mamlakatlarni boshqarilishiga ko'ra guruhlash
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> 1. Dunyo siyosiy xaritasi haqida tasavvur xosil qilish 2. Jahon mamlakatlarini turli jihatiga ko'ra guruhlash to'g'risida bilim ko'nikmalari xosil bo'ladi	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • Hozirgi zamon dunyoning siyosiy xaritasini shakllanishi haqida ma'lumot beradi • Jahon mamlakatlarini hududi va aholisining soni bo'yicha guruhlashni tushuntiradi • Mamlakatlarni toifalarga ajratishni tavsiflaydi • Mamlakatlarni boshqarilishiga ko'ra	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: • Hozirgi zamon dunyoning siyosiy xaritasini shakllanishi haqida ma'lumotga ega bo'ladi • Jahon mamlakatlarini hududi va aholisining soni bo'yicha guruhlash haqida tushunchaga ega bo'ladi • Mamlakatlarni toifalarga ajrata oladi • Mamlakatlarni boshqarilishiga ko'ra guruhlash to'g'risida tushuncha hosil bo'ladi

guruhlash to'g'risida tushuncha beradi	
O'qitish usuli va texnikasi	Ko'rgazmali ma'ruza, bayon qilish, blis-so'rov, klaster, aqlni peshlash
O'qitish vositalari	Dunyo siyosiy xaritasi, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va yakkalikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	auditoriya

2- MASHG'ULOT	MA'RUZA DARSINING TEXNOLOGIK KARTASI	
Bosqichlar va unga ajratilgan vaqt	Faoliyat mazmuni	
1- bosqich. Kirish qismi (10 daqiqa).	O'qituvchi	Talaba
	1.1. Talabalar davomatni tekshiradi. 1.2. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.2. Eshitadi, yozib oladi.
2- bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa).	2.1. Talabalar e'tiborini bir nuqtaga qaratish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - Dunyo siyosiy xaritasida nechta mustaqil davlatlar bor? - 1990-yildan so'ng DSXda qanday o'zgarishlar ro'y berdi? Javoblarni taxlil etadi, xulosaydi. 2.2. O'qituvchi ko'rgazmali materialni va kartalarni qo'llagan holda ma'ruzani boshlab, bayon etishda davom etadi. Hozirgi zamon dunyoning siyosiy xaritasini shakllanishi; (Ilova № 1) Jahon mamlakatlarini hududi va aholisining soni bo'yicha guruhlash haqida; (Ilova №2) Mamlakatlarni toifalarga ajratish haqida;(Ilova № 3) Mamlakatlarni boshqarilishiga ko'ra guruhlash.(Ilova № 4) 2.3. Ko'rsatilgan ko'rgazmali materiallarni muxukamasini tashkil etadi (Ilova№5) Talabalar javobini taxlil etadi. 2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi.(Ilova№6)	2.1. Eshitadi. O'ylaydi, savolrga javob beradi 2.2. Tinglaydi, yozib oladi, kuzatadi. 2.3 Ko'rsatilgan ko'rgazmali materiallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, tegishli ma'lumotlarni yozib oladi. 2.4. yozib oladi,.

3- bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa).	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. 3.3. Seminar mashg'uloti uchun savollar eshitiriladi shuningdek mavzuga doir adabiyotlar ro'yhati beriladi.(Ilova№7)	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.3. Topshiriqni yozib oladi.
--	---	---

**Darsda qo'llaniladigan uslublar: a) klast
b) insert;**

Ilova№1

Mavzu bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan asosiy tushunchalar

Dunyoni hozirgi zamon siyosiy xaritasini shakllanishi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, kishilik jamiyati rivojlanishining butun yo'lini aks ettiradi. Dunyo siyosiy xaritasi asrlar davomida o'zgarib kelgan, u davlatlarning paydo bo'lishi va parchalanib ketishini, ular chegaralarining o'zgarishini, yangi yerlarni kashf qilinishi va mustamlaka etilishini, metropoliya va mustamlakalarni paydo bo'lishi, dunyoni bo'lib olish va qayta bo'lib olishini aks ettirib kelgan. XX asrning boshlarida jahon xududlarini bo'lib olinishi tugagan edi va buyuk imperialistik mamlakatlar o'rtasida ularni qayta taqsimlash uchun kurash boshlandi. (1-jahon urushi.)

2-jahon urushidan so'ng dunyoning siyosiy xaritasida bir qancha sotsialistik davlatlarni paydo bo'lishi, mustamlakachilik tizimining parchalanishi va o'nlab ozod bo'lgan mamlakatlarni vujudga kelishi urushdan keyingi butun davr asosini 'G'arb bilan Sharqning jahon bo'ylab qarama-qarshi turishi ular o'rtasidagi sovuq urushni tashkil etdi. Ko'pdan-ko'p harbiy siyosiy ittifoqlardan, shu jumladan ikkita yirik ittifoq: Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO) va Varshava shartnomasi tashkiloti, vujudga keldi. Er kurrasining turli joylarida yuzlab harbiy bazalar bunyod etildi, mahalliy urushlar bo'lib o'tdi.

XX asrning 80- yillarida xalqaro munosabatlarda qarama- qarshi turishdan o'zaro bir-birini tushunish va hamkorlikka o'tish boshlandi. Xalqaro keskinlik kamaya boshladi, dunyo tinchroq va havfsizroq bo'lib qoldi. O'zaro ishonchsizlik, xafvsirash va dushmanlik o'rniga yahshi qo'shnichilik qaror topa boshladi.

XX asrning 90-yillarida dunyo siyosiy xaritasida, ayniqsa Yevropada, katta o'zgarishlar yuz bera boshladi: Yugoslaviya hududidagi xarbiy harakatlar natijasida u Serbiya, Sloveniya, Makedoniya, Xorvatiya, Bosniya va Gersogoviniya, Chernogoriya kabi mustaqil davlatlarga parchalandi, bunga millatlararo munosabatlar sabab bo'ldi. GFR va GDR birlashdi, poytaxti Berlin bo'lib qoldi. SSSR parchalanishi natijasida dunyo siyosiy xaritasida 15 mustaqil davlat paydo bo'ldi. Chexoslovakiya parchalanib xaritada Chexiya va Slovakiya davlatlari o'rin topdi.

II-jahon urushidan keyingi butun davr mobaynida Fors ko'rfazini o'z ichiga olgan Yaqin Sharq asosiy "Olovli nuqta" bo'lib qoldi. Bu yerda sayyoramizdagi turli madaniyat va dinlar juda murakkab holda yonma-yon shakllanib borgan.

Ilova№2

Dunyo mamlakatlarini guruhlashtirish. Dunyo mamlakatlarini quyidagi xususiyatlariga ko'ra guruhlashtirish mumkin:

1. Hududining kattaligiga ko'ra dunyoda har birining maydoni 3 mln km²dan ortiq 7 ta eng katta davlat ajratiladi. Ularning butun maydoni yer yuzi quruqligining yarmidan ko'prog'ini egallaydi. Bu:

- 1) Rossiya Federatsiyasi – 17100000 km²
- 2) Kanada – 9900000 km²
- 3) Xitoy Xalq respublikasi – 9600000 km²
- 4) AQSh – 9500000 km²
- 5) Braziliya – 8500000 km²
- 6) Avstraliya – 7700000 km²
- 7) Hindiston – 3200000 km²

2. Aholi soniga ko'ra har biridagi aholi 100 mln kishidan ortiq bo'lgan eng katta 11 ta mamlakat ajratiladi. Bu davlatlardagi aholining soni yer yuzi aholisining 3/5 qismiga to'g'ri keladi:

- 1) Xitoy – 1.330 mlrd
- 2) Hindiston – 1.1 mlrd
- 3) AQSh – 300mln
- 4) Indoneziya – 245mln
- 5) Braziliya – 182mln
- 6) Pokiston – 151 mln
- 7) Rossiya – 150mln
- 8) Bangladesh – 138.5 mln
- 9) Nigeriya – 134 mln
- 10) Yaponiya – 127.2 mln
- 11) Meksika – 105 mln

Dunyoning siyosiy xaritasida o'rta va kichik mamlakatlar ko'pchilikni tashkil etadi. Mitti mamlakatlar ham bor, ularni odatda mikro davlat deb ataladi,

Ilova №5

Mamlakat nomi	Maydoni (km²)	Aholisi (ming k. hisobi)
Vatikan	0,44	900
San-Marino	61,2	27336
Lixteynshteyn	160	32528
Monako	195	31842
Andorra	468	67627

Mamlakatlar ko'pincha geografik o'rni xususiyatlariga qarab ham guruxlashtiriladi. Bu xususiyatiga ko'ra dengiz bo'yida, yarimorolda, orollarda joylashgan mamlakatlar, arxipelag-mamlakatlarga bo'linadi. Xududi bevosita dengizga tutash bo'lmagan mamlakatlar (40 taga yaqin) alohida guruhni tashkil etadi.

Ilova №3

Dunyo mamlakatlarini toifalashtirish. Jahon mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra ham bir-biridan farq qiladi. Ularni 2 guruhga bo'linadi: Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar.

Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar ikkita toifaga ajratiladi:

Birinchi toifani yuksak rivojlangan AQSh, Yaponiya, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Kanadadan iborat "katta yettilik" deb nomlanuvchi mamlakatlar tashkil etadi.

Rivojlangan mamlakatlarni ikkinchi kichik toifasiga kamroq rivojlangan, birinchi navbatda Yevropa mamlakatlari kiradi. Bu mamlakatlar har birining siyosiy va iqtisodiy qudrati uncha katta bo'lmasa ham, lekin umuman olganda ular jahon ishlarida katta, shu bilan birga tobora ortib borayotgan ahamiyat kasb etadi. Misol: Ispaniya, Shveysariya, Avstriya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Daniya, Irlandiya, Islandiya, Norvegiya, Shvesiya, Finlandiya.

Uchinchi toifa sotsializm tuzimi barbod bo'lib, bozor iqtisodiyoti yo'nalishida rivojlanayotgan mamlakatlarga ajratiladi. Ular ikki guruhga ajratiladi:

5. Sharqiy Yevropa mamlakatlariga Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Ruminiya, Bolgariya, Sloveniya, Xorvatiya, Bosniya va Gersogoviniya, Serbiya, Chernogoriya, Makedoniya.

6. Sobiq sovet ittifoqi tarkibidan ajralib chiqqan mamlakatlarga Rossiya, Latviya, Litva, Estoniya, Belorussiya, Ukraina, Moldova, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston kiradi.

Qolgan barcha mamlakatlar va BMT xududlari rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiritiladi. Ular butun yer yuzi maydonining yarmini egallaydi, aholisi esa dunyo aholisi sonini yarmidan ortig'ini, Xitoyni qo'shib hisoblaganda 70% dan ortig'ini tashkil etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar dunyo siyosiy haritasida Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi

va Okeanida ekvatoridan shimolga va janubga katta masofaga choʻzilgan mintaqani egallaydi. Bu mamlakatlardan ayrimlari (Eron, Tailand, Efiopiya, Misr, Lotin Amerikasi mamlakatlari va boshqalar) 2-jahon urushidan ancha oldin mustaqillikka ega boʻlgan. Koʻpchiligi esa mustaqillikka urushdan keyin erishgan. Ular 5 toifaga boʻlinadi:

6- toifa. Tayanch mamlakatlar-Xitoy, Hindiston, Braziliya, Meksika.

7- toifa. Yangi sanoatlashgan mamlakatlar-Koreya respublikasi, Singapur, Malayziya, Tayvan, Gonkong (Osiyo yoʻlbarlari), Tailand, Indoneziya


8- toifa. Neft eksport qiluvchi mamlakatlar-Saudiya Arabistoni, Quvayt, Qatar, BAA, Eron, Iroq, Liviya, Jazoir, Nigeriya, Angola, Venesuela, Indoneziya (OPEK).

9- toifa. Oʻz taraqqiyotidan sezilarli darajada orqada qolayotgan mamlakatlar - KXDR, Vetnam, Laos, Mangoliya, Kuba, Albaniya, (Sotsializm tuzumi xozirgacha saqlanib qolayotgan mamlakatlar)


5-toifa. Eng kam rivojlangan 42 ta mamlakat kiradi: Osiyoda –Bangladesh, Nepal, Afgʻoniston, Yaman. Afrikada-Mali, Niger, Chad, Efiopiya, Somali. Lotin Amerikasida - Gaiti kabi mamlakatlar.


Ilova №4

5-shakl




6-shakl





7-shakl



Ilova№6

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar: DSX, NATO xarbiy bloki, mustamlaka mamlakatlar, siyosiy mustaqil davlatlar, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, rivojlanayotgan mamlakatlar, qoloq mamlakatlar, OPEK tashkiloti, monarxiya, unitar, federatsiya, lonfederatsiya..

Takrorlash uchun savollar:

1. Hozirgi zamon dunyo siyosiy xaritasini shakllanish bosqichini izohlang?

2. Mamlakatlarni qaysi jihatiga ko'ra guruhlash keng tarqalgan?
3. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar nechta guruhga bo'linadi?
4. Sotsializm tuzumi barbod bo'lgan mamlakatlar rivojlanishning qanday yo'nalishini tanlashgan?
5. Rivojlanayotgan mamlakatlar qanday toifalarga bo'linadi?
6. Mamlakatlarni boshqarilishiga ko'ra bo'linishini tushuntirib bering.

Ilova №7

Adabiyotlar ro'yhati.

1. Социально – экономическая география зарубежного мира. - Дрофа, 2001
2. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlar geografiyasi.-ToshDSHI, 2010
3. Soliyev A., Ahmedov E., Muhammadaliyev R. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. –T.: Universitet, 2003.

3-Mavzu: Osiyoning umumiy ta'rifi


3- MAVZU	Osiyoning umumiy ta'rifi
-----------------	---------------------------------

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 15-20 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza.
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	• Osiyoning geografik o'rni va reliefi • Iqlimi va ichki suvlari • Tabiat mintaqalari • Ma'muriy-hududiy bo'linishi
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> 1. Osiyoning geografik o'rni, reliefi, iqlimi va ichki suvlari to'g'risida bilim berish. 2. Talabalarda Osiyoning tabiat mintaqalari va ma'muriy-hududiy bo'linishi to'g'risida bilim ko'nikmalarini hosil qilish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • Osiyoning geografik o'rni va reliefi to'g'risida ma'lumot beradi. • Iqlimi va ichki suvlarini tavsiflaydi. • Tabiat mintaqalarini izohlaydi. • Ma'muriy-hududiy bo'linishi to'g'risida tushuncha beradi	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: • Osiyoning geografik o'rni va reliefi to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi. • Iqlimi va ichki suvlarini tavsiflay oladi. • Tabiat mintaqalari haqida tushuncha hosil bo'ladi. • Ma'muriy-hududiy bo'linishini tushunchaga ega bo'ladi
O'qitish usuli va texnikasi	Ko'rgazmali ma'ruza, bayon qilish, blis-so'rov, klaster, aqlni peshlash
O'qitish vositalari	Dars yetakchisi, tarqatma materiallar.
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va yakkalikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Auditoriya

3- MASHG'ULOT	MA'RUZA DARSINING TEXNOLOGIK KARTASI	
Bosqichlar va unga ajratilgan vaqt	Faoliyat mazmuni	
1- bosqich.	O'qituvchi	Talaba

Kirish qismi (10 daqiqa).	1.1. Talabalar davomatni tekshiradi. 1.2. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.2. Eshitadi, yozib oladi.
2- bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa).	2.1. Osiyoning geografik o'rini ta'riflaydi. Rel'ef atamasini mohiyatini ochib beradi.(Ilova №1) 2.2. Iqlim va unga ta'sir qiluvchi omillarni bayon qiladi. Ichki suvlarni xaritadan foydalangan holda ko'rsatsdi. (Ilova №2) 2.3. Tabiat mintaqalarini iqlimga mos ravishda o'zgarishini tushuntirib beradi. (Ilova №3) 2.4. Osiyoning ma'muriy-hududiy bo'linishiga izohlar keltiradi. (Ilova №4)	2.1. Eshitadi va ta'riflarni yozib oladi. Atamani muhokama qiladi. 2.2. Savollar berib, tegishli ma'lumotlarni yozib oladi.. Ko'rsatilgan xaritadan ichki suvlarni topa oladi. 2.3. Guruhlarga bo'linib, muhokama qiladi va tegishli ma'lumotlarni yozib oladi. 2.4. Izohlarni daftariga qayd qilib oladi.
3- bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa).	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. 3.3. Seminar mashg'uloti uchun savollar eshitiriladi (ilova№5), shuningdek mavzuga doir adabiyotlar ro'yhati beriladi. (Ilova №6)	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.3. Topshiriqni yozib oladi.


**Darsda qo'llaniladigan uslublar: a) klaster;
b) insert;**



ИНСЕРТ ЖАДВАЛИ

V	+	—	?

КЛАСТЕР



Кластер
(Кластер – тутам, боғлаш)

- Маълумот харитасини тузиш ва воситаси – барча фикр конституциясини фокуслаш ва аниқлаш учун кандайдир асосий омил атрофида ғояларни йиғиш.

Билимлар фаоллашишини таъминлайди, мавзу бўйича фикрлаш жараёнида янгича ассоциация тақдим этишга эркин ва очиқ кириб боришга ёрдам беради.

Кластерни тузиш қоидалари билан танишади. Синф доскаси ёки катта қоғоз варағи марказида калит сўзлар 1 – 2 сўздан иборат мавзу номланиши ёзилади.

Калит сўзлар билан ассоциация бўйича ён томонидан кичкина ҳажмдаги айланага “йўлдошлар” ёзилади – ушбу мавзу билан алоқадор сўз ёки сўз бирикмаси. Улар чизик билан “бош” сўзга боғланилади. Ушбу “йўлдошлар”да “кичик йўлдошлар” ҳам бўлиши мумкин ва бошқалар. Ёзув ажратилган вақт тугагунга ёки ғоя йўқотулмагунча давом этирилади.


Мулоҳазалар учун кластерлар алмаштирилади.



Кластерни тузиш қондаси

1. Аклингизга келган барчани ёзинг. Ғоя сифатини муҳокама қилманг: уларни оддий ҳолда ёзинг.
2. Орфография ва бошқа омилларга эътибор берманг.
3. Ажратилган вақт тугагунча ёзувни тўхтатманг. Агарда аклингизда ғоялар келиши бирдан тўхтаса, у ҳолда қоғозга расм чизинг, қачонки янги ғоялар пайдо бўлмагунча.
4. Кўпроқ алоқа бўлишлигига ҳаракат қилинг. Ғоялар сони, улар оқими ва улар ўртасидаги ўзаро алоқадорликка чегараланманг.

8-shakl



Ilava №1.

Osiyoning geografik o'rni va reliefi. Osiyo butun dunyoning eng katta qit'asi xisoblanadi. Uning umumiy maydoni 43.4 mln.km². Yevropa bilan qo'shib xisoblaganda Yevrosiyo materigini tashkil etadi. Osiyo bilan Yevropa o'rtasidagi chegara odatda Ural tog'laridan o'tkaziladi, yoki ularning sharqiy etagida joylashgan Emba (G'arbiy Qozog'istonda), Kuma, Manich, (RF janubi- g'arbida) daryolardan, Kaspiy, Azov, Qora, Marmar dengizlaridan, Bosfor va Dardanell bo'g'ozlaridan o'tgan. Afrika bilan Osiyo Suvaysh kanali orqali bog'langan, Shimoliy Amerikadan uni Bering bo'g'ozini ajratib turadi.


Osiyoni o'rab turgan Shimoliy muz, Tinch va Hind okeanlarida, ularning chekka dengizlarida, hamda materik ichkarisida joylashgan Atlantika okeani dengizlarida juda ko'p orollar mavjud. Orollarning umumiy maydoni 2 mln.km² tashkil etadi.

Osiyo qit'asida baland tog'lar katta hududni egallaydi. Tog'larning o'rtacha balandligi 950 m, er sharining eng baland nuqtasi Ximolay tog' tizmasida Jomolungma cho'qqisi

(8848m) joylashgan. Osiyo xududining $\frac{3}{4}$ qismini tog' va yassi tog'lar egallaydi. Asosiy tog' tizmalari: Ximolay, Qoraqurum, Pomir, Tyanshan, Xindiqush, Kunlan, Katta Kavkaz, Oltoy, Sayan, Verxoyansk, Chersk.

Yirik tog'liklar: Tibet, Stanovoe, Koryaksk.

Yassi tog'liklar: O'rta Sibir, Arabiston, Dekan.



Xorijiy Osiyoni tabiiy xaritasi.

Yirik tekisliklar: G'arbiy Sibir, Turon, Buyuk Xitoy, Xind-Ganga.

Sharqiy Osiyo orollarida va Malay arxipelagida ko'p kuchini yo'qotmagan vulqonlar bor, bu erlar zilzila jihatidan xavflidir.

Ilava №2

Iqlimi va ichki suvlari. Osiyoning shimolida - arktika iqlimi, Sharqiy Sibirda – keskin kontinental-mo'tadil iqlim, Sharqiy va Janubiy Osiyoda musonnli iqlim, Markaziy va G'arbiy Osiyoda cho'l va chalacho'l iqlimi kuzatiladi. Muzliklar markaziy Osiyoning eng baland Ximolay, Pomir, Tyanshan, Oltoy tog'larida joylashgan (umumiy maydoni 120000 km² ortiq). Xududning katta qismini, asosan Shimoliy va Sharqiy Sibirda, ko'p yillik muzliklar (maydoni 10 mln km dan ortiq) egallagan. Shimoliy muz okeani xavzasida Ob, Enisey, Irtish, Lena yirik daryolar bor.

Tinch okeani havzasida Osiyoning eng uzun daryosi Yansizi (5800 km), Siszyan, Mekong, Xuanxe, Xind okeani xavzasida Xind, Ganga, Braxmaputra, Iravadi, Saluin, Shatt-al-Arab yirik daryolari oqib o'tadi. Ichki suvlarining oqib tushish maydoni juda katta (Kaspiy va Orol dengizlarining havzalari, Markaziy Osiyoning ko'pdan-ko'p rayonlari). Osiyoning yirik ko'llari qatoriga Baykal, Balhash, Issiq ko'l, Van, Urmiya, Kukunor, Payanxu, Duntenxu, Tonlesap ko'llari kiradi.

Ilava №3

Tabiat mintaqalari. Osiyo hududida Shimoliy yarimsharga hos bo'lgan barcha tabiiy mintaqalar joylashgan. Arktika orollarida va Shimoliy Muz okeani sohil bo'ylarida Arktika cho'llari va tundralar yoyilgan, janubdan ularni ensiz hududni egallagan o'rmon-tundra o'rab olgan. Janub tomonga yo'nalgan sari Tayga, aralash va keng bargli o'rmonlar, o'rmon-dasht va dashtlar almashinib keladi. Chala cho'l va cho'llar Arabiston yarim orolida, Eron yassi tog'larining ichki qisimlarida joylashgan.

G'arbiy Osiyoning subtropiklarida O'rta dengiz tipidagi o'simliklar tarqalgan, Sharqiy Osiyoda esa musson aralash va keng bargli o'rmonlar mavjud. Sharqiy va janubiy Osiyoning tropik kengliklarida bargli to'kiladigan o'rmonlar va savannalar, shamol tomoniga ro'para

bo'lgan tog' yonbag'irlarida doimiy yashil o'rmonlar, ekvatorial kengliklarda (asosan Indoneziyada) ko'pyarusli botqoqlashgan o'rmonlar-Gileyalar tarqalgan.

Ilava №4

Mamuriy- hududiy bo'linishi. Osiyo hududida MDHning asosiy qismi va boshqa mamlakatlar joylashgan. Osiyoda 3 mlrd dan ortiq aholi yashaydi. Hududiy bo'linishiga ko'ra Osiyo 4 ta mintaqaga ajraladi.

1. Janubiy-G'arbiy Osiyo. Uning tarkibiga Afg'oniston, Eron, Turkiya, Suriya, Livan, Iordaniya, Iroq, Saudiya Arabistoni, Yaman, Ummon, BAA, Bahrayn, Qatar, Quvayt, Isroil, Kipr, Falastin kiradi.

2. Janubiy Osiyo mintaqasiga Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Nepal, Butan, Shri-Lanka, Maldiv respublikasi kiradi.



Osiyoning siyosiy xaritasi.

3. Janubiy-Sharqiy Osiyo Vetnam, Laos, Kambodja, Tailand, Myanma (Birma), Malayziya, Singapur, Bruney, Indoneziya, Sharqiy Timor, Filippin davlatlaridan tarkib topgan.

4. Sharqiy va Markaziy Osiyoda Mangoliya, Xitoy, Makao, Yaponiya, KXDR va Janubiy Koreya joylashgan.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar: relef; botiq; tekislik; plato; plita; yassi tog'lik; musson iqlimi; keng bargli o'rmonlar; dunyo okeani; dengiz

Ilava №5

Takrorlash uchun savollar:

1. Osiyoning geografik o'rni va relyefini izohlang
2. Osiyoning iqlimini shakllanishida ta'sir ko'rsatgan omillar nimalardan iborat?
3. Osiyoning ichki suvlarini xaritadan ko'rsating
4. Osiyoning tabiat mintaqalari nimaga mos ravishda shakllangan?
5. Osiyoning ma'muriy-hududiy bo'linishini izohlab bering.

Ilava №6

Adabiyotlar ro'yhati.

1. Социально – экономическая география зарубежного мира. - Дрофа, 2001
2. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlar geografiyasi.-ToshDSHI, 2010
3. Soliyev A., Ahmedov E., Muhammadaliyev R. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. -T.:Universitet,2003.

4-Mavzu: Koreya haqida umumiy ma'lumot


4- MAVZU	Koreya haqida umumiy ma'lumot
-----------------	--------------------------------------

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 15-20nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza.
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	• Koreyaning geografik o'rni va chegaralari • Koreya relyefi • Foydali qazilmalari
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> 1.Koreyaning tabiiy, iqtisodiy, siyosiy geografik o'rniga baho berish ko'nikmasini hosil qilish. 2. Talabalarda relyef va uning shakllari hamda foydali qazilmalarning turlari to'g'risida tushuncha hosil qilish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • Koreyaning geografik o'rni va chegaralari to'g'risida xaritadan foydalangan holda ma'lumot beradi • Koreya relyefini tavsiflaydi • Foydali qazilmalarni tarqatma xarita asosida shartli belgilar orqali aniqlab borishlarini ta'kidlaydi	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: • Koreyaning geografik o'rni va chegaralari to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi • Koreya relyefi to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi • Foydali qazilmalarni xarita asosida kuzatib, kerakli belgilarni aniqlaydi
O'qitish usuli va texnikasi	Ko'rgazmali ma'ruza, bayon qilish, blis-so'rov, klaster, aqlni peshlash
O'qitish vositalari	Dars yetakchisi, tarqatma materiallar,
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va yakkalikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Auditoriya

4-MASHG'ULOT	MA'RUZA DARSINING TEXNOLOGIK KARTASI	
Bosqichlar va unga ajratilgan vaqt	Faoliyat mazmuni	
1- bosqich. Kirish qismi (10 daqiqa).	O'qituvchi	Talaba
	1.1. Talabalar davomatni tekshiradi. 1.2.Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.2. Eshitadi, yozib oladi.
2- bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa).	2.1.Asosiy tayanch iboralarni tushuntiradi (Ilova№1) 2.2. Koreyaning geografik o'rniga uch yoqlama ta'rif beradi (Ilova№2) Chegaralarini xaritadan kuzatib borishlarini ta'kidlaydi 2.3. Relyef va uning shakllarini tushuntiradi (Ilova№3) 2.4. Foydali qazilma turlariga izoh beradi (Ilova№4) 2.5.Mavzuni mustahkamlashga oid savollar beradi (Ilova№5)	2.1.Savollar berib aniqlashtiradi, tegishli ma'lumotlarni yozib oladi. 2.2. Eshitadi, ta'riflarni yozib oladi Chegaralarini xaritadan kuzatib belgilab boradi 2.3. Savollar berib, tegishli ma'lumotlarni yozib oladi. 2.4. Izohlarni yozib oladi, misollar keltiradi. 2.5.O'ylab, navbatma-navbat savollarga javob beradi

3- bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa).	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. 3.3. Seminar mashg'uloti uchun savollar eshitiriladi shuningdek mavzuga doir adabiyotlar ro'yhati beriladi. (Ilova№6)	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.3. Topshiriqni yozib oladi.
--	--	---

**Darsda qo'llaniladigan uslublar: a) klaster;
b) insert;**



ИНСЕРТ ЖАДВАЛИ

V	+	—	?

Ilova№1

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar: plato, botiq, delta, boksit, pirit, kokslanuvchi ko'mir, oltingugurt, uran, oltin, neft, gaz, yonuvchi slanes, dengiz shelfi, relyef.

Mavzu bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan asosiy tushunchalar

Ilova№2

Yevropaliklar tomonidan qabul qilingan Koreyani nomi - o'rta asrlardagi davlat Koryo nomidan kelib chiqqan. Koreyani shoirona nomi "Ertalabki salqin mamlakat", "Ertalabki osoyishta mamlakat" nomlari ham keng tarqalgan.

Koreya Osiyoning eng chekka sharqida, asosan Koreya yarim orolida va 3 mingdan ortiq (3400) atrofida joylashgan mamlakat. Koreya geografik sharoitiga ko'ra Osiyoning shimoli-sharqiy quruqlik qismi va Tinch okeanning chekka orollari o'rtasida tabiiy ko'pri bo'lib xisoblanadi. Maydoni 218,89 ming km², shundan 6 ming km² orollarga to'g'ri keladi. Shimoldan janubga uzunligi -800 km, g'arbdan sharqqa maksimum 354km, ming 175km ni tashkil qiladi.

Shimolda Koreya Xitoy(1416km) va Rossiya(19km) bilan chegaradosh. Suv yo'li chegarasining uzunligi 1400km. Dengiz bilan chegarasining uzunligi 8700km. Koreya qirg'og'i Sharqda Yapon dengizi bilan, g'arbda Sariq dengiz bilan, janubda Koreya bo'g'izi suvlari bilan yuvilib turadi.

Axolisi 70 mln kishidan ortiq. Bu yer yuzidagi axoli eng zich yashaydigan joy bo'lib, o'rtacha zichlik 1km²da 463 kishi. Etnik tarkibi bir xil: deyarli mamlakat axolisining hammasi (99% koreyslar). Ozigina qismi xitoyliklar. Davlat tili – koreys tili.

Koreya - qadimiy mamlakat, o'zining tarixi va boy madaniyatiga ega. Koreya yaxlit mamlakat bo'lib, amerika imperialistlarining aybi bilan ikkiga bo'lindi. Bu ikki hudud orasidagi zonaning kengligi 4km, uzunligi 250km. Yarim orolning shimoliy qismini Shimoliy Koreya va Janubiy qismini Janubiy Koreya egalladi.

Er.av. II-I asrlarda hozirgi Koreya hududi Xitoy mustamlakasi bo'lgan. Er.av 37-yilda Koreya yarim orolining shimolida Koreya davlati Kogure bo'lgan, janubiy qismi 2 ta qirollikka Pekche va Sillaga bo'lingan. X asr oxirida Koreya davlati Kore sulolasi hukumronligi ostida birlashadi. Koreya sulolasi Li hukumronligi vaqtida (1392-1910) mamlakat Yapon (XVI asr oxiri) va manjurlar (XVIII asr) bosqinchilari ostida qoldi. XIX asrda Xitoy, Yaponiya, Rossiya o'rtasida munozarali hudud bo'lib qoldi. 1910 yilda Yaponiya o'z mustamlakasiga aylantirdi. 30-yillar boshida yapon mustamlakachilariga qarshi milliy ozodlik kurashi partizanlar harakati shaklini oldi. Ikkinchi jaxon urushidan keyin yapon millitarizmining mag'lubiyatga uchrashida SSSR hal qiluvchi rol o'ynadi. Yaponiyaning Koreya ustidan hukumronligiga chek qo'yildi. Koreya vatanparvarlarining uzoq yillik kurashi g'alaba bilan tugallandi. Ikkinchi jahon urushida keyin Shimoliy Koreyada xalq demokratik inqilobi boshlandi. Shimoliy Koreyada yangi demokratik hukumat organlari - xalq qo'mitalarining tashkil etilishi, 1946-yilda "Ishchilar partiyasi" raxbarligi ostida demokratik o'zgarishlar o'kazildi: yer islohati, sanoatni milliyalashtirish va boshqalar.

Janubiy Koreyada 1945-yil kuzda reaksion kuchlar amerika xarbiylari yordamida demokratik harakatlarni bostirdi va mamlakatning bo'linishiga sabab bo'ldi. 1948-yil sentyabrda mana shu sharoitda Yuqori Xalq kengashi Shimoliy va Janubiy Koreyaning ko'pchilik aholi ovoz berishi natijasida KXDRning tuzilganligi e'lon qilindi va Janubda esa Koreya Respublikasi tashkil topdi.

Shimoliy Koreya maydoni 120,54 ming km². Axolisi 23.486.550 kishi. Poytaxti - Pxen'yan. 9 ta ma'muriy provintsiyaga va 4 ta markazga bo'ysunuvchi shaxarlar (Pxen'yan, Keson, Xamxin, Chxonjin). Davlat boshligi - prezident. Davlat hukumatining Yuqori organi va qonun chiqaruvchi organi - bir palatali Yuqori Xalq yig'ini hisoblanadi. 1948-yil Kim Ir San rahbarligida Mehnat partiyasi MK hukumati shakllandi. 1958-yilda qishloq va shaharlarda ijtimoiy shakllanish tugallandi. 1972-yil dekabrda KXDRning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi.

KXDR xalq hukumati yillarida mustamlaka mamlakatdan industrial-agrar sotsialistik mamlakatga aylandi. Iqtisodiy rivojlanishi sotsialistik mamlakatlar bilan hamkorlikda olib borildi. Sanoat xissasiga sanoat mahsulotlari va qishloq xo'jalikning $\frac{3}{4}$ qismi to'g'ri keladi. Elektr energiyasi ishlab chiqariladi, ko'mir, temir, rux, molibden, volfram, qo'rg'oshin, mis, alyuminiy, magniy, oltin, grafit, pirit, tuz qazib chiqariladi.

Asosiy sanoat tarmoqlari: qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoati. Qurilish materiallari ishlab chiqariladi, yog'ochni qayta ishlovchi, kimyo va neft kimyosi, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoat tarmoqlari bor. Qishloq xo'jaligida dehqonchilik ustun turadi. Yerlarga ishlov beriladi va sug'oriladi. Sholi, texnika ekinlari, dukkaklilar, paxta, tamaki va boshqalar yetishtiriladi. Plantatsiyalarda jenshen, bog'dorchilik, sabzavotchilik rivojlangan. Yirik shoxli qoramollar, cho'chqachilik, parrandachilik, baliqchilik tarmoqlari bor.



Koreya yarim orolining siyosiy xaritasi.

Temir yo'llarning uzunligi - 4915km dan ortiq, shundan 3500km elektrlashtirilgan, avtomobil yo'llari - 31200 km dan ortiq. Dengiz portlari: Vonsan, Chxonjin, Nampxo, Xinnam.

Tashqi aloqalar aylanmasining hissasi 80% dan ortiq. Metallurgiya, kimyo, mashinasozlik, tog'-kon sanoati mahsulotlari, baliq mahsulotlari, mevalar eksport qilinadi. Hamkorlari: Xitoy, Yaponiya, Rossiya, Germaniya. Pul birligi-vona.

Janubiy Koreya maydoni 98190km². Axolisi-48 mln kishidan ortiq.

Poytaxti Seul shaxri. 9ta ma'muriy provintsiyaga bo'linadi. Yirik shaharlari Seul va Pusan. Mamlakat iqtisodi chet el kapitaliga bog'liq (Yaponiya va Amerika). Iqtisodi militarizatsiya va industrializatsiyalashtirilgan. Eksport tarmog'i va og'ir sanoat tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Yoqilg'i sanoatida elektr energiya va ko'mir qazib olish rivojlangan. Metallurgiya, mashinasozlik, neftni qayta ishlovchi va kimyo sanoati, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari rivojlangan. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i dehqonchilik. Don (sholi, g'alla, arpa), dukkaklilar yetishtirish ustun turadi. Paxta, tamaki, kanop kabi texnika ekinlari yetishtiriladi. Bog'dorchilik, sabzavotchilik tarmoqlari bor. Temir yo'llarning uzunligi 6,24ming km, shundan 525km elektrlashtirilgan. Avtomobil yo'llari 87534km. Dengiz portlari: Pusan, Ulsan, Inchxon.

Eksport mahsulotlari: yengil sanoat mahsulotlari, avtomobil, kema, po'lat, elektronika mahsulotlari, mashina va jihozlar, baliq. Asosiy tashqi savdo hamkorlari: Yaponiya, AQSh, Xitoy, Gonkong, Tayvan, Avstraliya, Saudiya Arabistoni. Pul birligi - Janubiy Koreya vonasi.

Ilova №3

Relyefi. Koreya tog'li mamlakat. Tog'lar uning hududini 80%ini tashkil qiladi. Yer yuzasining dengiz sathidan o'rta balandligi 482m. Tog'larning burmalanishi o'z xarakteriga ko'ra turli xil tektonik harakatlar natijasida yuz bergan. Bunday harakatlar mamlakatning shimoli-sharqiy rayonida kuzatiladi. Koreya yer yuzasining shakillanishida vertikal harakatlar katta rol o'ynagan. Ba'zi bir bu tektonik harakatlar hozir ham davom etmoqda. Buni natijasida Koreyani hamma hududi seysmik zona hisoblanadi, lekin seysmik xavf darajasi turli rayonlar uchun turlicha.

Koreya tog'larini ikki asosiy sistemaga ajratish qabul qilingan: Shimoliy Koreya tog'lari mamlakatning shimoliy qismida joylashgan, Sharqiy Koreya tog'lari Koreya yarim orolini sharqiy qismini egalaydi.



Koreya yarim orolining tabiiy xaritasi.

Shimoliy Koreya tog'lari bir qator yassi tog'liklar va tog' tizmalaridan tashkil topgan. Ancha yirik tizmalar Hamgyon, Pudjallyon, Nannim, Machxallyon hisoblanadi. Bu tog'lar Koreyani ancha baland qismi hisoblanadi. Shimoliy Koreya tog'larining yarimiga yaqin maydoni 1500 m balandda yotadi, aloxida cho'qqilar 2000m gacha va undan balandga ko'tariladi.

Hamgyon tizmasi deyarli 400km Yapon dengizi sohiliga parallel cho'zilgan. Shimoli-sharqiy qismi deyarli hamma joyda 1500m dan pastga tushmaydi, aloxida cho'qqilari 2300m gacha ko'tariladi. Pudjallyon tizmasi Hamgyon tizmasining janubi-g'arbiy davomi hisoblanadi.

Hamgyon va Pudjallyon tizmalaridan shimolda Kema va Pektu yassitog'liklari joylashgan. Ularning yirigi Kema bo'lib, u g'arbda Nannim tizmasi va sharqda Maxgon tizmalari orasida joylashgan.

Shimoliy Kema zamonaviy vulkanizm izlarini o'zida saqlagan bazaltli yassitog'lik - Chenbeksan bilan tutashadi. Bu yassitog'likning janubi-sharqiy qismida Koreya - Xitoy chegarasida vulqon - Pektusan joylashgan. Koreyadagi eng baland tog' (2750 m). Nannimdan g'arbda Shimoliy Koreya tog'lari uncha baland emas, lekin relyefi juda murakkab. Bir nechta tog' tizmalari janubi g'arbda Sariq dengiz sohili tomon deyarli bir-biriga parallel cho'zilgan. Shimoliy Koreya tog'li rayoni tabiiy resurslarga boy. Bu yerda

mamlakatning asosiy o'rmon massivlari joylashgan, gidroenergiya, foydali qazilmalar zahirasi bo'y.

Sharqiy Koreya tog'lari meridional yop'nalishda zanjir hosil qilgan. Ular Sharqiy Koreya ko'rfazidan janubda Yapon dengizi sohiliga parallel cho'zilgan. Shu yerdan Yapon va Sariq dengizga quyuluvchi daryolar boshlanadi.



Koreya Respublikasining tabiiy xaritasi.

Txebek tog'lari Sharqiy Koreya tog'larini o'rta qismini egallab, janubi-g'arbiy yo'nalishda cho'zilgan bir qator kichik tizmalardan tashkil topgan. Txebek tog'larining janubiy qismi murakkab tuzilishda. Txebekda, asosan g'arbiy pasaygan qismida keng vodiylarda aholi dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Sharqiy Koreya tog'larining janubiy qismi ikkita asosiy yo'nalishga ajralgan: janubiy Kyonsan va janubi-g'arbiy Sobek.

Koreyaning katta qismi tog'lar va adirlar bilan band, lekin pasttekisliklar nisbatan kam. Koreya hududi umumiy maydonining taxminan $\frac{1}{4}$ qismini tashkil etadi. Pasttekisliklar tog' tizmalari orasida va dengiz sohili bo'yida joylashgan.

Keng pasttekisliklar mamlakatning g'arbiy qismida dengiz sohili bo'yida joylashgan. Ular orasida Xangan daryosining quyi oqimida va Koreya yarim orolining janubi-g'arbida Kimgan daryosi havzasida, shuningdek yarim orolning shimoli-g'arbidagi Pxenyan pasttekisligi alohida ajralib turadi. G'arbiy sohil bo'yidagi pasttekisliklar Koreyaning aholi

eng zich joylashgan va yaxshi o'zlashtirilgan hududlaridan biri hisoblanadi. Bu yerdagi iliq nam iqlim va unumdor tuproqlar sholichilikni rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratgan.

Koreyaning sharqiy sohilbo'yi pasttekisliklari ancha kichik: ulardan eng kattasi Sharqiy Koreya bo'g'ozi yaqinidagi Xamkin pasttekisligi hisoblanadi. Tekisliklarga mamlakatning 25% maydoni to'g'ri keladi.


Janubiy Koreyada oxaktoshlardan iborat bo'lgan g'orlar bor. Ulardan eng mashhurlari - Kossigul, Xvansongul. Bu g'orlarda stalaktitlar va stalakmitlar, ko'llar, daryolar bor.

Ilova №4

Foydali qazilmalar. Koreya hududida geologik ishlar natijasida ba'zi metall va minerallarning yirik zahiralari topilgan. Masalan volfram rudalari dunyodagi eng yirik zahiralar turkumiga kiradi. Undan tashqari mamlakatda oxaktosh, talk, kaolin, kvarsning yirik konlari topilgan. Grafit konlari ham jahon miqyosida katta hisoblanadi. Ulardan tashqari, Koreya yarimorolida magnezit, qo'rg'oshin, mo'libden va boshqa metal rudalari uchraydi. Mamlakatda deyarli neft konlari yo'q. Shuning uchun asosiy yoqilg'i energetik resurslar sifatida antratsit va ko'ng'ir ko'mir xizmat qiladi. Antratsit Tedongan daryosining o'rta qismida va Sharqiy Koreya tog'larida qazib olinadi. Qo'ngir ko'mirning eng yirik konlari esa shimoli-sharqda joylashgan.

Koreya foydali qazilmalari. Klaster.

9-shakl



Temir rudasi Koreya sharoitida yer yuziga yaqin joylashgan. Taxminiy xisob-kitoblarga ko'ra temir ruda zahiralarning xajmi 2 mld.t., shu jumladan 1,3 mld.t. Musanda (Xamgenpukto provinsiyasi). Bulardan tashqari yirik temir konlari Xvanxenamdo va Konvondo provinsiyalarida ham bor.

Rux, qo'rg'oshin, kumush olinadigan polimetall rudalari Kamdon rayonida (xamgennamdo), shuningdek Inkxa rayonida (Xvanxepukto) va Kanvondo provinsiyasining janubida joylashgan. Mis konlari shimoli-g'arb va janubda mavjud. Bu yerlarda mis bilan

birga oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallar uchraydi. Koreya yarimorolining ko'p yerlarida grafit, magnezit, oltin uchrab turadi

Ilova №5

Takrorlash uchun savollar:

1. Koreyaning GO'ga tabiiy, iqtisodiy va siyosiy baho bering.
2. Koreya qaysi davlatlar bilan chegaradosh?
3. Koreya yer yuzasini tuzilishini izohlab bering.
4. Koreya tabiiy resurslar bilan qay darajada ta'minlangan?

Ilova №6

Adabiyotlar:

1. «Страны мира» Энциклопедический справочник Смоленск «Русич» 2001г.
2. «Экономическая география зарубежных стран» под.ред. С.Н.Ледовских и М.С.Розина М. «Высшая школа» 1982г.
3. В.П.Максаковский «Экономическая и социальная география мира» М.1995г.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI .,2010
5. Г.Д.Толорая «Республика Корея», 1991 стр.8-14

5-Mavzu: Koreyaning o'simlik va hayvonot dunyosi.

Darsning texnologik kartasi

5- MAVZU	Koreyaning o'simlik va hayvonot dunyosi.
-----------------	---

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 15-20 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Semenar
Seminar mashg'ulotining rejasi	• Koreya hududidagi o'simliklar turlari. • Koreyadagi hayvonot dunyosi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> 1. Koreyadagi nabodat olami to'g'risida tushunchaga ega bo'lish. 2. Talabalarda hayvonot dunyosi to'g'risida bilim ko'nikmalarini hosil qilish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • Koreya hududidagi o'simliklar turlari to'g'risida ma'lumot beradi. • Koreyadagi hayvonot dunyosini tavsiflaydi.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: • Koreya hududidagi o'simliklar turlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi. • Koreyadagi hayvonot dunyosini izohlay oladi.
O'qitish usuli va texnikasi	Bayon qilish, blis-so'rov, klaster, aqlni peshlash
O'qitish vositalari	Dars yetakchisi, proektor, tarqatma materiallar.
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va yakkalikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

5- MASHG'ULOT	MA'RUZA DARSINING TEXNOLOGIK KARTASI	
Bosqichlar va unga ajratilgan vaqt	Faoliyat mazmuni	
1- bosqich.	O'qituvchi	Talaba

Kirish qismi (10 daqiqa).	1.1. Talabalar davomatni tekshiradi. 1.2. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.2. Eshitadi, yozib oladi.
2- bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa).	2.1. Koreyadagi o'simliklar turlariga ta'rif beradi. (Ilova№1) 2.2. Koreyadagi hayvonot dunyosining tarqalish areallarini tushuntiradi. (Ilova№2) 2.3. Koreyada tarqalgan endemik o'simlik va hayvonlarni aniqlashtiradi	2.1. Eshitadi. Ta'riflarni yozib oladi 2.2. . Koreyadagi hayvonot dunyosining tarqalish areallarini xaritadan kuzatib boradi. Savollar berib, tegishli ma'lumotlarni yozib oladi. 2.3. Endemik o'simlik va hayvonlarni aniqlay oladi.
3- bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa).	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. (Ilova№3) 3.3. Mavzuni mustahkamlash uchun savollar beradi, (ilova№4) shuningdek mavzuga doir adabiyotlar ro'yhati beradi. (Ilova№5)	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.3. Topshiriqni yozib oladi.

Darsda qo'llaniladigan uslublar: toifali jadval

Тоифалаш шарҳини тузиш қондаси

- ❖ 1. Тоифалар бўйича маълумотларни тақсимлашнинг ягона усули мавжуд эмас.
2. Битта мини - гуруҳда тоифаларга ажратиш бошқа гуруҳда ажратилган тоифалардан фарқ қилиши мумкин.
3. Таълим олувчиларга олдиндан тайёрлаб қўйилган тоифаларни бериш мумкин эмас бу уларнинг мустакил танлови бўла қолсин

Тоифалаш жадвали

Тоифалар				

O'simliklar dunyosi		
Shimoliy qism florasida	Janubiy qism florasida	Chitjudo orolida
Tilog'och, Hushbo'y hidli terak, Manjur jo'kasi Amur jo'kasi	Yapon kameliyasi, Doimiy yashil eman, Keng bargli eman, Bambuk, Qarag'ay	Kamfora, Lavr

**Mavzu bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan
asosiy tushunchalar**

Ilova№1

O'simlik dunyosi. Koreya florasida 3 ming dan ortiq turlar bor. Qarag'ayning 8 turi, tolning 38 turi, emanning 22 turi, yovvoyi olchaning 41 turi, klyonning 28 turi bor. Koreyada uchlamchi davr florasining ko'p turlari deyarli o'zgarmagan holda saqlangan.

Tilag'och, yoqimli hidli terak, mahjur va amur jo'kasi rivojlanishi uchun sovuq qish havosi talab qilinadi. Bunday sharoit mamlakat shimolida yetarli. Koreya janubida yapon kameliyasi, doimiy yashil eman, kengbargli eman, bambuk, qoraqarag'ay va boshqalar tarqalgan. Eng janubdagi Chejudo oroli Koreyada eng issiq iqlimi bilan farq qiladi, bu yerda hattoki kamfora, lavrni uchratish mumkin.

O'rmonlar bilan qoplangan maydonlar juda qisqarib ketgan. Keng maydonlarni egallagan oldingi o'rmonlar hududi madaniy o'simliklar bilan almashgan.

O'rmonlar Shimoliy Koreyani tog'li rayonlarida yaxshi saqlangan. Ular keng maydonlarni egallab, qimmatbaho ignabargli daraxt turlari bor. Tilag'och, pixta, yeldan tashkil topgan aralash va kengbargli o'rmonlar tog'larning yuqori qismlarida bor. Bu o'rmonlarni ignabargli turlariga qayin, klyon, jo'ka kabi daraxtlar aralashgan. Tog'larning tik yonbag'irlaridagi ignabargli o'rmonlarda kedr qarag'ayi bor. Biroq sifatli yog'och beruvchi kedr qarag'ayi ko'plab kesib yuborilgan. Pektusan yaqinidagi bazaltli platoda kengbargli o'rmonlar o'sadi.

Ignabargli daraxt turlari ustun turuvchi ignabargli o'rmonlar tog'larning 2000 m gacha bo'lgan qismini egallaydi, undan yuqorida subalp va alp o'tloqlari joylashgan.

Shimoliy Koreya tog'larining quyi qismida kengbargli o'rmonlar egallagan, unda klyon, manjuriya shumtoli, amur va manjur jo'kasi o'sadi. 1100 m dan pastda mangol emanlari ustunlik qiluvchi eman o'rmonlari egallaydi. Bu o'rmonlarda manjur yong'og'i, grab (qayin oilasiga mansub daraxt), baxmal daraxtlarini uchratish mumkin.

O'rta va Janubiy Koreya o'rmon resurslariga kambag'al. Yosh o'rmon va butazorlar ko'p bo'lib, xo'jalikda ahamiyati kam. Shuningdek O'rta Koreya uchun kengbargli o'rmonlar xos bo'lib, ular Sharqiy Koreya tog'larini egallagan. Bu yerda Shimoliy Koreya o'rmonlariga nisbatan eman, jo'ka, klyon, shumtol, grab turlari ko'p. Past tog'liklar uchun qizil qarag'ayli qarag'ay o'rmonlari xos. Bu o'rmonlar Koreyada keng maydonlarni egallaydi. Shimolda tog'larning 1000 m gacha bo'lgan qismida kengbargli o'rmonlar bilan almashinib keladi, eng chekka janubda 1500 m balandlikkacha bo'lgan qismlarda uchraydi.

Koreyani eng chekka janubida ancha iliq iqlim bo'lib, o'rmonlarda doimiy yashil daraxt turlari ko'p. Bu o'rmonlarda yapon kameliyasi, doimiy yashil eman, benzoy daraxtlari bor. Biroq doimiy yashil daraxt turlari ustun bo'lgan o'rmonlar 300-400 m dan yuqori bo'lmagan balandliklardagina va tog' vodiylari, kichik orollarda saqlanib qolgan. Doimiy yashil o'rmonlar chegarasidan yuqorida yozgi yashil o'rmonlar hukmronlik qiladi. Bu o'rmonlarda grab, kashtan, yovvoyi shaftoli, yovvoyi nok, yong'oqlar uchraydi. O'rmonlar va vodiylarda bambuk chakalakzorlari mavjud. Koreya janubida ularning ba'zi turlarining bo'yi 10 m balandlikkacha yetadi.

Xalq tabobatida qadimdan tabiiy dorixonadan foydalanilgan – Koreyada 400 turdan ko'p dorivor o'simliklar o'sadi. Nafaqat mamlakatda, balki dunyo bozorida yuqori baholanuvchi mashhur jenshen – hayot tomiriga raqobatdosh yo'q. Yovvoyi holda o'suvchi jenshenni yig'ish qadimiy an'ana hisoblanadi. Bu tarmoq bir oz sirli bo'lib, qadimda xavfli bo'lgan, u bilan ko'plab afsonalar bog'liq. Koreyslar asrlar davomida bu qimmatbaho nozik o'simlikni maxsus plantatsiyalarda yetishtirishgan.

Koreya Respublikasida jenshen yetishtirish davlat monopoliyasi hisoblanadi. Undan nafaqat dori, nastoykalar, balki jenshen choyi, tetiklashtiruvchi ichimliklar, atir-upa mahsulotlari ishlab chiqiladi. Bu mahsulot narxi baland: Seulda 30 gramm idishdagi nastoyka \$15-20ga sotiladi.

Ilova №2

Koreya hayvonot dunyosi turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Bu yerda ikkita zoogeografik mintaqa – golarktika va hind-malay hayvonlari yashaydi. Koreyada sutemizuvchilarning 105 turi, qushlarning 419 turi, sudraluvchilarning 27 turi, baliqlarning 522 turi hisobga olingan. Yirtqich hayvonlardan yiriklari – amur yo'lbarsi, qoplon, sulovsin juda kam miqdorda Shimoliy Koreyaning yurish qiyin bo'lgan o'rmonlarida va qo'shni tog'-o'rmon hududi Sharqiy Manjuriya tog'larida saqlanib qolgan. Tulki, olmaxon, qunduz,

kolonoklar (suvsarsimonlarga mansub yitqich sutemizuvchi qush) tarqalgan; qunduz saqlanib qolgan.

Koreya oʻrmonlarida xoldor kiyik, Sharqiy Sibir kiyigi yashaydi. Hozirgi kunda bu noyob hayvonlar KXDR da qoʻriqlanadi. Shu bilan birgalikda xoldor kiyik xonakilashtirilmoqda. Qoʻriqlash tadbirlari natijasida Shimoliy Koreya oʻrmonlarida toʻngʻizlar, gorallar, kosullar (bugʻu turi) sonini oshirish imkonini berdi.

Oʻrmonlarda, ishlov berilgan hududlarda va dengiz sohilboʻylarida qushlar koʻp. Qushlar dunyosida suv toʻla sholi maydonlarida doimo qarqaralar, laylaklar, turnalar, gʻozlar, oʻrdaklarning koʻp turlari, Sharqiy Osiyo uchun endemiklardan mandarinka, botqoq qushi uchraydi. Dengiz sohillarida chayka, qorabuzov (baklan), gagaralar, kayrlar yashaydi. Koreyani sharqiy sohilboʻyi qoʻnib oʻtuvchi qushlarning dunyodagi eng gavjum joylaridan biri hisoblanadi. Qoʻnub oʻtuvchi qushlar galasi ortidan yitqich qushlar oʻtadi. Ular orasida eng yirigi qushlar va hayvonlar, shuningdek baliqlar bilan oziqlanuvchi Kamchatka suv burguti asosiysi hisoblanadi. Tovuqsimonlardan qirgʻovul, ryabchiklar (bulduruq) bor. Asosan chumchuqsimonlar turli-tuman boʻlib, mamlakat ornitofunasini asosiy qismini tashkil etadi.

Koʻplab baliq turlari ichida 75 tasi Koreyada xoʻjalik ahamiyatiga ega. Sohilboʻyining uzun masofaga choʻzilganligi, Koreyani yuvib turuvchi dengizlarni chuqurligi, issiq va sovuq oqimlarning oʻtganligi hamda dengiz faunasining boyligi Koreya suvlarida xoʻjalik ahamiyatidagi baliqlarning katta resurslariga sharoit yaratgan. Bu yerda shimoliy va janubiy ixtiofaunalarning turlari tarqalgan.

Umurtqasizlar faunasi koʻp sonli. Koreya dengiz suvlarida koʻplab dengiz yulduzlari, dengiz tipratkonlari bor.

Ilava№3

Auditoriya mashgʻulotlarida talaba bilimni baholash mezonlari

3 balidan
 $3 - 2,6 = "5"$
 $2,5 - 2,1 = "4"$
 $2,0 - 1,6 = "3"$
 1,5dan past "2"

Ilava№4

Takrorlash uchun savollar:

1. Koreya fauna va flora boy hudud hisoblanadimi?
2. Koreyada oʻsimliklarning nechta oilasi va turkumlari mavjud?
3. Koreyaning qaysi qismi oʻsimlik dunyosiga boy?
4. Koreyada hayvonlarning oilalariga izoh bering.
5. Koreyada mavjud oʻsimlik va hayvonot dunyosiga xos boʻlgan endemik turlarini ayting.

Ilava№5

Adabiyotlar roʻyhati.

1. «Страны мира» Энциклопедический справочник Смоленск «Русич» 2001г.
2. «Экономическая география зарубежных стран» под.ред. С.Н.Ледовских и М.С.Розина М. «Высшая школа» 1982г.
3. В.П. Максаковский «Экономическая и социальная география мира» М.1995г.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSH „2010
5. Г.Д.Толорая «Республика Корея», 1991 стр.8-14

6-mavzu:Koreya iqlimi va ichki suvlari.

Darsning texnologik kartasi

6- MAVZU	Koreya iqlimi va ichki suvlari.
-----------------	--

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni:15-20 nafar
Oʻquv mashgʻulotining	Vizual maʼruza.

shakli	
Ma'ruza mashg'ulotining rejas	- Koreyada shakllangan iqlim mintaqalari - Koreyaning suv resurslari
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> 1Koreya iqlimi to'g'risida bilim berish 2. Koreyaning suv resurslari to'g'risida bilim ko'nikmalari xosil bo'ladi.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Koreyada shakllangan iqlim mintaqalari to'g'risida ma'lumot beradi - Koreyaning suv resurslarini xarita orqali ko'rsatib izohlaydi	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: Koreyada shakllangan iqlim mintaqalari to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi 5. Koreyaning suv resurslarini xarita orqali ko'rsata oladi va izohlaydi
O'qitish usuli va texnikasi	Ko'rgazmali ma'ruza, bayon qilish, blis-so'rov, klaster, aqlni peshlash
O'qitish vositalari	Dars yetakchisi,, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va yakka shaklida ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Auditoriya

6- MASHG'ULOT	MA'RUZA DARSINING TEXNOLOGIK KARTASI	
Bosqichlar va unga ajratilgan vaqt	Faoliyat mazmuni	
1- bosqich. Kirish qismi (10 daqiqa).	O'qituvchi	Talaba
	1.1. Talabalar davomatni tekshiradi. 1.2. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.2. Eshitadi, yozib oladi.
2- bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa).	2.1. Koreyada shakllangan iqlim mintaqalariga ta'rif beradi (Ilova№1) 2.2. Koreyaning suv resurslarini taxlil qiladi(Ilova№2)	2.1. Eshitadi. Ta'rifni yozib oladi 2.2. Savollar berib, tegishli ma'lumotlarni yozib oladi.
3- bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa).	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. 3.3. Seminar mashg'uloti uchun savollar eshitiriladi (ilova№3), shuningdek mavzuga doir adabiyotlar ro'yhati beriladi. (Ilova№4)	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.3. Topshiriqni yozib oladi.

**Darsda qo'llaniladigan uslublar: a) tizimli yondoshuv;
b) insert;**

**Mavzu bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan
asosiy tushunchalar**

Ilova№1

Koreya quyi kengliklarda va dengiz havzalari bilan o'ralganligiga qaramay mamlakatning katta qismida iqlimi mo'tadil va ancha og'ir. Buning sababi shuki Osiyo qit'asining sharqiy chekkasida o'ziga xos bo'lgan atmosfera sirkulyatsiyasi jarayonlari havo oqimining mavsumiy almashinuvi bilan izohlanadi. Qishda kuchli sovuq quruq havo oqimlari Koreyaga quruq sovuq havoni olib keladi. Yozda mamlakat hududi kuchli atmosfera namligini olib keluvchi okean havo massalari ta'sirida bo'ladi. Qishki va yozgi mussonlar

atmosfera sirkulyatsiyasining tarkibiy qismi bo'lib va u Koreya iqlimida musson xarakterini ifodalaydi.

Koreyada mavsumlarni juda aniq ajratish mumkin. Buni sababi shuki, qishda Osiyo qit'asida shakllanayotgan kuchli antitsiklon sovuq havoni Tinch okeani tomon haydaydi, yozda esa butun yarim orol okeandan keladigan mussonlar hukmida bo'ladi. Qishki musson noyabrdan martgacha bo'ladi. Janubiy Koreyada mart oxirgi sovuq oy hisoblanadi, shimolda bahor kech keladi. Aprelda qishki sovuq shamollar o'zgarib, qorlar erib, sovuq ancha yumshaydi va mamlakat bo'ylab bahor keladi.

Musson atmosfera sirkulyatsiyasining yumshashi bilan havo haroratining tez ko'tarilishi, 10°C gacha va undan yuqori kuzatiladi. O'simliklarning vegetatsiya davri boshlanadi. Bahor ikki oy davom etadi.

Iyunda Koreya hududi yozgi musson ta'sirida bo'ladi, lekin yozgi musson iyulda aniq ifodalanadi. Iyulda yomg'irli kunlar ko'p bo'ladi. Kuchli yomg'irlar tez-tez bo'lib turadi.

Yozgi shamollar tartibi sentyabrda o'zgaradi. Shu bilan birga namlik ham kamayadi, lekin havo harorati hali yuqori bo'ladi.

Koreya haroratlar sharoiti uchun yillik harorat tebranishining kattaligi bilan xarakterlanadi. Eng issiq va eng sovuq oyning haroratlari orasidagi farq hamma joyda katta, lekin shimoliy rayonlarda juda yuqori darajada. Amnakkonning yuqori oqimida joylashgan. Chungan shahrida eng issiq oy va eng sovuq oyning o'rtacha harorati orasidagi farq 40°C dan oshadi. Bu farq Pxenyanda 32,5°C ni va xattoki Koreya yarim orolining eng chekka janubida (Makpxo) harorati orasidagi farq deyarli 25°C ni tashkil qiladi. Qishki mussonalar uchun ochiq bo'lgan g'arbiy sohil haroratining yillik amplituda tebranishi odatda Yapon dengizi sohiliga nisbatan 2-7°C yuqori bo'ladi.

Yozda harorat taqsimoti bir hil, lekin eng issiq mavsumning davomiyligi har hil rayonlarda turlicha. Koreya janubida 6 oy davomida (may-oktyabr) o'rtacha harorat 16°C atrofida, shimoli-sharqiy rayonlarda esa bu mavsum faqat 4 oy davom etadi.

Koreya hududining katta qismi issiqlik resurslari bilan yuqori darajada ta'minlangan, issiqsevar sug'oriladigan o'simliklar - sholi, yeryong'oq, paxta, kunjut va boshqalar uchun yetarli darajada. Yarimorolning yuqori harorat kursatkichlari bilan ajralib turuvchi janubida sitrus mevalar yetishtirish mumkin.

Koreyaning turli rayonlarida atmosfera yog'inlarining yillik miqdori 600 mm dan 1500 mm gacha. Yog'inning katta qismi mamlakatning janubida ko'proq tushadi, shimolga tomon yog'in miqdori kamayib boradi. Bu esa relyefga bog'liq ravishda o'zgarib boradi. G'arbiy siklonlarga ochiq tog'larning g'arbiy va janubi- g'arbiy yonbag'irlarida yog'inning o'rta yillik miqdori 1000 mm dan oshadi, tog' tizmalari bilan to'silgan shimoli-sharqiy sohilbo'ylariga 700 mm dan kam yog'in tushadi. Shuningdek, shimoli-g'arbiy sohillardagi pasttekisliklarga va asosan Xvanxe yarim oroli yaqinidagi orollarga nisbatan kam yog'in tushadi, bir yilda 500 mm dan oshmaydi. Sharqiy sohilda joylashgan Vonsan va Kannim buxtasiga bir yilda 1200 mm dan ko'p yog'in tushadi.

Ilova №2

Ichki suvlari. Koreya yer usti suvlariga boy. Tushadigan yog'inning yarimidan ko'pi yer usti oqimini tashkil qiladi. Yer usti oqimining qatlami hamma joyda 40 sm dan oshadi, ba'zi daryo havzalarida u 70 sm ga yetadi. Oqimning asosiy qismi yuqori tog' daryolariga to'g'ri keladi. Koreyada asosiy oqim issik mavsumga - 4 yoz oyiga, asosan kuchli oqim iyulda kuzatiladi.

Koreyadagi daryolar kalta, suv yig'adigan havzasi kichik, lekin sersuvligi bilan farq qiladi. Daryo to'ri Koreya yarim orolining g'arbida va janubida to'plangan hamda ular Sariq dengiz, Koreya bo'g'izi havzasiga tegishli.

Amnokkan - Koreyaning eng yirik daryosi bo'lib, havzasining maydoni 69000 km². Amnokkan baland tog'dan oqadi va faqat ozgina qismi tekislikdan oqadi.

Tedongan - daryosi Shimoliy Koreya tog'larining janubiy yonbag'ridan boshlanadi. Daryo havzasi katta emas, lekin sersuv.

Xangan - daryosi Sharqiy Koreya tog'laridan boshlanadi va yuqori oqimida tog' daryosi xarakterida. O'rta va quyi oqimlarida adir va pasttekisliklardan oqadi.

Naktongan - daryosi Koreya bo'g'oziga quyiladi, keng havza va uzunligi bilan ajralib turadi.

Koreyani sharqiy sohilidagi, Xitoy va Rossiya bilan chegarasidagi asosiy daryosi - Tumangan. Koreya daryolari kema qatnoviga qulay. Daryolardan gidroenergiya manbalari sifatida keng foydalaniladi, sun'iy sug'orishda foydalanish uchun suv omborlar qurilgan.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar: mo'tadil, subtropik, musson.

Takrorlash uchun savollar:

1. Koreya qanday iqlim mintaqasida joylashgan?
2. Koreyada yog'inlarning taqsimlanishi
3. Koreyaning eng yirik daryolari qaysilar?

Ilova №3

Seminar mashg'uloti savollari:

1. Koreya hududida hukumronlik qilgan sulolalar.
2. Yapon qo'shinlarining istilosi.
3. Koreya yarimorolining ikki davlatga bo'linishi

Ilova №4

Adabiyotlar ro'yhati.

1. «Страны мира» Энциклопедический справочник Смоленск «Русич» 2001г.
2. «Экономическая география зарубежных стран» под.ред. С.Н.Ледовских и М.С.Розина М. «Высшая школа» 1982г.
3. В.П. Максаковский «Экономическая и социальная география мира» М.1995г.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI .,2010
5. Г.Д.Толорая «Республика Корея», 1991 стр.8-

7-Mavzu: Koreya tarixi

Darsning texnologik kartasi

7- MAVZU	Koreya tarixi
-----------------	----------------------

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 15-20 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Seminar
Seminar mashg'ulotining rejasi	6. Koreya hududida hukumronlik qilgan sulolalar. 7. Yapon qo'shinlarining istilosi. 8. Koreya yarimorolining ikki davlatga bo'linishi
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> 1.Koreya tarixi to'g'risida bilim berish. 2. Talabalarda Koreyaning o'z mustaqilligi uchun olib borgan kurashi to'g'risida bilim ko'nikmalarini hosil qilish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • Koreya hududida hukumronlik qilgan sulolalar to'g'risida ma'lumot beradi • Yapon qo'shinlarining istilosi haqida tavsiflaydi • Koreya yarimorolining ikki davlatga bo'linishi to'g'risida tushuncha beradi	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: • Koreya hududida hukumronlik qilgan sulolalar to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi • Yapon qo'shinlarining istilosi haqida tavsiflay oladi • Koreya yarimorolining ikki davlatga bo'linishi to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi
O'qitish usuli va texnikasi	Ko'rgazmaliseminar, bayon qilish, blis-so'rov, klaster, aqlni peshlash
O'qitish vositalari	Dars yetakchisi, , tarqatma materiallar,

O'qitish shakli	Jamoa, guruh va yakkalikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Auditoriya

7- MASHG'ULOT	MA'RUZA DARSINING TEXNOLOGIK KARTASI	
Bosqichlar va unga ajratilgan vaqt	Faoliyat mazmuni	
1- bosqich. Kirish qismi (10 daqiqa).	O'qituvchi	Talaba
	1.1. Talabalar davomatni tekshiradi. 1.2. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.2. Eshitadi, yozib oladi.
2- bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa).	2.1. Koreya hududida hukumronlik qilgan sulolalarni berilgan reja asosida bayon qilishni so'raydi(Ilova№1) 2.2. Yapon qo'shinlarining istilosi haqida tavsiflashni so'raydi (Ilova№2) 2.3. Koreya yarimorolining ikki davlatga bo'linishi to'g'risida blis so'rov tashkil qiladi O'sha vaqtda Koreyada siyosiy vaziyat qanday edi? Koreya yarim oroli nima uchun ikki davlatga bo'linib ketdii? Nima sababdan 1950-53-yillardaikki Koreya o'rtasida urush bo'lib o'tdi? (Ilova№3)	2.1. Eshitadi. O'ylaydi, javob beradi Navbat bilan bir- birini takrorlamay bayon qiladi 2.2. Savollar berib, tegishli ma'lumotlarni yozib oladi. 2.3. Savollarga navbat bilan javob berishadi
3- bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa).	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. (Ilova№4) 3.3. Seminar mashg'uloti uchun savollar eshitiriladi (ilova№5), shuningdek mavzuga doir adabiyotlar ro'yhati beriladi. (Ilova№6)	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.3. Topshiriqni yozib oladi.

Darsda qo'llaniladigan uslublar: a)tizimli yondoshuv;

v) insert;

Mavzu bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan asosiy tushunchalar

Ilova№1

Koreya tarixi arxeologik topilmalar daliliga asosan Koreyslar Koreya yarimorolini ilk Paleolit davrida egallagan. Koreya tarixi eramizdan avvalgi 2333-yil Tanginning afsonaviy tarzda Kochosonga asos solishi bilan boshlanadi. Tanginning qirolligi "Choson" deb atalgan(ammo, hozirgi kunda yaqin davrdagi Choson sulolasidan farqlash uchun Kochoson yoki Qadimgi Choson deb ataladi.). Kochoson Koreya yarimoroli shimoli va Manjuriyaning bir qismini egallashgacha kengaydi. Xitoyning Xan sulolasi bilan bir necha urushlardan keyin, Kochoson parchalanib, bir necha davlatlarga bo'linib ketdi va Koreyaning Uch Qirollik Timsoli davriga olib keldi. Uch Qirollik timsoli davri davomida Buyo, Okyo, Dongyo va Samhan birlashmasi Koreya yarimoroli va janubiy Manjuriyani egallab oldi. Aynan shu davrda Uch Qirollik ravnaq topdi. Uch Qirollik davri eramizdan avvalgi 57-

yillarda Uch Qirollik boshlandi va Shilla 668-yilda Koguryo ustidan yarimorolni birlashtirguncha kengayib bordi. Bu davrda Koguryo, Bekche, Shilla va Kaya yarim orolga hukmronlik qildi.

M.a. II-I asrlarda hozirgi Koreya hududi Xitoy mustamlakasi bo'lgan. M.a. 37-yilda Koreya yarimorolining shimoliy qismida Kogur davlati vujudga keldi. Janubiy qismi esa Pekchi va Silla qirolliklariga bo'lindi. X asrning oxirida koreys davlati Koryo sulolasi hokimiyati ostida birlashtiriladi. 1321-yilda Koreyani mo'g'ullar bosib olishadi. Li sululasi hukmronligi davrida (1392-1910) mamlakatda yaponlar (XVI asr) va manchjurlar (XVIII asr) bostirib kirishadi, XIX asrda esa Koreya Xitoy, Yaponiya, Rossiya o'rtasidagi mojaroli hududga aylanadi

Ilova№2

1910-yilda Yaponiya tomonidan bosib olingan Koreya, yaponlarga qarshi kurashni 1938-yilda boshlaydi va 1943-yilda mustaqillikka erishadi. Lekin 38-parallel bo'ylab mamlakat ikki qismga – sovet va Amerika qo'shinlarining okkupatsion hududlariga aylanadi. 1948-yilda Koreya ikki davlatga – shimolda KXDR, janubda Koreya Respublikasiga bo'linadi. 1950-53-yillarda ikki koreys davlati o'rtasida urush harakatlari sodir bo'ldi. Janubiy Koreya 1965-72-yillarda Vyetnam bilan bo'lgan harbiy voqealarga aralashadi. 1980-yilda general Chon Du Xvan mamlakatda o'z diktaturasini o'rnatadi. 1978-yilda diktatura tugatilib, birinchi demokratik saylovlarda Ro De U prezidentlikka saylanadi. Prezidentlikdan ketgandan so'ng Ro De U va uning maslakdoshlari korrupsiya va moliyaviy tovlamachilikda ayblanadilar. XXI asr boshlarida Koreya Respublikasida iqtisodiy inqiroz vujudga keldi.

Ilova№3

1948-yilda Koreya ikki davlatga – shimolda KXDR, janubda Koreya Respublikasiga bo'linadi. 1950-53-yillarda ikki koreys davlati o'rtasida urush harakatlari sodir bo'ldi. Janubiy Koreya 1965-72-yillarda Vyetnam bilan bo'lgan harbiy voqealarga aralashadi. 1980-yilda general Chon Du Xvan mamlakatda o'z diktaturasini o'rnatadi. 1978-yilda diktatura tugatilib, birinchi demokratik saylovlarda Ro De U prezidentlikka saylanadi. Prezidentlikdan ketgandan so'ng Ro De U va uning maslakdoshlari korrupsiya va moliyaviy tovlamachilikda ayblanadilar. XXI asr boshlarida Koreya Respublikasida iqtisodiy inqiroz vujudga keldi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:sulola, imperiya, imperator, agressiya, mustamlaka, XXR, XXOA.

Ilova№4

Auditoriya mashg'ulotlarida talaba bilimni baholash mezonlari

3 baldan

$3 - 2,6 = "5"$

$2,5 - 2,1 = "4"$

$2,0 - 1,6 = "3"$

1,5dan pasti "2"

Ilova№5

Seminar mashg'uloti savollari:

1. Koreyaning davlat tuzumini ayting.
2. Davlatning qonun chiqaruvchi oliy organi nima deb ataladi?
3. Mamlakatda qabul qilingan ma'muriy- hududiy bo'linishni ayting.
4. Markazga bo'ysunuvchi shaharlarga ta'rif bering.

Ilova№6

Adabiyotlar:

- 1.Soliyev A., Muhammadaliev R.. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. –T., 2005.
2. Страны и народы. Восточная и центральная Азия. – М.: Мысль 1982.
- 3.Sotsialno – ekonomicheskaya geografiya zarubejnogo mira. Pod red V. V. Volskogo – M.: Kron-press, 2003.
- 4.Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI .,2010

8-Mavzu: Koreya davlat tuzumi va siyosiy partiyalari Darsning texnologik kartasi

8- MAVZU	Koreya davlat tuzumi va siyosiy partiyalari
-----------------	--

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 15-20 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Seminar
Seminar mashg'ulotining rejasi	1.Koreyaning davlat tuzumi 2.Davlatning qonun chiqaruvchi organi 3.Davlatning ijro etuvchi organi 4.Koreyaning siyosiy partiyalari
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> 1.Koreyaning davlat tuzumi to'g'risida bilim berish. 2. Talabalarda Koreyaning ma'muriy- hududiy bo'linishi to'g'risida bilim ko'nikmalarini hosil qilish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Koreyaning davlat tuzumi to'g'risida ma'lumot beradi - Davlatning qonun chiqaruvchi organini izohlaydi - Davlatning ijro etuvchi organini tavsiflaydi - Koreyaning siyosiy partiyalarini tushuntiradi - Ma'muriy- hududiy bo'linishini ta'riflaydi	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Koreyaning davlat tuzumi to'g'risida ma'lumot bera oladi - Davlatning qonun chiqaruvchi organini izohlay oladi - Davlatning ijro etuvchi organini tavsiflay oladi - Koreyaning siyosiy partiyalari haqida tushunchaga ega bo'ladi - Ma'muriy- hududiy bo'linishga ta'rif bera oladi
O'qitish usuli va texnikasi	Ko'rgazmaliseminar, bayon qilish, blis-so'rov, klaster, aqlni peshlash
O'qitish vositalari	Dars yetakchisi, , targatma materiallar,
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va yakkalikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Auditoriya

8- MASHG'ULOT	MA'RUZA DARSINING TEXNOLOGIK KARTASI	
Bosqichlar va unga ajratilgan vaqt	Faoliyat mazmuni	
1- bosqich. Kirish qismi (10 daqiqa).	O'qituvchi	Talaba
	1.1. Talabalar davomatni tekshiradi. 1.2. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.2. Eshitadi, yozib oladi.
	2.1. Koreyaning davlat tuzumini berilgan reja asosida bayon qilishni so'raydi(Ilova№1) \ 2.2. Davlatning qonun chiqaruvchi oliy organi haqida tavsiflashni so'raydi (Ilova№2) 2.3. Koreyaning ijro etuvchi oliy organi to'g'risida blis so'rov tashkil qiladi Davlat Kengashi qanday vazifani amalga	2.1. O'ylaydi, javob beradi Navbat bilan bir- birini takrorlamay bayon qiladi 2.2. Savollar berib, tegishli ma'lumotlarni yozib oladi. 2.3. Savollarga navbat bilan javob berishadi

2- bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa).	oshiradi? Davlat Kengashining tarkibiga kimlar kiradi? Davlat Kengashining vakolati necha yil?(Ilova№3) 2.4.Koreyaning siyosiy partiyalarini ta’rifini so’raydi (Ilova№4) 2.5.Mamlakatning ma’muriy- hududiy jiatdan bo’linishini muhokamasini tashkil etadi(Ilova№5)	2.4.Siyosiy partiyalarni ta’riflaydi 2.5.Muhokamada ishtirok etib, to’g’ri javobni beradi
3- bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa).	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e’tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni rag’batlantiradi.(Ilova№6) 3.3. Seminar mashg’ulotini mustahkamlash uchun savollar eshitiriladi (Ilova№7), shuningdek mavzuga doir adabiyotlar ro’yhati beriladi. . (Ilova№8)	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.3. Savollarga javob beradi

Darsda qoʻllaniladigan uslublar: “piramida” sxemasi

Mavzu bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan asosiy tushunchalar

Июль.№1

Koreya Respublikasi poytaxti Seul shahri. Davlat tuzilishi – respublika. Ma'muriy tuzilishi: 9 viloyat (DO) va 7 shahardan iborat. Mustaqillik kuni – 15-avgust (1945-yil, Yaponiyadan ozod qilingan). Mamlakatning amaldagi konstitutsiyasi 1948-yil 17-iyulda qabul qilingan. Huquqiy tizimi: kontinental Yevropa xususiy huquqiy tizimi, anglo-amerikan huquq va Xitoy klassik qarashlariga asoslanadi. Saylov huquqi 19 yoshdan, umumiy. Davlat boshlig'i Prezident umumxalq saylovida, 5 yillik muddatga saylanadi. Ijro hokimiyati rahbari Bosh vazir Prezident tomonidan tayinlanadi. Hukumat prezident tomonidan shakllantiriladi, nomzodlarni Bosh vazir ko'rsatadi.

Ilova №2

Oliy qonun chiqaruvchi organ Milliy Majlis yoki “Kukxo” (299 aʼzo) dan iborat. Uning aʼzolari toʻrt yillik muddatga umumxalq saylovida saylanadi. Sud tizimi Oliy suddan iborat. Sudiyalar prezident tomonidan tayinlanadi. Sudyalar Milliy Majlis tasdigʻidan oʻtishi kerak

Ilova №3

Davlat boshlig'i Prezident umumxalq saylovida, 5 yillik muddatga saylanadi. Ijro hokimiyati rahbari Bosh vazir Prezident tomonidan tayinlanadi. Hukumat prezident tomonidan shakllantiriladi, nomzodlarni Bosh vazir ko'rsatadi.

Ilova.No4

Bizning ochiq partiyamiz (Yollinuridan). Partiya yetakchisi Chon Donyun bo'lib, 2003-yil asos solgan. Uning asosiy g'oyasi liberalism va sotsial demokratiyadir. Bu partiya ming yillik partiyasi parchalangandan keyin yuzaga kelgan (42 partiya a'zosi partiyadan ketgan) va mamlakatning Buyuk Davlat partiyasidan 5 nafar odam ketgan. Partiya siyosati koreyscha va xitoycha yo'nalishda ishbilarmonlikka amerikalashtirishga qarshi g'oyalarni ilg'or suradi. 2004-yil 12-martda o'tkazilgan Milliy Assambleya spikerini o'rnida amal qilayotgan prezident No Myuhyon ovoz berish jarayoning omadsiz urinish jarayonini oldini olish maqsadida spiker stolini blokirovka qilib qo'yib, butun jahon e'tiborini tortgan. Natijada, saylov parlament partiyasi 2004-yil ko'pchilik o'rinni oldi. Ichki kurashlar, kelishmovchiliklar va prezident aloqalari natijasida 2004-yilgi saylovlardan keyin mashhurligi sezilarli darajada tushib ketdi va 2005-yil aprelda Milliy Assambleyadagi o'rnini va maqomini yo'qotdi. 2006-yil 31 mayda bo'lib o'tgan regional saylovlarda mag'lubiyatni boshidan kechirgan va bu saylovlarda unga qarama-qarshi bo'lgan Buyuk


Davlat partiyasi g'olib chiqdi. Hozir partiya Shimoliy va Janubiy Koreyani Amerika siyosatidek siyosat yuritishga, birlashishga chaqirmoqda.

Yollinuridan partiyasi chiqimlarni ko'paytirish, aholini sotsial ta'minlash va kam daromad bilan ta'minlash, iqtisodiy o'sishning rolini qayd etdi. AQSH va Yaponiya bilan bo'lgan harbiy ittifoqdan ketishi, bu Shimoliy Koreya bilan yarashishga urinish edi. Haqiqatdan ham, hattoki, Shimoliy Koreyaning yaqinda yadroviy bombalarni sinovdan o'tkazgandan keyin ham, Bizning ochiq partiyamiz partiya a'zolari Shimoliy Koreyaga yordam berishga undadi.

Buyuk davlat partiyasi (Hannaradan). Partiya yetakchisi Kan Cjesop. Partiya 1963-yilda Respublika Demokratik partiyasi ostida bo'lgan, uning yetakchisi Pak Cjonxi. Pak o'ldirilishidan keyin Chon Duhvan saylangan va u Adolat Demokratik Partiyasi nomiga o'zgartirdi. 1990-yil 9 fevralda bu partiya Birlashgan Liberal-Demokratik Partiyani vujudga keltirgan. 1997-yil noyabr oyida hozirgi nimi bilan atala boshlandi. 2004-yil parlament saylovlari natijasiga ko'ra partiya mag'lub bo'lib, 299 joydan 121 o'rnini egalladi. Eng katta va yetakchi qarama-qarshi partiya. Bu Janubiy Koreyaning iqtisodiy, konservativ odatiy vorisidir. Konservant saylovchilar, qishloq viloyatlaridan va Kyonsan viloyatidan qo'llab quvvatlash olganlar. Partiya impechmenti No Muhyoni qo'llab quvvatladi. Buyuk Davlat Partiyasi kapitalizm va erkin savdoni, ishbilarmonlikni, iqtisodiy rivojlanishni, kichik hokimiyatni, soliq qisqarishini va AQSH va boshqa sharq mamlakatlari bilan strategik ittifoqni qo'llab quvvatladi. Buyuk Davlat Partiyasi Shimoliy Koreyaga qarshi kompromissiz o'rin egallaydi va Shimolda kritik insonlar huquqini buzilishini oldini oladi. Bu – parlamentda mamlakat kamchiligidir, lekin hozirgi vaqtda mamlakat bo'yicha eng ko'p qo'llab-quvvatlanayotgan parlamentdir, 40%ga ega. Hozirgi vaqtda 50% koreys aholisi partiyani qo'llab-quvvatlaydi, chunki, aholi “Bizning Ochiq partiyamiz va Prezident No Muhyon yomon davlat boshqaruviga va ro'y berayotgan iqtisodiy inqirozga ma'suliyatli”, – deb o'ylaydi.

Mehnat Demokratik Partiyasi (Minchjunodondan). 2000-yil yanvarda shakllangan. Partiyaning tashkil topishi Koreya konfederativ profsoyuzini iqtisodiy qanotini yaratishga urinish (Minchjunodondan), Janubiy Koreyadagi chapdagilardan ikkita profsoyuz tashkiloti ko'p. Partiya yetakchisi Mun Sonhyon, Tanlangan g'oyasi – Demokratik sotsiologiyadir. Partiya 2004-yilgi saylovlarda saylov natijasida 10 ta o'rin oldi.


Ilava №5



Demokratik partiya (Minchjudan). Avvalgi nomi – Yangi Mingyillik Demokratik Partiyasidir. Hozirgi nomini partiya 2005-yil 6 mayda olgan. Partiya g'oyasi – liberalizm. Mamlakat prezidenti No Muhyon 2002-yil bu partiya kandidati bo'lgan, biroq vaqt o'tishi bilan u bu partiyani tark etdi, 2003-yil Yangi Ochiq Partiyani tashkil etdi. Hozir partiyani Xan Xvagap boshqaradi. 2004-yil parlament mashhurligini yo'qotdi, qachonki, Janubiy Koreya Milliy Assambleyasi prezidenti o'rniga No Muhyonni o'tkazishga urindi, uni impichment qilib sayladi, 2004-yil parlament saylovlarida 299 ta o'rindan atigi 9 o'rinni egalladi. No Muhyon Konstitutsiyaviy sud qaroridan keyin qat'iy tura ola oldi.

Koreyaning ma'muriy-hududiy bo'linishi "Piramida" sxemasi

10-shakl



Ilova№6

Auditoriya mashg'ulotlarida talaba bilimni baholash mezonlari

2 balдан
 2,0 – 1,7 = “5”
 1,6 – 1,4 = “4”
 1,3 – 1,1 = “3”
 1 dan pasti = “2”

Ilova№7

1. Koreyaning davlat tuzumini ayting.
2. Davlatning qonun chiqaruvchi oliy organi nima deb ataladi?
3. Mamlakatda qabul qilingan ma'muriy- hududiy bo'linishni ayting.
4. Markazga bo'ysunuvchi shaharlarga ta'rif bering.

Ilova№8

Adabiyotlar ro'yhati.

1. Soliyev A., Muhammadaliev R.. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. –T., 2005.
2. Страны и народы. Восточная и центральная Азия. – М.: Мысль 1982.
3. Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред. В. В. Вольского – М.: Крон-пресс, 2003.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI .,2010

9-mavzu: Aholisi va mehnat resurslari

Darsning texnologik kartasi

9- MAVZU	Aholisi va mehnat resurslari
-----------------	-------------------------------------

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni:15-20 nafar	
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Ma’ruza.	
Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi	• Shimoliy Koreya axolisi • Janubiy Koreya axolisi • Diniy tarkibi • Axoli zichligi va uning joylashishi • Koreyada urbanizatsiya jarayoni	
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> 1Koreya aholisining etnik va diniy tarkibi, uning zichligi hamda joylashishi haqida bilimlar berish		
2. Koreya aholisining dunyoda tutgan o‘rni haqida bilim ko‘nikmalari xosil bo‘ladi		
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • Shimoliy Koreya aholisi haqida ma’lumot beradi • Janubiy Koreya aholisi haqida ma’lumot beradi • Koreya aholisining diniy tarkibi va uning soni to‘g‘risida tushuncha beradi • Aholi zichligi va uning joylashishini tavsiflaydi • Koreyada urbanizatsiya jarayonini izohlaydi		<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: • Shimoliy Koreya aholisii haqida ma’lumotga ega bo‘ladi • Janubiy Koreya aholisi haqida ma’lumotga ega bo‘ladi • Koreya aholisining diniy tarkibi va uning soni to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘ladi • Aholi zichligi va uning joylashishini tavsiflay oladi • Koreyada urbanizatsiya jarayoniri tushuntira oladi
O‘qitish usuli va texnikasi		Ko‘rgazmali ma’ruza, bayon qilish, blis-so‘rov, klaster, aqlni peshlash
O‘qitish vositalari		Dars yetakchisi, tarqatma materiallar
O‘qitish shakli		Jamoa, guruh va yakkalikda ishlash
O‘qitish shart-sharoiti		Auditoriya

9-MASHG'ULOT	MA'RUZA DARSINING TEXNOLOGIK KARTASI	
Bosqichlar va unga ajratilgan vaqt	Faoliyat mazmuni	
1- bosqich. Kirish qismi (10 daqiqa).	O'qituvchi	Talaba
	1.1. Talabalar davomatni tekshiradi. 1.2. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.2. Eshitadi, yozib oladi.
	2.1.Koreya aholisi haqida umumiy ma'lumot olish maqsadida blis so'rov o'tqazadi Koreya ko'p millatli mamlakatmi? Shimoliy Koreyada tabiiy o'sish ko'rsatkichi qanday? Janubiy Koreyada-chi (Ilova№1) 2.2. Koreya aholisining diniy tarkibi va aholisining soni bo'yicha dunyoda tutgan	2.1. Eshitadi. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Savollar berib, tegishli ma'lumotlarni yozib oladi.

2- bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa).	o'rnini bayon qiladi (Ilova№2) 2.3.Koreya aholisining zichligi va joylashuvini muhokamasini uyuushtiradi (Ilova№3) 2.4.Urbanizatsiya tushunchasiga ta'rif beradi(Ilova№4)	2.3. Muhokamada ishtirok etib,to'g'ri javoblarni beradi 2.4.Ta'rifni yozib oladi, misollar keltiradi.
3- bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa).	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. 3.3. Seminar mashg'uloti uchun savollar eshitiriladi(iloa№5), shuningdek mavzuga doir adabiyotlar ro'yhati beriladi .(Ilova№6)	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.3. Topshiriqni yozib oladi.

Darsda qo'llaniladigan uslublar:a) tizimli yondoshuv

b) insert

**Mavzu bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan
asosiy tushunchalar**

Ilova№1

Shimoliy Koreya aholisi 23.486.550 kishini tashkil qiladi, o'rta zichlik 1 km² da 195 kishi atrofida to'g'ri keladi. Etnik tarkibi bir xil, deyarli mamlakatning hamma axolisi koreyslar, 1% atrofida aholi xitoylar. Davlat tili koreys tili. Tug'ilish har 1000 kishiga 23,31 ta. O'lim har 1000 kishiga 5,47 ta (bolalar o'limi har 1000 chaqaloqqa 26,8 ta). O'rtacha umr ko'rish erkaklarda 67 yosh, ayollarda 73 yosh.

Janubiy Koreya aholisi 48mln. kishidan ortiq, o'rtacha zichlik 1 km²da 463 kishi atrofida. Etnik tarkibi bir xil koreyslar, oz qismi xitoylar. Davlat tili koreys tili. Tug'ilish har 1000 kishiga 15,63, o'lim har 1000 kishiga 6,18 ta. (bolalar o'limi har 1000 chaqaloqqa 20,9). O'rtacha umr ko'rish: erkaklarda 68 yosh, ayollarda 74 yosh. Mexnatga layoqatli aholi 200 mln. kishini tashkil qiladi, xizmat ko'rsatish tarmog'ida 52%, sanoatda 27%, qishlok xo'jalikda 21% aholi band.

Ilova№2

Koreyada buddizm eng qadimiy dinlardan bir hisoblanadi. U xitoy hududidan kirib kelgan. Buddizm Koreyada Kore sulolasi davrida ancha gulladi. Bu davrda budda cherkovlari mamlakatning ham iqtisodiy ham siyosiy hayotida muhim rol o'ynadi.

XIV asr oxirida buddizmni ta'siri kamayadi. Bu esa hukumat boshiga Li sulolasi kelishi bilan bog'liq bo'ladi. Bir necha yillar davomida qator qonunlar chiqdi. Rohiyblarni yerlarga egalik qilish huquqlarini chekladi. Rohiblarni poytaxtga va yirik shaharga chiqishi man qilinadi, budda ibodatxonalarini tiklash taqiqlandi.O'zining ta'sirini va davalat ahamiyatini yo'qotgan buddizm konfutsionizmlar bilan bir qatorda amal qiladi. Konfutsianizm Koreyada V- VII asrlarda tarqaldi.

Xristianlik Koreyada birinchi marta 1592-yilda paydo bo'ladi. Biroq, faqatgina XVIII asr oxiridagina ozmi-ko'pmi xristianlik g'oyalari tarqaldi.

Janubiy Koreyada buddizmga 27% aholi, xristionlikka 24%, qolganlari konfutsianizm, chondoko' diniga e'tiqod qiladilar. Shimoliy Koreyada an'anaviy dini budda va konfutsionizm, biroq hozirgi vaqtda diniy faoliyat amalda yo'q.

Ilova№3

Koreya hududida aholi notekis taqsimlangan. Tabiiy o'sish Shimoliy Koreyada Janubiy Koreyaga qaraganda bir muncha yuqori. Agar 1960-yillarda aholining yillik o'rtacha o'sishi 2,5% bo'lgan bo'lsa, 1990-yillarda bu ko'rsatkich 1% dan ham kamayib ketdi. Bu mamlakatda o'tkazilayotgan oilani rejalashtirish xarakatining natijasidir.

Aholi zich joylashgan provintsiya Xvanxe-Namdo (KXDR) o'rtacha zichlik Pxenyan-Namdo, Pxenyan-Pukto, Xvanxe-Pukto'da ham yuqori. Ikkinchi jahon urushiga qadar koreyslar migratsiyasi asosan 2 regionga - Manchjuriyaga va Yaponiyaga qaratilgan edi. Hozir Manchjuriyada 2 mln. va Yaponiyada 0,6 mln. koreys yashamoqda. Ikkinchi jahon

urushidan so'ng Koreya va Amerika munosabatlari ko'plab koreyslarni AQSh ga ko'chib borishiga olib keldi. Ba'zi taxminiy hisoblarga ko'ra, hozir AQSh da 1 mln. dan ortiq koreys millatiga mansub shaxslar yashamokda. Hisob kitoblarga ko'ra 1945-yildan keyin Shimoliy Koreyadan Janub Koreyaga 2 mln. kishi ko'chib o'tgan.

Ilava №4

KXDR aholisining ko'p qismi xalq hukumatining dastlabki yillarda qishloqlarda yashagan. Sotsiologik industrilashtirishni intensiv jarayoni aholini qishloqlardan shaharlarga ko'chib o'tishiga sabab bo'ladi. 1956-yildan 1980-yilgacha shahar aholisini soni 3,2 marta oshdi. Hozirgi vaqtda shaharlarda va ishchi posyolkalarda mamlakat aholisining 0,5 dan ko'pi yashaydi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Janubiy Koreyada urbanizatsiya jarayoni avj olib ketdi va hozir aholining 74,4% i shaharlarda istiqomat qiladi. 1960-yildan boshlab KRsida aholi qishloqlardan shaharga ko'chib bora boshladi va shahar aholisi 1960-yildagi 6 mln. dan 1990-yilgacha 32,4 mln. ga ko'paydi. So'nggi 30 yil mobaynida mamlakatda misli ko'rilmagan industrilashtirish jarayoni kuzatilib, bu YAiM ni keskin ko'payishiga olib keldi. Mamlakat poytaxti Seulda aholi soni katta bo'ladi. Uning aholisi 1960-yilda 2,5 mln. kishi bo'lgan bo'lsa, 1990-yilga kelib bu raqam 10,6 mln kishiga yetdi. Shaharlar qiyofasi ham o'zgardi: masalan, 60-yillarda poytaxtda 10 qavatdan ortiq bo'lgan binolar mutlaqo bo'lmagan bo'lsa, hozir 30 qavatdan ortiq ko'plab binolarni uchratish mumkin va Yeido rayonida hattoki 63 qavatli go'zal bino bor. Shaharlar soni ham ko'paydi. Agar 1945-yilda mamlakatda 12 ta yirik shahar bo'lgan bo'lsa, hozir maxsus statusga ega bo'lgan bir shahar Seul markazga bo'ysunuvchi 5 shahar- Pusan, Tegu, Inchxon, Kvanchju. Techjon va yana 67ta pravintsiyaga bo'ysunuvchi shaharlar qayd etilgan.

Tekisliklarda qishloqlar to'da-to'da bo'lib joylashgan. Qishloq aglomeratsiyalari ularning aholisini dushmanlardan himoya qilish uchun xizmat qilgan, o'tmishda ularda katta oilalar ko'p bo'lgan. Ba'zan ayrim qishloqlarda bir xil familiyaliklar ko'p uchrardi, bu shundan dalolat beradiki, ko'pchiligi bir urug'ga mansub, masalan., Kingachxon, ya'ni Kimlar qishlog'i. Qishloqlar ko'pincha tog'larning janubiy etaklarida joylashgan bo'ladi. Bunday joylashish sovuq qish mussonlaridan saqlaydi. Qishloqlar zamonaviy sement va cherepitsa bilan qurilgan, chiroyli aholi punktlariga aylanib bormoqda. Qishloq hayotidagi asosiy o'zgarish uning aholisining o'sish sur'atlari pasayib ketganligi bilan bog'liqdir.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Shimoliy va Janubiy Koreya aholisiga qiyosiy baxo bering.
2. Koreya aholisining diniy tarkibi qanday?
3. Koreyada aholi zich va siyrak joylashgan provinsiyalarni ayting.
4. Koreyada urbanizatsiya jarayonini izohlang.

Ilava №5

Seminar mashg'uloti uchun savollar:

1. Koreyada qachondan boshlab demografik siyosat o'tkazila boshlandi?
2. Demografik siyosat nima maqsadda o'tkazildi?
3. Bu siyosat natijasida xitoy oilalariga qanday imtiyozlar berildi?
4. Siyosat natijalari nima bilan yakunlandi?

Ilava №6

Adabiyotlar:

1. «Страны мира» Энциклопедический справочник Смоленск «Русич» 2001г.
2. «Экономическая география зарубежных стран» под.ред. С.Н.Ледовских и М.С.Розина М. «Высшая школа» 1982г.
3. В.П. Максаковский «Экономическая и социальная география мира» М.1995г.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI .,2010
5. Г.Д.Толорая «Республика Корея», 1991 стр.8-14

10-mavzu: Koreyada demografik siyosat Darsning texnologik kartasi

10- MAVZU	Koreyada demografik siyosat
----------------------	------------------------------------

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni:15-20 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Seminar
Seminar mashg'ulotining rejasi	• Koreya o'tqazilgan demografik siyosat • Demografik siyosat bergan imtiyozlar • Koreyada demografik siyosat natijalari
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> 1Koreya aholisining etnik va diniy tarkibi, uning zichligi hamda joylashishi haqida bilimlar berish 2. Koreyaaholisining dunyoda tutgan o'rni haqida bilim ko'nikmalari xosil bo'ladi	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • Koreya o'tqazilgan demografik siyosat haqida ma'lumot beradi • Demografik siyosat bergan imtiyozlar to'g'risida tushuncha beradi • Koreyada demografik siyosat natijalarini tavsiflaydi	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: • Koreya o'tqazilgan demografik siyosat haqida ma'lumotga ega bo'ladi • Demografik siyosat bergan imtiyozlar to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi • Koreyada demografik siyosat natijalarini tavsiflay oladi
O'qitish usuli va texnikasi	Ko'rgazmali ma'ruza, bayon qilish, blis-so'rov, klaster, aqlni peshlash
O'qitish vositalari	Dars yetakchisi, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va yakka shaklida ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Auditoriya

10- MASHG'ULOT	MA'RUZA DARSINING TEXNOLOGIK KARTASI	
Bosqichlar va unga ajratilgan vaqt	Faoliyat mazmuni	
1- bosqich. Kirish qismi (10 daqiqa).	O'qituvchi	Talaba
	1.1. Talabalar davomatni tekshiradi. 1.2. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.2. Eshitadi, yozib oladi.
2- bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa).	2.1.Koreyada demografik siyosatani aniqlash uchun blis so'rov o'tqazadi Koreyada tabiiy o'sish yuqorimi? Nima uchun demografik siyosat o'tqazildi? Bu siyosat qachondan boshlab hayotga tadbiiq qilindi? (Ilova№1) 2.2Demografik siyosat bergan imtiyozlar muhokamasini tashkil etadi (Ilova№2) 2.3.Demografik siyosat natijalarini aniqlashtiradi (Ilova№3)	2.1. Eshitadi. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Muhokamada ishtirok etib,to'g'ri javoblarni beradi 2.3. Savollar berib, tegishli ma'lumotlarni yozib oladi.
3- bosqich. Yakuniy qism	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi(Ilova№4)	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.

(10 daqiqa).	3.3. Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralarni eshittiradi(lovano5), shuningdek mavzuga doir adabiyotlar ro'yhati beriladi .(lovano6)	3.3. Topshiriqni yozib oladi.
---------------------	---	-------------------------------

Darsda qo'llaniladigan uslublar: a) tizimli yondoshuv;

b) insert;

**Mavzu bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan
asosiy tushunchalar**

Ilova№1

Shimoliy Koreya aholisi 23.486.550 kishini tashkil qiladi, o'rtacha zichlik 1 km² da 195 kishi atrofida to'g'ri keladi. Etnik tarkibi bir xil, deyarli mamlakatning hamma aholisi koreyslar, 1% atrofida aholi xitoylar. Davlat tili koreys tili. Tug'ilish har 1000 kishiga 23,31 ta. O'lim har 1000 kishiga 5,47 ta (bolalar o'limi har 1000 chaqaloqqa 26,8 ta). O'rtacha umr ko'rish erkaklarda 67 yosh, ayollarda 73 yosh.

Janubiy Koreya aholisi 48mln. kishidan ortiq, o'rtacha zichlik 1 km²da 463 kishi atrofida. Etnik tarkibi bir xil koreyslar, oz qismi xitoylar. Davlat tili koreys tili. Tug'ilish har 1000 kishiga 15,63, o'lim har 1000 kishiga 6,18 ta. (bolalar o'limi har 1000 chaqaloqqa 20,9). O'rtacha umr ko'rish: erkaklarda 68 yosh, ayollarda 74 yosh. Mehnatga layoqatli aholi 20 mln. kishini tashkil qiladi, xizmat ko'rsatish tarmog'ida 52%, sanoatda 27%, qishlok xo'jalikda 21% aholi band.

Ilova№2

Koreyada buddizm eng qadimiy dinlardan bir hisoblanadi. U xitoy hududidan kirib kelgan. Buddizm Koreyada Kore sulolasi davrida ancha gulladi. Bu davrda budda cherkovlari mamlakatning ham iqtisodiy ham siyosiy hayotida muhim rol o'ynadi.

XIV asr oxirida buddizmni ta'siri kamayadi. Bu esa hukumat boshiga Li sulolasi kelishi bilan bog'liq bo'ladi. Bir necha yillar davomida qator qonunlar chiqdi. Rohiyblarni yerlarga egalik qilish huquqlarini chekladi. Rohiblarni poytaxtga va yirik shaharga chiqishi man qilinadi, budda ibodatxonalarini tiklash taqiqlandi. O'zining ta'sirini va davalat ahamiyatini yo'qotgan buddizm konfutsionizmlar bilan bir qatorda amal qiladi. Konfutsianizm Koreyada V- VII asrlarda tarqaldi.

Xristianlik Koreyada birinchi marta 1592-yilda paydo bo'ladi. Biroq, faqatgina XVIII asr oxiridagina ozmi-ko'pmi xristianlik g'oyalari tarqaldi.

Janubiy Koreyada buddizmga 27% aholi, xristionlikka 24%, qolganlari konfutsianizm, chondoko diniga e'tiqod qiladilar. Shimoliy Koreyada an'anaviy dini budda va konfutsionizm, biroq hozirgi vaqtda diniy faoliyat amalda yo'q.

Ilova№3

Koreya hududida aholi notekis taqsimlangan. Tabiiy o'sish Shimoliy Koreyada Janubiy Koreyaga qaraganda bir muncha yuqori. Agar 1960-yillarda aholining yillik o'rtacha o'sishi 2,5% bo'lgan bo'lsa, 1990-yillarda bu ko'rsatkich 1% dan ham kamayib ketdi. Bu mamlakatda o'tkazilayotgan oilani rejalashtirish xarakatining natijasidir.

Aholi zich joylashgan provintsiya Xvanxe-Namdo (KXDR) o'rtacha zichlik Pxenyan-Namdo, Pxenyan-Pukto, Xvanxe-Pukto'da ham yuqori. Ikkinchi jahon urushiga qadar koreyslar migratsiyasi asosan 2 regionga - Manchjuriyaga va Yaponiyaga qaratilgan edi. Hozir Manchjuriyada 2 mln. va Yaponiyada 0,6 mln. koreys yashamoqda. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Koreya va Amerika munosabatlari ko'plab koreyslarni AQSh ga ko'chib borishiga olib keldi. Ba'zi taxminiy hisoblarga ko'ra, hozir AQSh da 1 mln. dan ortiq koreys millatiga mansub shaxslar yashamokda. Hisob -kitoblarga ko'ra 1945-yildan keyin Shimoliy Koreyadan Janub Koreyaga 2 mln. kishi ko'chib o'tgan.

KXDR aholisningi ko'p qismi xalq hukumatining dastlabki yillarda qishloqlarda yashagan. Sotsiolistik industrlashtirishni intensiv jarayoni aholini qishloqlardan shaharlarga ko'chib o'tishiga sabab bo'ladi. 1956-yildan 1980-yilgacha shahar aholisini soni 3,2 marta oshdi. Hozirgi vaqtda shaharlarda va ishchi posyolkalarda mamlakat aholisining yarmidan ko'pi yashaydi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Janubiy Koreyada urbanizatsiya jarayoni avj olib ketdi va hozir aholining 74,4% i shaharlarda istiqomat qiladi. 1960-yildan boshlab KRsida aholi qishloqlardan shaharga ko'chib bora boshladi va shahar aholisi 1960-yildagi 6 mln.dan 1990-yilgacha 32,4mln.ga ko'paydi. So'nggi 30 yil mobaynida mamlakatda misli ko'rilmagan industrilashtirish jarayoni kuzatilib, bu YAIM ni keskin ko'payishiga olib keldi. Mamlakat poytaxti Seulda aholi soni katta bo'ladi. Uning aholisi 1960-yilda 2,5 mln. kishi bo'lgan bo'lsa, 1990-yilga kelib bu raqam 10,6 mln kishiga yetdi. Shaharlar qiyofasi ham o'zgardi: masalan, 60-yillarda poytaxtda 10 qavatdan ortiq bo'lgan binolar mutlaqo bo'lmagan bo'lsa, hozir 30 qavatdan ortiq ko'plab binolarni uchratish mumkin va Yeido rayonida hattoki 63 qavatli go'zal bino bor. Shaharlar soni ham ko'paydi. Agar 1945-yilda mamlakatda 12 ta yirik shahar bo'lgan bo'lsa, hozir maxsus statusga ega bo'lgan bir shahar Seul markazga bo'ysunuvchi 5 shahar- Pusan, Tegu, Inchxon, Kvanchju. Techjon va yana 67ta pravintsiyaga bo'ysunuvchi shaharlar qayd etilgan.

Tekisliklarda qishloqlar to'da-to'da bo'lib joylashgan. Qishloq aglomeratsiyalari ularning aholisini dushmanlardan himoya qilish uchun xizmat qilgan, o'tmishda ularda katta oilalar ko'p bo'lgan. Ba'zan ayrim qishloqlarda bir xil familiyaliklar ko'p uchrardi, bu shundan dalolat beradiki, ko'pchiligi bir urug'ga mansub, masalan., Kimgachxon, ya'ni Kimlar qishlog'i. Qishloqlar ko'pincha tog'larning janubiy etaklarida joylashgan bo'ladi. Bunday joylashish sovuq qish mussonlaridan saqlaydi. Qishloqlar zamonaviy sement va cherepitsa bilan qurilgan, chiroyli aholi punktlariga aylanib bormoqda. Qishloq hayotidagi asosiy o'zgarish uning aholisinig o'sish sur'atlari pasayib ketganligi bilan bog'liqdir.

Ilova№4

Auditoriya mashg'ulotlarida talaba bilimni baholash mezonlari

2 balidan

2,0 – 1,7 = “5”

1,6 – 1,4 = “4”

1,3 – 1,1 = “3”

1 dan past = “2”

Ilova№5

Mavzuga oid tayanch so'z va iboralar:demografiya, tabiiy o'sish, tug'ilish sur'ati,o'lim sur'ati, oilani rejalashtirish, migratsiya, emigratsiya, immigratsiya,shahar aholisi, qishloq aholisi.

Ilova№6

Adabiyotlar ro'yhati.

1. Soliyev A., Muhammadaliev R.. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. –T., 2005.
2. Страны и народы. Восточная и центральная Азия. – М.: Мысль 1982.
3. Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред. В. В. Вольского – М.: Крон-пресс, 2003.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI .,2010

11-mavzu:Koreyaning og'ir sanoati.

Darsning texnologik kartasi

11- MAVZU	Koreyaning og'ir sanoati
----------------------	---------------------------------

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni:15-20 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	• Koreya og'ir sanoatiga umumiy ta'rif. • Elektro-energetika sanoati. • Metallurgiya sanoati. • Mashinasozlik sanoati.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> 1Koreya og'ir sanoati haqida bilimlar berish	

2. Koreyaning og'ir sanoat tarmoqlari haqida bilim ko'nikmalari xosil bo'ladi	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba:
- Koreyda og'ir sanoat tarmoqlari to'g'risida ma'lumot beradi - Energetika sanoatini sharhlaydi - Metallurgiya sanoatini ta'riflaydi - Mashinasozlik sanoati to'g'risida tushuncha beradi	- Koreyada og'ir sanoat tarmoqlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi - Energetika sanoatini sharhini bera oladi - Metallurgiya sanoatiga ta'rif bera oladi - Mashinasozlik sanoati to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi
O'qitish usuli va texnikasi	Ko'rgazmali ma'ruza, bayon qilish, blis-so'rov, klaster, aqlni peshlash
O'qitish vositalari	Dars yetakchisi, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va yakkalikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Auditoriya

11-MASHG'ULOT	MA'RUZA DARSINING TEXNOLOGIK KARTASI	
Bosqichlar va unga ajratilgan vaqt	Faoliyat mazmuni	
1- bosqich. Kirish qismi (10 daqiqa).	O'qituvchi	Talaba
	1.1. Talabalar davomatni tekshiradi. 1.2. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.2. Eshitadi, yozib oladi.
2- bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa).	2.1 Koreyada og'ir sanoat to'g'risida blis so'rov o'tkazadi Og'ir sanoat deganda nimani tushinasiz? Og'ir sanoat tarmoqlariga nimalar kiradi? Og'ir sanoat tarmoqlarining mamlakat iqtisodidagi ulushi qanday? (Ilova№1) 2.2.Energetika sanoatining tushuntiradi (Ilova№2) 2.3.Metallurgiya va mashinasozlik sanoatlarini bayon qiladi (Ilova№3)	2.1. Eshitadi. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Savollar berib, tegishli ma'lumotlarni yozib oladi. 2.3. Savollar berib aniqlashtiradi, tegishli ma'lumotlarni yozib oladi.
3- bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa).	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi 3.3. Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralarni eshittiradi(iloa№4), shuningdek seminar mashg'uloti uchun savollar eshitiriladi(Ilova№5)mavzuga doir adabiyotlar ro'yhati beriladi .(Ilova№6)	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.3. Topshiriqni yozib oladi.

**Darsda qo'llaniladigan uslublar: "pog'ona "tarkibiy-mantiqiy sxema
Mavzu bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan
asosiy tushunchalar**

Ilova№1

Koreya Respublikasi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan industrial-agrar mamlakat. "Osiyo yo'lbarlari" deb nomlanuvchi mamlakatlar orasida yetakchi o'rinni egallaydi.(KR, Tayvan, Gonkong, Singapur,Malayziya). O'zining sanoat ishlab chiqarish

hajmi bo'yicha kapitalistik dunyoda u 15-o'rinni egallaydi, aylanma tovar hajmi bo'yicha 13 o'rin, kemasozlik buyicha 1-o'rin, televizor chiqarish bo'yicha, 4-o'rinni egallaydi. Ko'rinib turibdiki, Janubiy Koreyaning xalqaro maydondagi obro'si ham mustahkamlandi.

Koreya iqtisodi murakkab tarixiy sharoitda shakillandi. XIX asrning 80-yillaridan bu yerga chet el kapitali kirib kela boshladi. Bunda Yaponiya faol namoyon bo'ldi. XIX asrning oxirida mamlakatning bir qator yetakchi tarmoqlarini o'z ta'siriga bo'ysundurgan edi. XX asrning 20-yillarida butun yarim orol Yaponiyaning agrar xom-ashyo bazasiga aylandi. Boy tabiiy resurslari ayovsiz ekspluatatsiya qilindi. Sanoat faqat bir talab - Yaponiya mahsulotlarini tashib ketishi qulay bo'lishi sharoiti asosida joylashtirildi. Xom ashyo va mehnat resurslari bilan taminlanganlik darajasi sanoatda ikkinchi darajali rol o'ynadi.

Yaponlarning hukumronligi yillarida asosiy sanoat markazlari shaharlarda tashkil qilindi. Mashinasozlik tarmog'i umuman yo'q edi, faqat kichik ta'mirlash ustaxonalari bor edi. Hamma kerakli mashinalar va jixozlar Yaponiyadan keltirilar edi. Qishloq xo'jalikda hech qanday siljishlar bo'lmadi. Asosiy ish quroli egar va omoch edi.

Biroq Koreya ozod bo'lgandan boshlab iqtisodiyot rivojlanishining qoloqligi va mustamlaka xarakteridaligiga qaramay, yagona ishlab chiqarish kompleksi asosida olib borildi. Mamlakatning Shimoliy qismi yoqilg'iga, elektr energiyaga, metallarga va sanoat mahsulotlarining boshqa turlariga bo'lgan ichki ehtiyojni ta'minladi. Janubiy Koreya mamlakatni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minladi.

1945-yilda Shimoliy va Janubiy Koreya orasidagi iqtisodiy aloqalar tugatilindi va ularning iqtisodiy rivojlanishi turli yo'llardan ketdi.

Sotsializmni xom ashyo texnika bazasini yaratish jarayonida KXDR mehnatkashlari oldida uzoq mustamlaka hukumronligi og'ir iqtisodiy asoratlarini bartaraf qilish vazifasi turar edi. 1950-53 yillardagi urush deyarli hamma fabrika-zavod binolarini, ko'plab ko'priklarni va to'g'onlarni, aholi punktlarini vayronaga aylantirdi. KXDR mehnatkashlari qisqa vakq ichida urush keltirgan vayronalarni bartaraf etildi. Sotsiolistik davlatlarni beg'araz yordami tufayli ko'pgina korxonalar va xo'jalik ob'ektlari tiklandi, ta'mirlandi yoki qaytadan qurildi.

KXDR iqtisodi rejali asosda olib boriladi. Urushdan keyingi birinchi uch yillik rejasining (1954-56) vazifalari qishloq xo'jaligini tiklashga qaratildi. Keyingi ikkita 10 yillik va 7 yillik rejalari sotsiolizmni xom ashyo, texnika bazasini tiklashga va mehnatkashlarni turmush darajasini ko'tarishga qaratildi. Lekin Shimoliy Koreya iqtisodiy rivojlanishi va turmush darajasi jihatidan Janubiy Koreyadan orqada qolmoqda.

Tabiiy resurslarning cheklanganligiga, ichki bozorning rivojlanmaganligiga qaramay Koreya Respublikasi so'nggi 10 yillikda iqtisodiy o'sish sur'ati dunyodagi eng yuqori o'rinlardan biriga erishdi. 1962-yildan boshlab Koreya Respublikasi birinchi besh yillik rejasini amalga oshira boshladi va keyinchalik o'rta hisobda YAiM yiliga 8%dan o'sib bordi, bu ko'rsatkich 1992-yilga kelib 295 mld. dollarni tashkil kildi. Shu davrga kelib YAiM jon boshiga 87 dollardan 6700 dollargacha o'sdi. Sanoat strukturasi ham o'zgardi, masalan, qayta ishlash tarmoqlari ulushi 14,4%dan 27,3%gacha oshdi. Shu davr ichida Koreyaning tovar ayriboshlashi 500 mln. dollardan 158,4 mld. Dollarga, ya'ni salkam 309 martta ko'paydi. 60-yillarning boshida hukumat tashqi aloqalarni kuchaytirish, eksportni rivojlantirish va asta sekin jahon iqtisodiyotiga kirib borish bosh strategiyasini qabul qildi va amalga oshira boshladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish strategiyasi mohiyati yengil sanoat mahsulotlari eksportini keskin oshirish bilan bog'liq edi, chunki bu tarmoq rivojlanishida Koreya Respublikasi boshqa mamlakatlarga nisbatan qulayliklarga va keng imkoniyatlarga ega edi. Mamlakat iqtisodiy rivojlanishida 1976-78-yillar juda muvaffaqiyatli bo'ldi, chunki bu yillar yalpi milliy mahsulot yiliga 11,2%ga ko'paydi. Agar 1985yilda Koreya Respublikasi xorijiy davlatlardan 46,8 mld.dollar qarzi bo'lgan bo'lsa, 1989- yilga kelib u barcha qarzlardan qutildi va o'zi kredit beruvchi mamlakatlardan biriga aylandi.

Ilova №2

Xo'jalikni asosini sanoat tashkil qiladi. Sanoatning umumiy strukturasi qazib oluvchi tarmoqlarning ulushi 1966-yildan 1992-yilgacha 34,8% dan 7,6% gacha pasaydi. Hozirgi kunda bu tarmoqlarning ulushi hammasi bo'lib 5%ni tashkil kiladi. Ayni vaqtda

qayta ishlash sanoatining va xizmatlarining ulushi oshib bordi. Ularning yarimidan ko'proq mahsulotlari yengil sanoat tarmoqlariga, shu jumladan 1/3 qismi mashinasozlikka yetkazib berilayapti. Ko'mir qazib chikarish tarmog'ida 60 ming kishi band bo'lib, u ichki ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli emas. Ulardan tashqari qazib olish sanoat tarmog'ida volfram kontsentrati, oltin, mis, polimetall, menerallar, ohaktosh, talk ishlab chiqaradi. Temir rudasi qazib olish Yanneda, volfram esa Sandom konida to'plangan.



Po'lat, elektron asbob-uskunalar, mashinalar va transport asbob-uskunolari, shuningdek kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish sezilarli o'sishi natijasida og'ir va kimyo sanoatining ulushi ortib bormoqda. :

Energetika. Koreya energetikasining rivojlanish dasturida energiya manbai sifatida neftni ko'mir va atom energiyasi bilan almashtirish ko'zda tutilgan. 1961-yilda Koreya Elektrik Pauer Korporeyshen tashkil qilindi. Mamlakatda 37ta IES, 31 ta GES va 9ta AES lar ishlaydi. Barcha ishlab chiqarilgan energiyaning 58,1% issiqlik, 31,5% atom va 10,4% GES lar beradi. Bundan ko'rinib turibdiki Koreya elektro energetikasining asosini IESlar tashkil qiladi. Mamlakatni tashvishga solayotgan muammo neft importiga bog'liqlikdir. 80-yillarning oxirida 44% elektr energiya ishlab chiqarishda neftdan foydalanildi. 1979-yilda Koreya rayonida birinchi AES bunyod qilindi. 80-yillar oxirida ularning soni 9taga yetdi. 90-yillarda elektrobalsda AESlarning xissasi Amerika, Fransuz, Kanada firmalari bilan

xamkorlikda 33% ga yetdi. Elektr o'tkazgichlarning umumiy uzunligi 20 ming. km.dan oshib ketdi.

Antratsit asosiy energiya manbai bo'lib qolmoqda, chunki mamlakatda suyuq energiya manbalari topilmagan, gidroresurslar esa cheklangan. Gidroeenergetika ikkinchi darajali rol o'ynaydi, 30% dan kam gidroresurslardan foydalaniladi. Ko'mirning umumiy zaxiralari 1,6 mlrd. tonna deb baholanmoqda. Eng yirik ko'mir koni Samchxok- Chunsun Koreyaning 56,3% ko'mirini beradi va Kanvondo provintsiyasida joylashgan. Energetikaning rivojlanishi kelajakda AESga bog'liqdir.

Ilova №3

Metallurgiya. Qora metallurgiya tarmog'i yetakchi o'rinni egallaydi, chunki 40% metall xorijga, asosan AQSh va Yaponiyaga sotiladi. Po'lat ishlab chiqarish bo'yicha Koreya 1993-yilga kelib jahonda 6- o'ringa chiqdi va Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya davlatlaridan o'zib ketdi. Bu katta g'alaba, chunki 60-yillarning o'rtalarigacha Koreya Respublikasida metallurgiya faqat metallalomni qayta ishlanishiga asoslangan edi. Eritilgan po'latning ko'p qismini jahondagi eng katta komplekslardan biri, 1973-yilda qurib topshirilgan. Pxoxan Ayron end Stil Kompani ltd yetkazib beradi (80%).

Kemasozlik, avtomobilsozlik, mashinasozlik, elektronika sanoatining metallga bo'lgan talabi 80% ga qondiriladi.


Qora metallurgiyaga nisbatan rangli metallurgiyaning ahamiyati kamroq. Koreya elektrolit mis (200 ming.tonna), rux (300 ming.tonna), qo'rgoshin (67 ming.tonna) va alyuminiy ishlab chiqariladi. Agar qo'rgoshin va ruxga bo'lgan talab mamlakatning ichki bozorida to'la ta'minlansa, alyuminiy umumiy talabning 10%ni qondiradi. Kelajakda o'rta hisobda yiliga 7% rangli metallarga talab oshib boradi. Aytib o'tish lozimki, Koreya Respublikasida oz miqdorda oltin va kumush ham qazib chiqariladi.

Mashinasozlik. Koreya Respublikasida mashinasozlik dunyo xo'jaligi bilan mustahkam bog'langan tarmoqdir.

Chetdan asosan moliyaviy vositalar, texnologiya va komplektlovchi buyumlar keltiriladi. Umumiy mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarish darajasi ancha yuqori. Mashinasozlikda 2000 atrofida firmalar ishlaydi, oz qismi chet el namunalari asosida ixtisoslashgan. Stanoksozlikda tokarlik, shlifovka qiluvchi, frezer, shuningdek sonli boshqaruv dasturi bo'lgan stanoklar ishlab chiqariladi. Zamonaviy stanoklarni Xvanchxon Mashineri Uorks Kompani, Xende Motor Kompani, Xevi Indastriz Kompani ishlab chiqaradi.

Elektron sanoati eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlaridandir. Agar 60-yillarda oddiy tranzistorli radiopriyomnik yig'ilgan bo'lsa, hozirga kelib sonli televizorlar, videotekslar, suyuqkristalli ekrani bo'lgan televizorlar, proeksion televizorlar, vidiokameralar, telekommunikatsion asbob-uskunalar, vidiomagnitafonlar, kopiroval apparatlar, fakslar, kalkulyatorlar, personal kompyuterlar, xullas zamonaviy elektronikaning barcha mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Hozir Koreya Respublikasi jahondagi 5ta eng yirik elektronika mahsulotlari yetkazib beruvchi mamlakatlar safiga kirdi. Bu tarmoqning mahsulotlari eksportda yildan yilga ortib bormoqda. Televizor va vidiomagnitafonlar ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Koreya Respublikasi jahonda 2-o'ringa chiqib oldi.

Тузилмавий-мантикий чизма «Погона»




Тузилмавий-мантикий чизма «Погона»ни қуриш қоидалари

1. «Погона»ни тузиш жараёнида тизимли схеманинг таркибий қисми ва элементларини силжитиш мумкин – бу у ёки бу ҳолатни қайта фикрлаш имконини беради.
2. Агарда сиз ғояларни ишлаб чиқишда тор йўлакка кириб қолсангиз, у ҳолда бир-икки даража юқорига қайтинг ва муҳим нарсани унутмаганингизга ҳамда бошқача нимадир қилиш мумкин эканлигини қўриб чиқингиз.
3. Сиз чандан ўнгга ёнишга ўргангансиз. «Каскад» қуришни ўнгдан чапга қараб тузишга ҳаракат қилинг. Бунинг учун асосий ғояни чап тарафда эмас, балки ўнг тарафда жойлаштиринг.

Elektron sanoatida 1000 dan ortiq firmalar ishlab turibdi, lekin elektron gigantlari "Samsung", "LG" oldinda bormoqda. Elektron sanoat albatta yuqori malakali injenerlar, konstruktorlar, yuqori malakali ishchilar bilan uzviy bog'langan, shuning uchun ko'proq katta shaharlarda joylashgan (Seul, Pusan va h.k.).

Корея og'ir sanoati «Pog'ona» tarkibiy- mantiqiy sxema

11-shakl



Avtomobilsozlik mamlakatning xalkaro mehnat taqsimotidagi rolini yaqqol ko'rsatuvchi, tez rivojlanayotgan tarmoqqa aylandi. 1986-yil Koreya Respublikasining avtomobilsozlik bo'yicha eng katta firmasi "Xende" jahonda avtomobil' parki eng katta bo'lgan AQSH ga o'zining kichik gabaritli ikki eshikli "Poni Eksel'" avtomobilini eksport qila boshladi. Bu avtomobillar nisbatan arzon, 5,5 ming. dollar turadi.

Mamlakatning ikkita avtomobil konserni GM Pusan va Punxeen shaharlarida 2ta zavodga ega. Mazkur konsern nafaqat yengil avtomobillar, balki yuk avtomobillari va avtobuslar ishlab chiqaradi.

Albatta rivojlangan davlatlar bilan avtomobilsozlikda raqobatga bardosh berish uchun koreys astokonstruktorlari tejamkor dvigatellar va avtomobillarga yuqori texnologiyali qismlar ishlab chiqishmoqda.

Ilova№4

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar: Og'ir sanoat, energiya resurslari, GES, IES, AES, YaIM, YaMM, qora metallurgiya, rangli metallurgiya, mashinasozlik, transport mashinasozligi.

Ilova№5

Seminar mashg'uloti uchun savollar:

1. Koreyaning ishlab chiqarish salohiyati qanday?
2. Koreya og'ir sanoatiga umumiy ta'rif bering.
3. Yoqilg'i sanoatining asosini nima tashkil etadi?
4. Qora va rangli metallurgiya sanoatining rivojlangan markazlarini ayting.
5. Mashinasozlikni yetakchi tarmoqlari qaysilar?

Ilova№6

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Страны мира» Энциклопедический справочник Смоленск «Русич» 2001г.
2. «Экономическая география зарубежных стран» под.ред. С.Н.Ледовских и М.С.Розина М. «Высшая школа» 1982г.
3. В.П. Максаковский «Экономическая и социальная география мира» М.1995г.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI .,2010
5. Г.Д.Толорая «Республика Корея», 1991 стр.8-14

12-mavzu: Koreya yengil sanoati.

Darsning texnologik kartasi

12- MAVZU	Koreya yengil sanoati
----------------------	------------------------------

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni:15-20 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Seminar
Seminarmashg'ulotining rejasi	• Koreyada yengil sanoat tarmoqlari • To'qimachilik sanoati • Oziq-ovqat sanoati • Kimyo sanoati
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> 1Koreyada yengil sanoat tarmoqlari haqida bilimlar berish 2.Koreya yengil sanoat tarmoqlari bo'yicha dunyoda tutgan o'rni haqida bilim ko'nikmalari hosil qilish.	

<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba:
- Koreyada yengil sanoat tarmoqlari to'g'risida ma'lumot beradi - To'qimachilik sanoatini tavsiflaydi - Oziq-ovqat sanoatini izohlaydi - Kimyo sanoati to'g'risida tushuncha beradi	- Xitoyda yengil sanoat tarmoqlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi - To'qimachilik sanoatini tavsiflay oladi - Oziq-ovqat sanoatini izohiga ega bo'ladi - Kimyo sanoati to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi
O'qitish usuli va texnikasi	Blis-so'rov, klaster, aqlni peshlash
O'qitish vositalari	Dars yetakchisi, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va yakkalikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Auditoriya

12-MAShG'ULOT	MA'RUZA DARSINING TEXNOLOGIK KARTASI	
Bosqichlar va unga ajratilgan vaqt	Faoliyat mazmuni	
1- bosqich. Kirish qismi (10 daqiqa).	O'qituvchi	Talaba
	1.1. Talabalar davomatni tekshiradi. 1.2. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.2. Eshitadi, yozib oladi.
2- bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa).	2.1 Koreyada yengil sanoat to'g'risida blis so'rov o'tkazadi Yengil sanoat deganda nimani tushinasiz? Yengil sanoat tarmoqlariga nimalar kiradi? Yengil sanoat tarmoqlarining mamlakat iqtisodidagi ulushi qanday? (Ilova№1) 2.2.To'qimachilik sanoati muhokamasini tashkil etadi (Ilova№2) 2.3.Oziq-ovqat sanoati izohini so'raydi(Ilova№3) 2.4.Kimyo sanoatini aniqlashtiradi(Ilova№4)	2.1. Eshitadi. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Muhokamada ishtirok etib,to'g'ri javoblarni beradi 2.3.Izohlaydi, savollar berib, tegishli ma'lumotlarni yozib oladi. 2.4. .Savollar berib aniqlashtiradi, tegishli ma'lumotlarni yozib oladi.
3- bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa).	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi(Ilova№5) 3.3. Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralarni eshittiradi(iloa№6), shuningdek mavzuga doir adabiyotlar ro'yhati beriladi .(Ilova№7)	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.3. Topshiriqni yozib oladi.

Darsda qo'llaniladigan uslublar: a) klaster;

b) insert;

Mavzu bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan asosiy tushunchalar

Ilova№1

Yengil sanoat.

Koreya Respublikasi sintetik tola ishlab chiqarishda yetakchilardan biri hisoblanadi. Sintetik tola ishlab chiqarish bo'yicha umumiy soni 20 ming kishiga teng bo'lgan 12 ta

kompaniya shug'ullanadi. Rezinatexnika sanoati rivojlangan, asosan avtomoshinalar ishlab chiqiladi. Mamlakat dunyoda avtomobillar ishlab chiqarish bo'yicha 14- o'rinni egallaydi. 53% yengil mashinalar uchun pokrishkalar yetkazib beradi.

Juda qadim zamonlardan buyon Koreyada did bilan ishlangan kiramika yetkizilar edi. Aholining daromadlari oshishi va uy-joy kurilishining katta hajmi turli keramika mahsulotlari, masalan, turli plitkalar, santexnika ishlab chiqarishni kengayishiga imkon berdi. Hozir Koreya Respublikasida 80ta keramika ishlab chiqaruvchi korxonalar bo'lib, ularning 41tasi kafel plitkalar, 26 tasi idish -tovoq, 12 tasi yengil mahsulotlar va 5 tasida santexnika mahsulotlari ishlab chiqariladi. Mamlakatdagi tayyorlangan chinni idishning 68% hozir chet elga sotilmoqda.

To'qimachilik

Ilova№2

To'qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rinni egallaydi. Koreya eksportining 1/5 qismini to'qimachilik mahsulotlari egallaydi. Koreya paxtani AQSh dan, kimyoviy tolalarni Yaponiyadan, junni esa Avstraliyadan sotib oladi. Mahsulotlar jahon bozorida katta obro'ga ega, chunki sifati va rangi juda chiroyli, narxi esa nisbatan arzon.


Tikuvchilik sanoati. Ko'p amerikaliklar, yaponlar va yevropaliklar Koreya Respublikasida tikilgan yoki ularning gazlamalaridan boshqa yerda tikilgan kiyim-kechaklarni yoqtirishadi. Tikuvchilik sanoatida salkam 400 ming kishi band.

Boshqa sanoat tarmoqlari. Bularga qurilish materiallari ishlab chiqarish (sement 15% eksport qilinadi), poyafzal (sport poyafzallari ishlab chiqarish bo'yicha 2-o'rinni egallaydi) sanoati, rezina sanoati, oziq-ovqat, ayniqsa qand sanoati (koreyslar pivoni yaxshi ko'rishadi, uzum vinosi ishlab chiqarish, g'arb retsepti bo'yicha turli xil o'tkir ichimliklar ishlab chikarishadi), qog'oz mahsulotlari tayyorlash, parfyumeriya sanoati, oziq-ovqat konsentratlari, ko'pgina kompaniyalar qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishadi. ("Samyan", Cheil Shuga, "Lotte", "Mivon" va boshqalar) baliq va dengiz jonivorlaridan turli xil mahsulotlar ("Samxo mul-san", "Tarim", "Nambyan" va boshqa firmalar) ishlab chiqaruvchi va boshqa ko'plab tarmoqlar kiradi.

Ilova№3

Oziq - ovqat sanoati.

Oziq-ovqat, ayniqsa qand sanoati (koreyslar pivoni yaxshi ko'rishadi, uzum vinosi ishlab chiqarish, g'arb retsepti bo'yicha turli xil o'tkir ichimliklar ishlab chikarishadi), qog'oz mahsulotlari tayyorlash, parfyumeriya sanoati, oziq-ovqat konsentratlari, ko'pgina kompaniyalar qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishadi. ("Samyan", Cheil Shuga, "Lotte", "Mivon" va boshqalar) baliq va dengiz jonivorlaridan turli xil mahsulotlar ("Samxo mul-san", "Tarim", "Nambyan" va boshqa firmalar) ishlab chiqaruvchi va boshqa ko'plab tarmoqlar kiradi.



Ilava №4

Kimyo sanoati:

Tarmoqni xom ashyo bazasi yirik tog' - kimyo sanoati bilan ta'minlangan. (Osh tuzi, fosforit, pirit) Neftkimyo o'smoqda.

Kimyo sanoatini tez o'sishiga qaramasdan u mamlakatni to'liq ehtiyojini qondira olmaydi. Mamlakatda polimer materiallari, mineral o'g'itlar (ehhtiyojini 1/3) o'simliklarni himoya vositalarini importi katta.


Mineral o'g'itlar ishlab chiqarishda Koreya dunyoda birinchi o'rinni egallaydi (32,5 mln tonna. 2002 yil). 4/5 qismi azot o'g'itlar, 1/5 qismi fosfat o'g'itlar, kaliy o'g'itlari 1% dan kam. Azot o'g'itlari ishlab chiqarishini asosiy qismi dehqonchilik uездlarida to'plangan.

Koreya dunyoda oltingugurt kislotasi va kalsiy karbid ishlab chiqarishda yetakchi o'rinni egallaydi.

Polimer materiallari sanoati Koreya uchun nisbatan yangi tarmoq. Polimer plastmassalar va sintetik tola ishlab chiqarish yuqori darajada. Plastmassa va sintetik smola ishlab chiqarish faqat 50-yillardan rivojlandi. (5 mln. tonna - dunyoda to'rtinchi o'rinda) Plastmassa sanoati neft kimyo kombinatlari yaqinida joylashgan. Kimyoviy tola ishlab chiqarish (6 mln. tonna. dunyoda 1 - o'rinda) alohida ahamiyatga ega. Mamlakatni yirik masshtabdagi to'qimachilik sanoatini xom ashyo bilan ta'minlaydi.

Koreya dunyoda sintetik (dunyoda 6 - o'rinda) va tabiiy kauchuk ishlab chiqarishda yirik davlatlardan biri. Shunga qaramay import tabiiy kauchuk mamlakatda olinadigan kauchukdan ancha ko'p.

Koreyada to'qimachilik va yengil sanoatni boshqa tarmoqlari uchun sintetik bo'yoqlar ishlab chiqarish ajralib turadi.

**Ilova№5****Auditoriya mashg'ulotlarida talaba bilimini baholash mezonlari**

2 balidan

2,0 – 1,7 = “5”

1,6 – 1,4 = “4”

1,3 – 1,1 = “3”

1 dan past = “2”

Ilova№6

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar: Yengil sanoat, to'qimachilik, tikuvchilik, keramika buyumlar, gilamdo'zlik, teri-poyafzal, oziq-ovqat sanoati, kimyoviy o'g'itlar, kauchuk, sintetik tola, neftkimyo.

Ilova№7**Adabiyotlar ro'yhati:**

1. Soliyev A., Muhammadaliev R.. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. –T., 2005.
2. Страны и народы. Восточная и центральная Азия. – М.: Мысль 1982.
3. Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред. В. В. Вольского – М.: Крон-пресс, 2003.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI .,2010

13-mavzu: Koreya qishloq xo'jaligi
Darsning texnologik kartasi

13- MAVZU	Koreya qishloq xo'jaligi
----------------------	---------------------------------

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 15-20 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	- Koreyada o'tkazilgan islohatlar natijalari - Dehqonchilik va uning yetakchi tarmoqlari - Baliqchilik tarmog'i
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> 1. Koreyada qishloq xo'jalik tarmoqlari haqida bilimlar berish 2. Koreya qishloq xo'jalik tarmoqlari bo'yicha dunyoda tutgan o'rni haqida bilim ko'nikmalari hosil qilish. qishloq xo'jalik	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Koreyada o'tkazilgan islohatlar to'g'risida ma'lumot beradi - Dehqonchilik tarmog'ini tavsiflaydi - Baliqchilik tarmog'ini izohlaydi	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Koreyada o'tkazilgan islohatlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi - Dehqonchilik tarmog'ini tavsiflay oladi - Baliqchilik tarmog'ini izohiga ega bo'ladi
O'qitish usuli va texnikasi	Blis-so'rov, klaster, aqlni peshlash
O'qitish vositalari	Dars yetakchisi, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va yakkalikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Auditoriya

13- MASHG'ULOT	MA'RUZA DARSINING TEXNOLOGIK KARTASI	
Bosqichlar va unga ajratilgan vaqt	Faoliyat mazmuni	
1- bosqich. Kirish qismi (10 daqiqa).	O'qituvchi	Talaba
	1.1. Talabalar davomatni tekshiradi. 1.2. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.2. Eshitadi, yozib oladi.
2- bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa).	2.1 Koreyadagi agrar islohatlar va uning natijalarini bayon qiladi (Ilova №1) 2.2. Dehqonchilik tarmog'i to'g'risida blis so'rov o'tkazadi Dehqonchilik deganda nimani tushinasiz? Donli ekinlarga nimalar kiradi? Texnika ekini deb nimaga aytiladi? Moyli ekinlarga qaysi ekinlar kiradi? (Ilova №2) 2.3. Baliqchilik tarmog'ini muhokamasini tashkil etadi (Ilova №3)	2.1. Eshitadi. Savollar berib aniqlashtiradi 2.2. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi.
	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi.	2.3. Muhokamada ishtirok etib, to'g'ri javoblarni beradi 3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.

3- bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa).	3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni ragʻbatlantiradi 3.3. Mavzu boʻyicha tayanch soʻz va iboralarni (ilova№4), shuningdek seminar mashgʻuloti savollarini eshittiradi (ilova№5) mavzuga doir adabiyotlar roʻyhati beriladi .(Ilova№6)	3.3. Topshiriqni yozib oladi.
--	---	-------------------------------

Darsda qoʻllaniladigan uslublar: a)” Nima uchun? “sxemasi;

b) insert;

**Mavzu boʻyicha oʻzlashtirilishi zarur boʻlgan
asosiy tushunchalar**

Ilova№1

Qishloq xoʻjaligi.

1962-yil iqtisodiy rivojlanishning birinchi rejasi qabul qilingandan 15yil oʻtib, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarish hajmi ikki martaga oshdi. Biroq asosiy masala mamlakatni sholiga boʻlgan ehtiyojini toʻliq taʼminlashga erishishdan iborat edi. Koreyslarning asosiy ozuqa mahsuloti boʻlgan sholi bilan oʻzini taʼminlay olish darajasiga yetdi.

Qishloq xoʻjaligi rivojlanishini koʻtarish asosan cheklangan ishlov beriladigan yerlar maydonida hosidorlikni oshirishga yoʻnaltirilgan. Sholi va boshqa qishloq xoʻjaligi ekinlarini yangi, yuqori hosildor navlari ekila boshladi. Fermer xoʻjaliklarini oʻsayotgan talabini qondirish uchun oʻgʻit va pestitsidlar ishlab chiqarish kengaytirildi.

Janubiy koreyada qishloq xoʻjaligiga yaroqli yerlar hududini $\frac{1}{4}$ qismini tashkil etadi. Ishlov beriladigan yerlarning asosiy qismi gʻarbiy va janubiy sohilboʻyi tekisliklarida joylashgan. Haydaladigan yerlarda mart oyi boshida sugʻoriladigan sholi dalalariga suv quyunguna qadar arpa, bugʻdoy va baʼzi sabzavotlar yetishtiriladi.

Ilova№2

Dehqonchilik.

Sugʻorilmaydigan dehqonchilik katta ahamiyatga ega: lalmi yerlar maydonining $\frac{2}{3}$ qismida bir yilda ikki marta hosol olinadi. Birinchi navbatda arpa va kam holda bugʻdoy ekiladi. Arpa mamlakatning donli ekinlari ichida ikkinchi oʻrinni egallaydi, asosan janubiy provinsiyalarda yetishtiriladi. Donli ekinlar oʻrimidan soʻng lalmi yerlarga sholi, makkajoʻhori, tariq, dukkaklilar ekiladi. Lalmi yerlarning katta qismi dukkaklilarga ajratilgan, asosan hamma joyda keng tarqalgan soya ekiladi. Donli ekinlar yalpi hosilining taxminan $\frac{3}{4}$ qismi sholiga va $\frac{1}{5}$ qismi arpagaga toʻgʻri keladi.

Koreya janubida qadimdan koʻpgina texnika ekinlari yetishtiriladi: paxta, tamaki, kanob, rami va boshqalar.

Mamlakatda ishlab chiqaruvchilarga yuqori daromad keltiruvchi tarmoqlar - mevalar, sabzavotlar va boshqa ekinlarni yetishtirish tez oʻsdi. Goʻsht-sut sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish oshdi. 1980-yillarda keng tarqalgan vinilli issiqxonalaridan foydalanish oʻrta daromadli fermerlarni ishchi oilalarni oʻrtacha yillik daromadiga tenglashishiga yordam berdi hamda sabzavotlar hosilini oshishiga imkon berdi. Sanoatlashish yoʻlida qishloqlarda yashovchilar soni shubhasiz qisqardi. Qishloq aholisining xissasi keskin kamaydi. Qishloq tumanlarida ishchi kuchi yetishmasligi muammosini hal qilish yoʻlida fermer xoʻjaliklarini mexanizatsiyalash uchun katta yordam berish choralari koʻrildi. Mexanizatsiyani qoʻllash sholi ekish va yegʻish bilan bogʻliq fermerlar mehnatini yengillashtirdi.

1970-yillar boshida mamlakatda Koreya hududining 66%ni egallovchi oʻrmonlarni tiklash harakatlari boshlandi. Har yili mamlakatda daraxtlar ekish, yosh nihollar va koʻp yillik daraxtlarni asrashda faol ishlar olib borildi, bir vaqtini oʻzida ancha mahsuldor va hashoratlar hamda kasalliklarga bardoshli daraxtlarni yangi navlarini topishmoqda.


Mamlakatda yosh daraxtlar va oʻrmon resurslarini saqlash uchun oʻrmonlarni kesishga qarshi qattiq nazorat oʻrnatilgan. Bir necha yildirki taxta ishlab chiqarish koʻpaymayapti. Taxtaga boʻlgan ehtiyojini asosan import hisobiga qondirmoqda. Barcha bu

tadbirlar ma'lum darajada tuproqlar eroziyasini oldini olishga imkon berdi, shuningdek daryolar toshqinini oldini oladi.

Ilava №3

Baliqchilik.

Baliqchilik sanoati Koreyada rivojlangan va u valyuta tushumlarining muhim manbasiga aylangan. Ochiq dengizlar va sohilbo'yi suvlaridan baliq ovlash zamonaviy motorli qayiq-larni ishlab chiqishgandan so'ng doimo ortib bordi. Koreya baliqchilik bazasi G'arbiy Samoa va Las-Palmasda ochilgan.




«Нима учун?» чизмасини тузиш қондалари

1. Айлана ёки тўғри тўртбурчак шакллардан фойдаланишни ўзингиз танлайсиз.
2. Чизманинг кўринишини - мулоҳазалар занжирини тўғри чизиқлими, тўғри чизиқли эмаслигини ўзингиз танлайсиз.
3. Йўналиш кўрсаткичлари сизнинг қидирувларингизни: дастлабки ҳолатдан изланишгача бўлган йўналишингизни белгилайди.

**Koreya dehqonchiligi
“Nima uchun?” sxemasi**

14-shakl



Ilova№4

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar: qishloq xo'jaligi, donli ekin , texnika ekii, miiyly ekin, batat, raps, soya , ekstensiv, intensiv, ipakchilik.

Ilova№5

Seminar mashg'uloti uchun savollar:

1. Qishloq xo'jaligining qanday tarmoqlari mavjud?
2. Dehqonchilik deganda nimani tushinasiz?
3. Dehqonchilik tarmog'iga qanday tarmoqlar kiardi?
4. Koreya oziq-ovqat rasionining asosini nima tashkil etadi?
5. Mamlakat o'zini-o'zi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlay oladimi?
6. Baliqchilik qishloq xo'jaligi tarmoqlari ichida qanday ahamiyatga ega?

Ilova№6

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Soliyev A., Muhammadaliev R.. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. –T., 2005.
2. Страны и народы. Восточная и центральная Азия. – М.: Мысль 1982.
3. Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред. В. В. Вольского – М.: Крон-пресс, 2003.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI .,2010

14-mavzu: Koreya qishloq xo'jaligi tarmoqlari

Darsning texnologik kartasi

14- MAVZU	Koreya qishloq xo'jaligi tarmoqlari
----------------------	--

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni:15-20 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Seminar

Seminar rmarshg'ulotining rejasi	- Koreyada o'tkazilgan islohatlar natijalari - Dehqonchilik va uning yetakchi tarmoqlari - Baliqchilik tarmog'i
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> 1.Koreyada qishloq xo'jalik tarmoqlari haqida bilimlar berish 2. Koreya qishloq xo'jalik tarmoqlari bo'yicha dunyoda tutgan o'rni haqida bilim ko'nikmalari hosil qilish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Koreyada o'tkazilgan islohatlar to'g'risida ma'lumot beradi - Dehqonchilik va unig yetakchi tarmoqlariini tavsiflaydi - Baliqchilik va uning yetakchi tarmoqlariiin izohlaydi	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Koreyada o'tkazilgan islohatlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi - Dehqonchilik tarmog'ini tavsiflay oladi - Baliqchilik tarmog'ini izohiga ega bo'ladi
O'qitish usuli va texnikasi	Blis-so'rov, klaster, aqlni peshlash
O'qitish vositalari	Dars yetakchisi, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va yakkalikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Auditoriya

14- MASHG'ULOT	MA'RUZA DARSINING TEXNOLOGIK KARTASI	
Bosqichlar va unga ajratilgan vaqt	Faoliyat mazmuni	
1- bosqich. Kirish qismi (10 daqiqa).	O'qituvchi	Talaba
	1.1. Talabalar davomatni tekshiradi. 1.2. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.2. Eshitadi, yozib oladi.
2- bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa).	2.1. Koreyadagi agrar islohatlar va uning natijalarini bayonini so'raydi(Ilova№1) 2.2.Dehqonchilik tarmog'i to'g'risida blis so'rov o'tkazadi Dehqonchilik deganda nimani tushinasiz? Donli ekinlarga nimalar kiradi? Texnika ekinlarga deb nimaga aytiladi? Moyli ekinlarga qaysi ekinlar kiradi? (Ilova№2) 2.3.Baliqachilik tarmog'ini muhokamasini tashkil etadi (Ilova№3)	2.1.Javob beradi. Savollar berib aniqlashtiradi 2.2. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.3. Muhokamada ishtirok etib,to'g'ri javoblarni beradi
3- bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa).	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi(Ilova№4) 3.3. Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralarni eshittiradi (ilova№5), shuningdek mavzuga doir adabiyotlar ro'yhati beriladi .(Ilova№6)	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.3. Topshiriqni yozib oladi.

Darsda qo'llaniladigan uslublar: a) klaster;

b) insert;

**Mavzu bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan
asosiy tushunchalar**

Ilova №1

1962-yil iqtisodiy rivojlanishning birinchi rejasi qabul qilingandan 15yil o'tib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi ikki martaga oshdi. Biroq asosiy masala mamlakatni sholiga bo'lgan ehtiyojini to'liq ta'minlashga erishishdan iborat edi. Koreyslarning asosiy ozuqa mahsuloti bo'lgan sholi bilan o'zini ta'minlay olish darajasiga yetdi.

Qishloq xo'jaligi rivojlanishini ko'tarish asosan cheklangan ishlov beriladigan yerlar maydonida hosidorlikni oshirishga yo'naltirilgan. Sholi va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini yangi, yuqori hosildor navlari ekila boshladi. Fermer xo'jaliklarini o'sayotgan talabini qondirish uchun o'g'it va pestitsidlar ishlab chiqarish kengaytirildi.

Janubiy koreyada qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar hududini $\frac{1}{4}$ qismini tashkil etadi. Ishlov beriladigan yerlarning asosiy qismi g'arbiy va janubiy sohilbo'yi tekisliklarida joylashgan. Haydaladigan yerlarda mart oyi boshida sug'oriladigan sholi dalalariga suv quygunga qadar arpa, bug'doy va ba'zi sabzavotlar yetishtiriladi.

Ilova №2

Dehqonchilik.

Sug'orilmaydigan dehqonchilik katta ahamiyatga ega: lalmi yerlar maydonining $\frac{2}{3}$ qismida bir yilda ikki marta hosol olinadi. Birinchi navbatda arpa va kam holda bug'doy ekiladi. Arpa mamlakatning donli ekinlari ichida ikkinchi o'rinni egallaydi, asosan janubiy provinsiyalarda yetishtiriladi. Donli ekinlar o'rimidan so'ng lalmi yerlarga sholi, makkajo'kori, tariq, dukkaklilar ekiladi. Lalmi yerlarning katta qismi dukkaklilarga ajratilgan, asosan hamma joyda keng tarqalgan soya ekiladi. Donli ekinlar yalpi hosilining taxminan $\frac{3}{4}$ qismi sholiga va $\frac{1}{5}$ qismi arpaga to'g'ri keladi.

Koreya janubida qadimdan ko'pgina texnika ekinlari yetishtiriladi: paxta, tamaki, kanob, rami va boshqalar.

Mamlakatda ishlab chiqaruvchilarga yuqori daromad keltiruvchi tarmoqlar - mevalar, sabzavotlar va boshqa ekinlarni yetishtirish tez o'sdi. Go'sht-sut sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish oshdi. 1980-yillarda keng tarqalgan vinilli issiqxonalardan foydalanish o'rta daromadli fermerlarni ishchi oilalarni o'rtacha yillik daromadiga tenglashishiga yordam berdi hamda sabzavotlar hosilini oshishiga imkon berdi. Sanoatlashish yo'lida qishloqlarda yashovchilar soni shubhasiz qisqardi. Qishloq aholisining xissasi keskin kamaydi. Qishloq tumanlarida ishchi kuchi yetishmasligi muammosini hal qilish yo'lida fermer xo'jaliklarini mexanizatsiyalash uchun katta yordam berish choralari ko'rildi. Mexanizatsiyani qo'llash sholi ekish va yeg'ish bilan bog'liq fermerlar mehnatini yengillashtirdi.

1970-yillar boshida mamlakatda Koreya hududining 66%ni egallovchi o'rmonlarni tiklash harakatlari boshlandi. Har yili mamlakatda daraxtlar ekish, yosh nihollar va ko'p yillik daraxtlarni asrashda faol ishlar olib borildi, bir vaqtni o'zida ancha mahsuldor va hashoratlar hamda kasalliklarga bardoshli daraxtlarni yangi navlarini topishmoqda.

Mamlakatda yosh daraxtlar va o'rmon resurslarini saqlash uchun o'rmonlarni kesishga qarshi qattiq nazorat o'rnatilgan. Bir necha yildirki taxta ishlab chiqarish ko'paymayapti. Taxtaga bo'lgan ehtiyojini asosan import hisobiga qondirmoqda. Barcha bu tadbirlar ma'lum darajada tuproqlar eroziyasini oldini olishga imkon berdi, shuningdek daryolar toshqinini oldini oladi.

Ilova №3


Baliqchilik.

Baliqchilik sanoati Koreyada rivojlangan va u valyuta tushumlarining muhim manbasiga aylangan. Ochiq dengizlar va sohilbo'yi suvlaridan baliq ovlash zamonaviy motorli qayiq-larni ishlab chiqishgandan so'ng doimo ortib bordi. Koreya baliqchilik bazasi G'arbiy Samoa va Las-Palmasda ochilgan.

Baliqchilik sanoati yettita dengizda 1970-yillarning oʻrtalarida oʻzining yuqori choʻqqisiga chiqdi, keyin esa yoqilgʻi bahosining oshishi natijasida va koʻpchilik mamlakatlarda 200milli masofadagi sohilboʻyini iqtisodiy mintaqada deb eʼlon qilgandan soʻng keskin tushib ketdi. Koreya qoʻshni mamlakatlarning iqtisodiy mintaqasida baliq ovlash huquqiga ega boʻlishi uchun kelishuvni imzolagan

Koreya dehqonchiligi

Klaster



Ilova №4

Auditoriya mashgʻulotlarida talaba bilimini baholash mezonlari

2 balidan

2,0 – 1,7 = “5”

1,6 – 1,4 = “4”

1,3 – 1,1 = “3”

1 dan past = “2”

Ilova №5

Mavzu boʻyicha tayanch soʻz va iboralar: qishloq xoʻjaligi, donli ekin, texnika ekii, mitsyli ekin, batat, raps, soya, sinke, chorvachilik, ekstensiv, intensiv, ipakchilik

Ilova №6

Adabiyotlar roʻyhati.

1. Soliyev A., Muhammadaliev R.. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. –T., 2005.
2. Страны и народы. Восточная и центральная Азия. – М.: Мысль 1982..
3. Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред. В. В. Вольского – М.: Крон-пресс, 2003.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHi .,2010

15-mavzu: Koreyaning maʼmuriy-hududiy boʻlinishi

Darsning texnologik kartasi

15- MAVZU	Koreyaning maʼmuriy-hududiy boʻlinishi
--------------	--

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni:15-20 nafar
Oʻquv mashgʻulotining shakli	Maʼruza

Seminar rmashg'ulotining rejasi	• Shimoliy Koreyaning ma'muriy-hududiy bo'linishi • Janubiy Koreyaning ma'muriy-hududiy bo'linishi • Koreyaning an'anaviy bo'linishi
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> 1Shimoliy va Janubiy Koreyaning ma'muriy-hududiy bo'linishi haqida bilimlar berish 2. Koreyaning an'anaviy bo'linishi haqida bilim ko'nikmalari hosil qilish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • Shimoliy Koreyaning ma'muriy-hududiy bo'linishi to'g'risida ma'lumot beradi • Janubiy Koreyaning ma'muriy-hududiy bo'linishini tavsiflaydi • Koreyaning an'anaviy bo'linishini izohlaydi	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: • Shimoliy Koreyaning ma'muriy-hududiy bo'linishi to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi • Janubiy Koreyaning ma'muriy-hududiy bo'linishini tavsiflay oladi • Koreyaning an'anaviy bo'linishini izohiga ega bo'ladi
O'qitish usuli va texnikasi	Blis-so'rov, klaster, aqlni peshlash
O'qitish vositalari	Dars yetakchisi, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va yakkalikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Auditoriya

15- MASHG'ULOT	MA'RUZA DARSINING TEXNOLOGIK KARTASI	
Bosqichlar va unga ajratilgan vaqt	Faoliyat mazmuni	
1- bosqich. Kirish qismi (10 daqiqa).	O'qituvchi 1.1. Talabalar davomatni tekshiradi. 1.2.Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	Talaba 1.2. Eshitadi, yozib oladi.
2- bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa).	2.1. Shimoliy Koreyaning ma'muriy-hududiy bo'linishini bayon qiladi(Ilova№1) 2.2. Janubiy Koreyaning ma'muriy-hududiy bo'linishiga tavsif beradi (Ilova№2) 2.3. Koreyaning an'anaviy bo'linishi muhokamasini tashkil etadi (Ilova№3)	2.1. Savollar berib aniqlashtiradi 2.2 Navbat bilan provinsiyalarni tavsiflay oladi 2.3.Muhokamada ishtirok etib,to'g'ri javoblarni beradi
3- bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa).	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi 3.3. Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralarni (Ilova№4), shuningdek seminar mashg'uloti savollarini eshittiradi (Ilova№5) mavzuga doir adabiyotlar ro'yhati beriladi (Ilova№6)	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.3. Topshiriqni yozib oladi.

Darsda qo'llaniladigan uslublar: a)pog'ona sxemasi;

b) insert;

Mavzu bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan asosiy tushunchalar

Ilava №1

Ma'muriy-hududiy bo'linishi. Shimoliy Koreya ma'muriy jihatdan markaziy, provinsiya (markazga buysunuvchi shaharlar), shaharlar (rayonlar), uездlar (uezd markazlari, kvartallar, ishchi posyolkalari) ga bo'linadi.

Respublikaning shimoliy qismida 9ta provinsiya va markazga buysunuvchi 3 ta shahar bor:

Provinsiya nomi	Ma'muriy markazi
• Janubiy Pxenyan	Pxenson shahri
• Shimoliy Pxenyan	Sinichju shahri
• Chagan	Kange shahri
• Ryangan	Xeson shahri
• Shimoliy Xamgen	Chonchjin shahri
• Janubiy Xamgen	Xamxin shahri
• Kanvon	Vonsan shahri
• Shimoliy Xvanxe	Sarivon shahri
• Janubiy Xvanxe	Xechju shahri

Markazga bo'ysunuvchi shaharlar: poytaxt Pxenyan, Keson va Namixo.

Respublikaning shimoliy qismida 6200 ta uездlar va 4000ta ri bor.



Koreya yarim orolining ma'muriy-hududiy bo'linish xaritasi.

Ilova№2

Janubiy Koreyada 9ta provinsiya bor:

Provinsiya nomi	Ma'muriy markazi
• Kengi	Suvon shahri
• Kanvon	Chxunchxon shahri
• Shmoliy Chxunchxon	Chxonchju shahri
• Janubiy Chxunchxon	Techjon shahri
• Shimoliy Cholla	Chonchju shahri
• Janubiy Cholla	Kvanchju shahri
• Shimoliy Kensan	Tegu shahri
• Janubiy Kensan	Chxanvon shahri
• Chechju	Chechju shahri

Janubiy Koreyada 50dan ortiq shaxarlar, taxminan 140 uezdlar va 1250 dan ko'p volostlar bor.

Koreyaning regional bo'linishi juda xilma-xil, uning bir qismi ko'p yoqlama topografik, boshqa qismi esa uzoq tarixiy rivojlanishi bilan tushuntiriladi. Choson qirolligi tashkil topgan dastlabki vaqtdan (1392-1910) 1896-yilgacha Koreya 8ta ma'muriy pravinsiyaga bo'lingan edi: Xamgendo, Pxenando, Xvanxedo, Kengido, Kanvondo, Chxunchxondo, Chollado va Kensondo. 1896-yilda bu 8 ta pravinsiyadan 13 ta provinsiya tashkil topdi, shundan 8tasi hozirgi vahtda Janubiy Koreyada bor. 1945-yildan so'ng Chechjuda oroli alohida provinsiya bo'ldi, Pusan, Tegu, Inchxon, Kvanchju va yaqindagina Techjon shaharlari maqom oldi, provinsiya ekvivalent maqomi bevosita markaziy hukumatga bo'ysunadi.

Janubiy Koreyaning poytaxti Seul alohida maqomga ega bo'lgan yagona shahar hisoblanadi, ma'muriy jihatdan pravinsiya maqomidan yuqori turadi. Shunday qilib, Koreya Respublikasi alohida maqomga ega bo'lgan yagona shahardan, 5ta shahar-metropoliyasidan va 9ta pravinsiyadan tashkil topgan. Pravinsiyalar 55ta shaharlar(si) va 138 ta uezdlar (kun)ga bo'lingan.

Ilova№3

Koreyani 6ta yirik an'anaviy rayonlarga ajratish mumkin: sharqda Kvanbuk va g'arbda Kvanso (hozirgi vaqtda bu Shimoliy Koreyani bir qismi); Kixo (taxminan Kengido pravinsiyasining hududi va Chxunchxondo pravinsiyasining qismi); Kvandon (Txebek tog' tizmasidan sharqda Kanvondo pravinsiyasining qismi); Xonam (Chxunchxondo va Chollado pravinsiyalari shu hududning bir qismi); Yennam (Kensando pravinsiyasini birlashtiradi). Mana shu 6 ta an'anaviy rayonlar shevalari va urf-odatları orasida farqlar juda kam.

Ilova№4

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar: an'anaviy bo'linish, ma'muriy-hududiy bo'linish, markazga bo'sunuvchi shahar


Ilova№5

Seminar mashg'uloti uchun savollar:

1. Koreya mmetrosining transport yo'llari tarmog'ida tutgan o'rni qanday?
2. Temir yo'llarinig umumiy uzunligi qancha?
3. Ichki yuk tashishda temir yo'llar nechanchi o'rinni egallaydi?
4. Tezyurar avtomagistrallarning ahamaiyatini ayting
5. Havo yo'llari tizimida qanday kompaniyalar faoliyat ko'rsatadi?
6. Koreya iqtisodiyotida dengiz transportining ahamiyati qanday?

Koreyaning ma'muriy-hududiy bo'linishi
"Pog'ona" sxemasi

17-shakl



Adabiyotlar ro'yhati.

1. Soliyev A., Muhammadaliyev R.. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. –T., 2005.
2. Страны и народы. Восточная и центральная Азия. – М.: Мысль 1982.
3. Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред. В. В. Вольского – М.: Крон-пресс, 2003.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI .,2010

**16-mavzu Koreya transporti
Darsning texnologik kartasi**

16- MAVZU	Koreya transporti
----------------------	--------------------------

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni:15-20 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Seminar
Seminar mashg'ulotining rejasi	• Koreyada transport yo'l tarmoqlari • Koreya metrosi • Temir yo'llar • Avtomobil yo'l transporti • Havo yo'llari • Suv transporti
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> 1Koreyada transport yo'l tarmoqlari haqida bilimlar berish 2. Koreya transport yo'l tarmoqlari bo'yicha dunyoda tutgan o'rni haqida bilim ko'nikmalari hosil qilish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • Koreya transport yo'l tarmoqlari to'g'risida ma'lumot beradi • Koreya metrosini izohlaydi • Temir yo'l tarmog'ini tavsiflaydi • Avtomobil yo'l transportini sharhlaydi • Havo yo'llari haqida ma'lumot beradi • Suv transporti tarmog'ini izohlaydi	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: • Koreyada transport yo'l tarmoqlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi • Koreya metrosi izohiga ega bo'ladi • Temir yo'l tarmog'ini tavsiflay oladi • Avtomobil yo'l transportini sharhlay oladi • Havo yo'llarihaqida ma'lumotga ega bo'ladi • Suv transporti tarmog'i izohiga ega bo'ladi
O'qitish usuli va texnikasi	Blis-so'rov, klaster, aqlni peshlash
O'qitish vositalari	Dars yetakchisi, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va yakkalikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Auditoriya

16- MASHG'ULOT	MA'RUZA DARSINING TEXNOLOGIK KARTASI	
Bosqichlar va unga ajratilgan vaqt	Faoliyat mazmuni	
1- bosqich.	O'qituvchi	Talaba

Kirish qismi (10 daqiqa).	1.1. Talabalar davomatni tekshiradi. 1.2. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.2. Eshitadi, yozib oladi.
2- bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa).	2.1 Koreyada transport yo'l tarmoqlari bayonini so'raydi 2.2.Koreya metrosi to'g'risida blis so'rov o'tkazadi Metro yo'llarinig umumiy uzunligi qancha? Koreyada metroning nechta linyasi bor? Birinchi metro linyasi qachon qurilgan? (Ilova№1) 2.3.Temir yo'l izohini so'raydi(Ilova№2) 2.4.Avtomobil yo'l transportini sharhini so'raydi(Ilova№3) 2.5.Koreya havo yo'llari bayonini so'raydi (Ilova№4) 2.6.Suv transporti muhokamasini tashkil etadi (Ilova№5)	2.1. Javob beradi. Savollar berib aniqlashtiradi 2.2. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.3. Temir yo'llarni izohlaydi 2.4. Avtomobil yo'l transportini sharhlaydi 2.5.Havo yo'llarini bayon qiladi 2.6. Muhokamada ishtirok etib,to'g'ri javoblarni beradi
3- bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa).	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi.(Ilova№6) 3.3. Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralarni (ilova№7), shuningdek mavzuni mustahkamlash uchun savollar beradi (Ilova№8) mavzuga doir adabiyotlar ro'yhati beriladi .(Ilova№9)	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.3. Topshiriqni yozib oladi.

**Darsda qo'llaniladigan uslublar: a) toifalash jadvali;
b) insert;**

**Mavzu bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan
asosiy tushunchalar**

Ilova№1

Transport vositalari va jihozlari miqdori, shuningdek yuk va yo'lovchilar tashish hajmi Koreyada so'ngi yillarda ko'p martaga oshdi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini jadal sur'ati bilan bog'liq.

Metro. Seul merosi bir kunda 3,7 mln. yo'lovchilarni tashib, duyoda 8-o'rinni egallaydi. Metroning to'rtta tarmog'ini umumiy uzunligi 120,7 km bo'lib, uning xissasiga shahar transportida yillik tashish hajmining taxminan 20%i to'g'ri keladi. Birinchi tarmog'ini uzunligi 7,8 km bo'lib, 1974-yil 15-avgustda ochilgan. U shaharning sharqiy va g'arbiy rayonlarini bog'lab, poytaxt markazi orqali o'tadi. Ikkinchi tarmog'ida 48 ta bekat bo'lib, umumiy uzunligi 56,9 km. U Xangan daryosini ikkala sohili bo'ylab, hamma muhim ishchi va turar joy tumanlarini bog'laydigan xalqa yo'lidir. Uchinchi va to'rtinchi tarmoqlarning uzunligi 27,7 va 28,3 km. Ular shaharning ko'pchilik turar joy tumanlarini bog'lab, o'zaro kesishadi. Uchinchi tarmog'i shaharni shimoli-sharqini janubi-g'arbi bilan bog'laydi.

Koreyada kattaligi bo'yicha 2-o'rinda turuvchi Pusan shahrida uzunligi 26,1 km 28 ta bekatdan iborat bo'lgan metroning birinchi tarmog'i shahar va shahar atrofi tumanlarini bog'laydi. Uning qurilishi 1985-yil tugatilgan.

Oddiy kunduzgi soatlarda Seulda poyezdlar orasidagi farq 5 daqiqani, Pusanda 6 daqiqani tashkil etadi. Tig'iz vaqtda oradagi farq qisqaradi.

Seul va Pusan metrosi eng zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan, bekatlarni bezashda zamonaviy dizayn va an'anaviylik uyg'unlashib ketgan. Markaziy bekatlarda suvinir do'konchalari va maxsus do'konlar ko'p.

Ilova№2

Temir yoʻl. Koreyada temir yoʻllarning umumiy uzunligi 6763 km ni tashkil etadi. Uning koʻp tarmoqlari butun mamlakatni qamrab oladi.

Oʻta tez yurar Semail ekspressi Seul va port shahar Pusan orasida bir kunda bir necha marta qatnaydi. Ular orasidagi masofa hammasi boʻlib 4 soatda bosib oʻtiladi.

Koreya milliy temir yoʻl transport tizimida xavfsizlik va qulaylikni taʼminlash uchun transport harakatining markazlashgan boshqaruv tizimidan foydalaniladi. Seul atrofidagi 6 ta tarmoqda, shuningdek Kenbu, Txebeq, Chunan tarmoqlarida harakatni boshqaradi. Umumiy uzunligi 781 km boʻlib, 138 ta bekati bor.

Koreya temir yoʻllarida yuk tashishda birinchi oʻrinni koʻmir-antrotsit va sement egallaydi, keyin neft mahsulotlari, ruda va oʻgʻitlar turadi.

Ilova№3

Tezyurar avtomagistrallar. Tezyurar avtomagistrallar Seulni provinsiya shaharlari bilan bogʻlaydi. Tezyurar yoʻl Seul-Inchxon (29,5 km) 1968-yilda qurilgan va mamlakatdagi birinchi zamonaviy avtomagistral boʻldi. 1970-yilda uzunligi 428 km boʻlgan Seul-Pusan avto yoʻli qurildi. Bu tezyurar trassa Suvon, Chxonan, Techjon, Kumi, Tegu va Kenchju kabi sanoat markazlari orqali oʻtadi. 1981-yilda ikki qatorli trassa Pusan-Masan toʻrtta qatorga kengaytirildi va Avtostrada Olimpiada 88 nomini oldi. Avtomobil yoʻllarining umumiy uzunligi 1600 km ni tashkil etadi.

Avtomobil transporti. Seulda reysli avtobus harakatining qulay tizimi faoliyat koʻrsatadi. Shaharda turli tarif toʻlovlaridagi taksini uchta turi ishlaydi: oddiy taksi, oʻrta oʻlchamdagi taksi, limuzin-taksi. Ekspress avtobuslar mamlakatning yirik shaharlari va kurortlari orasida yoʻlovchilar tashishni amalga oshiradi.

Ilova№4

Xalqaro havo yoʻllari. Xalqaro havo yoʻllari Koreya Osiyoning yirik shaharlariga yaqin joylashgan, u dunyoning boshqa mamlakatlari bilan uzluksiz havo aloqalarini qoʻllab-quvvatlaydi.

Xalqaro aviatahish tizimida Seulni qatnashishi 1988-yil Olimpiada oʻyinlarini muvaffaqiyatli oʻtkazgandan keyin ancha oʻsdi. Har hafta xalqaro aviakompaniyalar Seul va Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Yevropa, Shimoliy Afrika, Yaqin Sharqning yirik shaharlari orasida 521 ta toʻgʻridan-toʻgʻri reyslarni amalga oshiradi. Koreya 60dan ortiq mamlakat bilan havo aloqalari kelishuviga ega.

Hukumat 1969-yilda Korean Air (KAL)ni xususiylashtirganda kompaniyada hammasi boʻlib ikkita reaktiv samolyotlari bor edi. Hozirgi kunga kelib uning parkida 100dan ortiq yuk va yoʻlavchi tashuvchi samolyotlari bor. Hozirgi vaqtda KAL kompaniyasi va Asiana Airlyaz (AAR) dunyoning turli qismlari havo aloqalarining 44 ta markazga xizmat koʻrsatadi.

Soʻngi yillarda hukumat xalqaro aviareyslarga xizmat koʻrsatishni yaxshilash uchun aeroportlarni qayta jihozlashga katta mablagʻ ajratmoqda. 1980-yilda Seul aeroporti Kimpxada yana bitta xalqaro terminal qurildi, u bir yilda 4,8 mln. yoʻlovchilarga xizmat koʻrsata oladi. Olimpiada oʻyinlariga tayyorgarlik arafasida uzunligi 4000 m li uchish-qoʻnish yoʻlagi qurildi. Ayni vaqtda Kimpxo aeroporti Koreyadagi xalqaro havo portlarining kattasi hisoblanadi, u bir yilda 16,5 mln. yoʻlovchilarga xizmat koʻrsatadi va 1500000 tonna yukni oʻtkazadi.

Pusan yaqinidagi Kimxe va Chechjudo orolida Chechju – yana ikkita xalqaro aeroportlari bor. Kimpxo kabi ular ham eng soʻnggi texnika bilan jihozlangan. Zamonaviy uchish yoʻlagi Chechjudo orolida uzunligi 300 m boʻlib, ogʻir aerobuslarni qabul qila oladi va 1982-yil qurilgan. Aeroportni modernizatsiyalash orolda xalqaro turizmni rivojlantirish davlat dasturi bilan mos ravishda olib borildi.

Ichki havo yoʻllari. Ikkita kompaniya – Korean Air va Asiana Airlyazning ichki havo yoʻllari 14 ta shaharlarga xizmat koʻrsatadi: Seul, Pusan, Chechju, Tegu, Sokchxo, Kvanchju, Sachxon, Yesu, Ulsan, Mokpxo, Kunsan, Kannin, Yechxon, Pxoxan.

Ilova№5

Dengiz yo'llari. Koreya konteyner tashishi dengiz kengliklarida Shimoliy va Janubiy Amerika, Yevropa, Avstraliya, Yaqin Sharq va Afrika portlari orasida qatnaydi. Bir vaqtning o'zida xorij kemalari, yo'lovchi kemalar va yo'lovchi paromlari tez-tez Koreya portlariga kirishadi. Dengizda yuk tashish hajmini kengaytirish maqsadida 1976-yilda hukumat Koreya dengizda tashishi va portlar Boshqarmasini tuzdi. Hukumat va xususiy kompaniyalarni hamkorligi natijasida koreys flotida umumiy yuk tashish sezilarli darajada oshdi. Bunday katta hajmdagi yuklarni muvaffaqiyatli tashish uchun umumiy yuk tashish hajmi 10 mln. brutto-registr tonnali kemalarda foydalanish zarur bo'ldi. Shuning uchun Koreya kemasozlik sanoati milly savdo floti quvvatini oshirishga yordam berishi ko'zda tutilgan. Shuningdek yillik yuk ortish va tushirish ishlari hajmini oshirish tadbirlari ko'zda tutilgan.

Koreya transporti			Toifalash jadvai	
Avtomagistral yo'llari	Temir yo'llar	Metro yo'llari	Dengiz yo'llari	Havo yo'llari
1600km	6763km	120,7km		44ta markazga xizmat qiladi

Ilova№6

Auditoriya mashg'ulotlarida talaba bilimni baholash mezonlari

1 bal dan

$1.0 - 0.86 = "5"$

$0.85 - 0.71 = "4"$

$0.70 - 0.55 = "3"$

0.54 dan past "2"

Ilova№7

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar: temir yo'l, dengiz yo'li, daryo transporti, avtomobil yo'li, havo yo'li, quvur transporti

Ilova№8

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Koreya metrosining transport yo'llari tarmog'ida tutgan o'rni qanday?
2. Temir yo'llarining umumiy uzunligi qancha?
3. Ichki yuk tashishda temir yo'llar nechanchi o'rinni egallaydi?
4. Tezyurur avtomagistralarning ahamiyatini ayting
5. Havo yo'llari tizimida qanday kompaniyalar faoliyat ko'rsatadi?
6. Koreya iqtisodiyotida dengiz transportining ahamiyati qanday?

Ilova№9

Adabiyotlar ro'yhati.:

1. Soliyev A., Muhammadaliev R.. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. –T., 2005.
2. Страны и народы. Восточная и центральная Азия. – М.: Мысль 1982.
3. Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред. В. В. Вольского – М.: Крон-пресс, 2003.
4. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi TDSHI .,201

17-mavzu:Koreyaning tashqi iqtisodiy aloqalari

Darsning texnologik kartasi

17- MAVZU	Koreyaning tashqi iqtisodiy aloqalari
--------------	---------------------------------------

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni:15-20 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Seminar

Seminar rmarshg'ulotining rejasi	• Koreyaning tashqi aloqalariga umumiy ta'rif • AQSh bilan iqtisodiy aloqalari • Yaponiy bilan iqtisodiy aloqalari • Xitoy bilan iqtisodiy aloqalari
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> 1Koreya tashqi iqtisodiy aloqalarida tashqi savdoning o'rni haqida bilimlar berish 2.Koreya tashqi savdo hamkorlari va eksport hamda import haqida bilim ko'nikmalari hosil qilish	
- D) hamma javoblar to'g'ri
32. Yerning geografik qobog'i – bu...
- A) Atmosfera, troposfera, gidrosfera, biosfera
- B) Gidrosfera, ekzosfera, litosfera, biosfera
- C) Atmosferaning quyi qismi, liti=osferaning ustki qismi, butun gidrosfera va biosfera *
- D) Atmosfera, litosfera, biosferaning hamma qismi
33. Zamonaviy geografiyaning asosiy maqsadi nimadan iborat?

- A) atmosferada bo'layotgan jarayonlarni tekshirishdan iborat
 B) gidrosferada bo'layotgan jarayonlarni tekshirishdan iborat
 C) litosferada bo'layotgan jarayonlarni tekshirishdan iborat
 D) yerning geografik qobig'ida bo'layotgan jarayonlarni tekshirishdan iborat *
34. Quyidagilardan xrom rudasini qazib olish bo'yicha dunyoning peshqadam davlatini aniqlang?
 A) Eron
 B) Gruziya
 C) Turkiya *
 D) Qirg'iziston
35. Quyidagilardan sharqiy yarim sharda joylashmagan davlatini aniqlang.
 A) Senegal
 B) Mavriataniya
 C) Portugalia
 D) Tunis *
36. Lotin Amerikasining qaysi 2 davlati OPEK tashkilotiga kiradi?
 A) Venesuela, Ekvador *
 B) Venesuela, Gabon
 C) Venesuela, Meksika
 D) Meksika, Ekvador
37. Xindiston g'arb tomondan qaysi dengiz suvlari bilan, sharq tomondan qaysi qo'ltiq suvlari bilan yuvilib turadi?
 A) Qizil, Bengal
 B) Arabiston, Aben
 C) Arabiston, Bengal *
 D) Arabiston, Fors
38. Grenlandiya orolida qanday foydali qazilma topilgan?
 A) Neft *
 B) Gaz
 C) Oltin
 D) Temir rudasi
39. Qaysi oqimlar Tinch okeani oqimlariga kirmaydi?
 A) Kurosio
 B) Gvineya
 C) Madagaskar *
 D) G'arbiy shamollar
40. Yog' sanoati mavjud shaxarni toping?
 A) Kogon
 B) Termiz
 C) Jizzax
 D) Koson
41. Quyidagi mikrodavlatlarning eng kattasini ko'rsating?
 A) Lixtenshteyn
 B) Andorra *
 C) Monako
 D) San-Marino
42. Ba'zi davlatlar chuchuk suvni chetdan keltiradi (import qiladi). Quyidagilardan xatoni aniqlang?
 A) Niderlandiya Norvegiyadan
 B) Saudiya Arabistoni Filippindan
 C) Singapur Malayziyadan
 D) Finlyandiya Norvegiyadan *

43. Quyidagi ko'rsatilganlarning qaysi birida poleozoyga kiradigan davrlar noto'g'ri ko'rsatilgan?
- A) Perm
B) Toshko'mir
C) Devon
D) Yura
44. Uchqizil va Janubiy Surxon suv omborlari qaysi daryoda joylashgan?
- A) G'uzordaryo
B) Isfayramson
C) Surxondaryo
D) Qashqadaryo
45. O'zbekistondagi mis konini ko'rsating?
- A) Dalnee
B) Qo'rg'onishkon
C) Xondiza
D) Uchquloch
46. Xalqaro geografik mehnat taqsimotining shakllanish jarayoni nimaning xisobiga yakunlanadi?
- A) Savdoning kelib chiqishi
B) Transportning rivojlanishi
C) yirik mashinasozlik industriyasining rivojlanishi
D) Kapitalizmning rivojlanishi
47. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi qaysi muammo Dunyoda o'simliklar qoplamining kambag'allashuviga olib keladi?
- A) Yetarli oziqaning yo'qligi
B) suv bilan ta'minlanishning ishonchli manbai yo'qligi
C) mineral o'g'itlardan yetarli foydalanmaslik
D) isitish uchun o'tindan foydalanish *
48. Tuproq va . . . o'rtasida juda yaqin o'zaro bog'liqlik mavjud?
- A) xayvonot B) relef C) iqlim * D) o'simliklar
49. Atlantika okeanidagi orol va Amazonka daryosining irmog'i sharafiga nomlangan vino nomini belgilang?
- A) Madeyra * B) Maranon C) Mamore D) Martini
50. Jumlani yakunlang: "Rivojlanayotgan mamlakatning barcha xududida asosiy "fokus" markaz rolini . . . bajaradi.
- A) poytaxt * B) portlar C) sanoat markazi D) shahar
51. Xitoyning demografik siyosati ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining jahon bo'yicha keskin yaxshilanishiga olib kelgan bo'lsada "Dunyo aholisining har . . . chisi xitoylik" deyilgani xanuzgacha to'g'ri?
- A) 5 – chi * B) 7 – chi C) 6 – chi D) 2 – chi
52. Oldingi nomi "Fil suyagi qirg'og'i" bo'lgan Afrikadagi davlat xozirda qanday ataladi?
- A) Kot-d – Ivuar *
B) Sera – Leone
C) Zimbabwe
D) Burkina-Fason
53. Poytaxti eng janubiy bo'lgan davlatni belgilang?
- A) Gretsiya *
B) Portugaliya
C) Italiya
D) Makedoniya
54. MDX respublikalaridan qaysi birining axolisi eng kam?
- A) Armeniya
B) Moldova *

- C) Qirg'iziston
D) Turkmaniston
55. Qaysi Yevropa mamlakatning bayrog'i Xalqaro Qizil Xoj Jamiyati ramzi bilan monand, lekin ranglari tasviri teskari joylashgan?
A) Shvetsariya
B) Shvetsiya
C) Avstriya
D) Daniya
56. Mavrikiya poytaxtini toping?
A) Port-lui * B) Maseru C) Gaberone D) Maputu
57. Quyidagi orollarning qaysi biri Shimoliy Muz okeanida joylashmagan?
A) Aleut orollari *
B) Novosibirsk orollari
C) Severnaya orollari
D) Novaya Zemlya orollari
58. Avstraliya axolisi zichligining o'rtacha miqdori quyidagilarning qaysi biridan yuqori emas?
A) 10 B) 20 C) 30 D) 5 *
59. Hozirgi zamon DCXda nechta davlat va hududlar bor?
A) 230ta
B) 257ta
C) 262ta
D) 267ta *
60. Geografiyaga tegishli bo'lmagan tor sohalarni ko'rsating
A) geomorfologiya, gidrologiya, iqlimshunoslik
B) mexanika, dinamika, optika *
C) landshafshunoslik, okeonologiya, tuproqshunoslik
D) glyatsiologiya, mamlakatshunoslik

Umumiy savollar

1. Zamonaviy geografiya qanday dunyoga kelgan?
2. Zamonaviy geografiyaning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
3. Tabiiy va ijtimoiy geografiya nima bilan shug'ullanadi?
4. Geografiyadan qanday tarmoqlar ajralib chiqqan?
5. Dunyo siyosiy xaritasida II jahon urushidan keyin qanday o'zgarishlar ro'y bergan?
6. XX asrning 90-yillarida dunyo siyosiy xaritasida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
7. Mamlakatlarni qaysi jihatiga ko'ra guruhlash keng tarqalgan?
8. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'ra mamlakatlar qanday guruhlarga bo'linadi?
9. Rivojlanayotgan mamlakatlar qanday toifalarga bo'linadi?
10. Boshqaruv shakliga ko'ra mamlakatlar qanday guruhlarga bo'linadi?
11. Osiyoning geografik o'rni va relyefini ta'riflang?
12. Osiyo qanday iqlim mintaqalarida joylashgan?
13. Osiyo suv resurslari bilan qay darajada ta'minlangan?
14. Osiyoda qanday tabiat mintaqalarini kuzatish mumkin?
15. Osiyo ma'muriy-hududiy jihatdan nechiga bo'linadi?
16. Koreyaning GO'ga tabiiy, iqtisodiy va siyosiy baho bering.
17. Koreya qaysi davlatlar bilan chegaradosh?
18. Koreya yer yuzasini tuzilishini izohlab bering.
19. Koreya tabiiy resurslar bilan qay darajada ta'minlangan?
20. Koreya qanday iqlim mintaqasida joylashgan?
21. Koreyada yog'inlarning taqsimlanishi
22. Koreyaning eng yirik daryolari qaysilar?
23. Shimoliy va Janubiy Koreya axolisiga qiyosiy baxo bering.
24. Koreya aholisining diniy tarkibi qanday?
25. Koreyada aholi zich va siyrak joylashgan provinsiyalarni ayting.
26. Koreyada urbanizatsiya jarayonini izohlang.
27. Koreyaning ishlab chiqarish salohiyati qanday?
28. Koreya og'ir sanoatiga umumiy ta'rif bering.
29. Yoqilg'i sanoatining asosini nima tashkil etadi?
30. Qora va rangli metallurgiya sanoatining rivojlangan markazlarini ayting.
31. Mashinasozlikni yetakchi tarmoqlari qaysilar?
32. Qishloq xo'jaligida o'tkazilgan islohatlarning natijalari qanday yakunlandi?
33. Mamlakatda oziq-ovqat ratsionining asosini nima tashkil etadi?
34. Koreyada qanday texnika ekinlari yetishtiriladi?
35. Baliqchilikning iqtisodiyotdagi ro'li qanday?
36. Shimoliy Koreya ma'muriy-hududiy jihatdan nachaga bo'linadi?
37. Janubiy Koreya ma'muriy-hududiy jihatdan nechaga bo'linadi?
38. Koreyaning an'anaviy bo'linishini ayting.
39. Koreyada rivojlangan transport yo'llarini ayting.
40. Koreyaning tashqi iqtisodiy aloqalarida O'zbekistonning o'rni qanday?

“Geografiya” fanidan tarqatma va taqdimot materiallari
(diskda ilova qilingan)

“Geografiya” fanidan mustaqil ishni tashkil etish bo’yicha uslubiy ko’rsatma

Talabalarning mustaqil ishidan ko’zlangan maqsad:

- Fanlardan o’quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bilim va ko’nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish;
- Tegishli masalani tadqiq qilishga ilmiy –ijodiy yondashuv ko’nikmalarini hosil qilish va rivojlantirish;
- Ilmiy-ijodiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish;
- Ilmiy tadqiqot uslublari to’g’risida bilim va ko’nikmalar hosil qilish va rivojlantirish.

Talabalarning mustaqil ishinin vazifalari:

- Yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o’zlashtirish ko’nikmalariga ega bo’lish;
- Kerakli ma’lumotlarni izlab topish qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- Axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- An’anaviy o’quv va ilmiy adabiyotlar, meyoriy hujjatlar bilan ishlash;
- Elektron o’quv adabiyotlar va ma’lumotlar banki bilan ishlash;
- Internet tarmog’idan maqsadli foydalanish;
- Ma’lumotlar bazasini tahlil etish;
- Ish natijalarini ekspertizaga tayorlash va ekspert hulosasi asosida qayta ishlash;
- Mustaqil tadqiqot asosida qilingan hulosalarni mutahassis va talabalar jamoasida himoya qilish.

Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish shakllari.

“Geografiya” fanining hususiyatlariga ko’ra mustaqil ishning quyidagi shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi:

- 1) yozuvsiz xarita bilan ishlash;
 - a) geografik ob’ekt va joy nomlarini yoza olish;
 - b) atlas orqali ishlash;
 - c) shartli belgilarni o’qiy olish;
 - d) ishlangan karta mazmunini tushuntira olish;

- 2) berilgan mavzu bo’yicha referat tayorlash;

Talabalarning qobiliyati va individual hususiyatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil tadqiqot natijalari individual tartibda o’rganiladi.

Talabalarga mustaqil ishlarini olib borishda quyidagilar tavsiya etiladi:

- Berilgan mavzu bo’yicha darslik va o’quv qo’llanmalarining tegishli bo’limlarini o’rganish;
- Berilgan mavzu bo’yicha ilmiy va uslubiy adabiyotlarni o’rganish;
- Internet saytlaridan berilgan mavzu bo’yicha yangi manbalar va ma’lumotlar izlash;
- Berilgan mavzu bo’yicha bibliografiya tuzish;
- Aniqlangan adabiyotlar asosida berilgan mavzu bo’yicha tezis va konspektlar tuzish.
- To’plangan bilim va ko’nikmalar asosida seminar, oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik ko’rish;
- To’plangan bilim va ko’nikmalar asosida baxs-munozara, konferensiya va turli xil chiqishlarga tayyorgarlik ko’rish;
- Hosil bo’lgan bilim va ko’nikmalaridan bo’lg’usi ilmiy-tadqiqot faoliyatida foydalanish.

Talabalarga tavsiya etiladigan mustaqil ishlarni shakllari, ularga qo'yilgan talablar va baholash mezonlari

N	Mustaqil ish shakli	Mustaqil ishlarning tegishli shakliga qo'yilgan talablar	Baho (5 ball)	Talabaning mustaqil ishni baholash mezonlari
1	2	3	4	5
1	Yozuvsiz xarita bilan ishlash;	geografik ob'ekt va joy nomlarini yoza olish, atlas orqali ishlash, shartli belgilarni o'qiy olish, ishlangan karta mazmunini tushuntira olish	4.3-5.0 «a'lo»	-atlas orqali yozuvsiz xaritada davlat chegaralarini belgilab olganda; -davlatlarni bir-biridan rang bilan ajratib bo'yaganda; -davlat nomi va poytaxtlarini to'g'ri yozganda; -kichik davlatlarni raqam ostiga olib, berilgan raqamni shartli belgi uchun ajratilgan joyga yozib ko'rsatganda ; -okean nomlarini yozib ko'rsatganda ; -ishlangan kartani barcha birdek o'qiy oladigan darajada ishlanganda ; -karta berilgan muddat ichida ishlab topshirilganda.
			3.6-4.2 «yaxshi»	-atlas orqali yozuvsiz xaritada davlat chegaralarini belgilab olganda; -davlatlarni bir-biridan rang bilan ajratib bo'yaganda; -davlat nomi va poytaxtlarini to'g'ri yozganda; -kichik davlatlarni raqam ostiga olib, berilgan raqamni shartli belgi uchun ajratilgan joyga yozib ko'rsatganda ; -okean nomlarini yozib ko'rsatganda ; -ishlangan kartani barcha birdek o'qiy oladigan darajada ishlanganda; -karta berilgan muddatdan kech qolib topshirilganda.
			2.8-3.5 «qoniqarli»	-atlas orqali yozuvsiz xaritada davlat chegaralarini belgilab olinmasa; -davlatlarni bir-biridan rang bilan ajratib bo'yaganda; -davlat nomi va poytaxtlarini to'g'rlari to'liq yozilmasdan tushib qolganda; -kichik davlatlarni raqam ostiga olinmasa; -okean nomlarini yozilmaganda; -ishlangan kartani yozuv qoidasiga rioya qilmasdan yozganda.

“GEOGRAFIYA”FANIDAN MUSTAQIL ISH MAVZULARINING RO’YHATI

1. Dunyoning siyosiy xaritasining yozuvsiz xaritaga tushirib, davlat nomlariva poytaxtlarini yozib kelish
- 2.Mamlakatning tabiiy xaritasini chizib, joy nomlarini yozib kelish
- 3.Mamlakatning ma’muriy-hududiy xaritasini chizib, pravintsiya nomlarini va markazlarini yozib kelish
- 4.Mamlaktning iqtisodiy xaritasini ishlab, shartli belgilarini tushirib kelish

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro’yxati:

1. В. В. Вольского. Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред.– М.: Крон-пресс, 2002.
2. Географический справочник ЦРУ.-Екатеринбург,2004
3. Jumayev U. Ne’matov J. Dunyoning 36 davlati. Ma’lumotnoma. T. 2006.
4. Социально – экономическая география зарубежного мира. - Дрофа, 2001
5. Ergashev Sh va boshqalar. Jahon mamlakatlari. Qisqa ma’lumotnoma. T. 2007.
6. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 9-том. Т. 2005.
7. F.V.Azizova Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi T.2010
8. Атлас мира (XXI). Дорлинг Киндерсли. –М., 1999

Fanni o'zlashtirish bo'yicha maslahat va tavsiyalar

Aqliy hujum qoidasi

Hech qanday birgalikdagi baholash va tanqid!

Berilayotgan g'oyalar, hayoliy va juda zo'r bo'lsa ham ularni baholashga shoshilma, **hamma narsaga ruxsat etiladi.**

Tanqid qilma-barcha berilayotgan g'oyalar **qimmatli.**

Gapirayotganni bo'lma!


Tanbeh berishga shoshilma!

Aqlni peshlash uchun savollar:


- Tabiat haqidagi bilimlardan boshqa fanlar o'z negizini boshlagan degan fikrga siz qanday qaraysiz?
- Buyuk geografik kashfiyotlar qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?
- Geografiyadan qanday sohalar ajralib chiqqan?

ИНСЕРТ ЖАДВАЛИ

V	+	—	?



Тузилмавий-мантикий чизма “Погона”




Тузилмавий-мантикий чизма «Погона»ни қуриш қоидалари


1. «Погона»ни тузиш жараёнида тизимли схеманинг таркибий қисми ва элементларини сўлжитиши мумкин – бу у ёки бу ҳолатни қайта фикрлаш имконини беради.

2. Агарда сиз ғояларни ишлаб чиқишда тор йўлакка кириб қолсангиз, у ҳолда бир-икки даража юқорига қайтинг ва муҳим нарсани унутмаганингизга ҳамда бошқача нимадир қилиш мумкин эканлигини қўриб чиқингиз.

3. Сиз чандан ўнгга ёнишга ўргангансиз. «Каскад» қуришни ўнгдан чапга қараб тузишга ҳаракат қилинг. Бунинг учун асосий ғояни чап тарафда эмас, балки ўнг тарафда жойлаштиринг.


Koreya og‘ir sanoati “Pog‘ona” tarkibiy- mantiqiy sxema







♣ «Нима учун?» чизмасини тузиш қондалари


1. Айлана ёки тўғри тўртбурчак шакллардан фойдаланишни ўзингиз танлайсиз.
2. Чизманинг кўринишини - мулоҳазалар занжирини тўғри чизиқлими, тўғри чизиқли эмаслигини ўзингиз танлайсиз.
3. Йўналиш кўрсаткичлари сизнинг қидирувларингизни: дастлабки ҳолатдан изланишгача бўлган йўналишингизни белгилайди.






Koreyaning ma'muriy-hududiy bo'linishi “Piramida” sxemasi





Koreya yengil sanoat

Klaster metod



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I. A.. O'zbekiston buyuk keljak sari. –T.: O'zbekiston, 1998.
3. Алисов Н.В., Хореев Б.С. Экономическая и социальная география мира. –М.: Гардараки, 2003.
4. Алиев М. Г., Ишанходжаева Д. А., Хачиев Г. А. Экономика и финансы регионов мира в цифрах сравнения. –Т., 2003.
5. Azizova F.V. Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi. II qism.-TDSHi, 2010.
6. Вавилова Е. В. Экономическая и социальная география мира. Учебное пособие. –М., 2006.
7. Soliyev A., Muhammadaliyev R.. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. –Т., 2005.
8. Soliyev A., Ahmedov E., Muhammadaliyev R. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. –Т.: Universitet, 2003.
9. Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред В. В. Вольского – М.: Крон-пресс, 2003.
10. Социально – экономическая география зарубежного мира. - Дрофа, 2001.
11. Энциклопедический справочник Страны мыра. –Смоленск: Русич, 2002.
12. Страны и народы. Восточная и центральная Азия. –М.: Мысль 1982.
13. Ergashev Sh. va boshqalar. Jahon mamlakatlari. Qisqa ma'lumotnoma. –Т., 2007.
14. Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М.П.Ратановой. –М.: Дрофа, 2004.
15. Jumaev U. Ne'matov J. Dunyoning 36 davlati. Ma'lumotnoma. –Т., 2006.
16. Географический атлас мира. –М., 2004.
17. Географический справочник. ЦРУ. –Екатеренбург, 2004.
18. Корея Справочник Корея служба информации для зарубежных стран.
19. Лавров В. Г. Экономическая и социальная география стран зарубежного мира. –М., 2001.
20. Максаковский В.П.: Географическая картина мира. Часть 1,2. –М., Дрофа, 2003.
21. Максаковский В. П.. Экономическая и социальная география мира (1,11 части). –М., 1998.
22. Qayumov A., Nazarova X., Egamberdiyev F., Yoqubov O'. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. –Т., 2004.
23. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1-9 – том. –Т., 2005.
24. O'zR. Tashqi ishlar vazirligining ma'lumotlari.
25. Хачиев Г. А. Мировая экономика: факты и цифры, (информационно-справочное издание). –Т., 1998.

Qo'shmcha adabiyotlar.

1. Атлас мира (XXI). Дорлинг Киндерсли. –М., 1999
2. Африка и Азия. – том 1-2. –М., 1987.
3. Природные ресурсы стран Азии и Северной Африки. –М., 1995.
4. Справочник “Корея”, “Современная Турция” и пр. –М., 2000.
5. Толорая Г. Д.. Республика Корея. –М., 1991.
6. G'ulomov P. Jo'g'rofiya atamallari va tushunchalari izohli lug'ati. –Т.: O'qituvchi. 1994.

Internet saytlari

- | | |
|---|---|
| 1. www.geografiya.ru | 5. www.ziyonet.uz |
| 2. www.glossry.ru | 6. www.press-servis.uz |
| 3. www.gov.uz/ru/ctn | 7. www.5ballov.ru |
| 4. www.wikipedia.org | 8. www.twirpx.com |

Xorijiy adabiyotlar

- 1.Алисов Н.В., Хореев Б.С. Экономическая и социальная география мира. –М.: Гардараки, 2003.
- 2.Вавилова Е. В. Экономическая и социальная география мира. Учебное пособие. –М., 2006.
- 3.Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред В. В. Вольского – М.: Крон-пресс, 2003.
- 4.Социально – экономическая география зарубежного мира. –Дрофа, 2001.
- 5.Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М.П.Ратановой. –М.: Дрофа, 2004.
- 6.Географический атлас мира. –М., 2004.
- 7.Географический справочник. ЦРУ. –Екатеренбург, 2004.
- 8.Корея Справочник Кореяская служба информации для зарубежных стран.
- 9.Лавров В. Г. Экономическая и социальная география стран зарубежного мира. –М., 2001.
10. Максаковский В.П.: Географическая картина мира. Часть 1,2. –М., Дрофа, 2003.

Glossariy

Aglomeratsiya – aholi punktlarining, asosan shaharlarning bir-nirlariga qo‘shilib ketib, ulkan shahar, yagona iqtisodiy hudud hosil qilishi.

Allyuvii (lotincha alluvio yotqizi) – doimiy yoki vaqtli oqar suvlar keltirib yotqizgan tog‘ jinslari. Ko‘proq mayda tosh, shag‘al, qum va gillardan iborat bo‘ladi. Ba‘zi tekisliklar, daryolarning qayirlari va terrasalari shunday jinslardan tashkil topgan.

Alyuminiy rudalari – alyuminiy olinadigan minerallar va tog‘ jinslari. Bularga asosan boksitlar, nefelin-siyenitlar, nefelin-apatitli, alunitli jinslar kiradi.

Antratsit (yunoncha anthrakitis-ko‘mir) – juda kuchli metamorflashgan qazilma ko‘mir. Rangi qora, yaltiroq ba‘zan kulrang va sarg‘ish tusda tovlanadi. Tarkibida uglerod ko‘p(98%), 7800-8350 kaloriya issiqlik beradi. Asosan metallurgiyada ishlatiladi.

Arab sharqi – Shimoliy Afrika va Janubi-G‘arbiy Osiyodagi asosan arablar yashaydigan bir qancha mamlakatlar. Bularga Misr, Sudan, Liviya, Tunis, Jazoir, Marokash, Suriya, Livan, Iordaniya, Saudiya Arabistoni, Iroq va boshqalar kiradi.

Aralash o‘rmonlar – ignabargli va keng bargli daraxt turlari aralash o‘sadigan o‘rmonlar.

Arxipelag, to‘da orollar (italyancha arxi-dastlabki, nelago-dengiz) – bir-birlaridan unchalik uzoq bo‘lmagan va odatda bir butun deb hisoblanadigan orollar to‘dasi.

Aholi – ma‘lum hududda, mamlakatda, qit‘ada va butun Yer yuzida yashayotgan hamma odam. Aholi soni butun Yer yuzida tabiiy o‘rish hisobiga ko‘payadi.

Aholi zichligi – muayyan hududda aholining joylashuv darajasi. Mamlakat yoki biror hudud aholisi sonini shu joy maydoniga taqsimlash bilan hisoblab chiqariladi.

Aholining tabiiy o‘rishi – odatda bir yilda har 1000 kishi hisobida o‘lgan kishilarga nisbatan tug‘ilgan kishilarning ortiqchiligi. Bu ko‘rsatkich ayrim mamlakatlarni aholining tabiiy o‘rishiga qarab taqqoslashga imkon beradi. Tabiiy o‘rish butun aholiga nisbatan foiz hisobida ham aniqlanishi mumkin.

Bahorikor yerlar – sug‘orma dehqonchilik o‘lkalaridagi sug‘orilmay dehqonchilik qiladigan yerlar. Asosan tog‘ oldilarida, vohalar atroflarida bo‘lib, qurg‘oqchilikka chidamliroq ekinlar – arpa,bug‘doy, no‘xot, tariq ekiladi. Ba‘zan poliz ekinlari, xususan tarvuz ham yetishtiriladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) – mustaqil davlatlarning xalqaro tinchlikni, xavfsizlikni saqlash, davlatlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish maqsadida ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan xalqaro tashkiloti. BMT Nizomi 1945-yil 26-iyunda San-Fransisko konferensiyasida 50 davlat ishtirokida tasdiqlangan va 1945-yil 24-oktabrda kuchga kirgan. BMTning qarorgohi – Nyu-York shahri.

Boksit – qizil, jigarrang va boshqa rangli cho‘kindi tog‘ jinsi. Tarkibida glinozyom, temir oksidi bo‘ladi. Alyuminiy asosan boksitdan olinadi.

Botiq – Yer po‘stining tektonik kuchlar ta‘sirida atrofi ko‘tarilib yoki atrofga nisbatan pasayib qolgan qismi. Botiq tagi ko‘pincha yassi yoki o‘rta qismiga tomon bir oz nishab bo‘ladi. Diametri o‘nlab, yuzlab km ga yetadi.

Bo‘z tuproq – asosan lyoss, lyossimon gil jinslari, chag‘irtoshli, shag‘alli yotqiziqlar ustida paydo bo‘ladi.

Volfram ma‘danlari – tarkibida volfram bo‘lgan mineral rudalari. Volfram tabiatda temir, oltin, molibden, mis, rux, marganets va kalsiy bilan birga birikmalar hosil qilgan bo‘ladi. Yuqori sifatli po‘lat olishda foydalaniladi. Elektrotexnika, radiotexnikada, tibbiyot asboblari ishlashda qo‘llaniladi.

Voha – chalacho‘l va cho‘llarda o‘simlik bilan qoplangan, aholi yashaydigan obod joy. Vohalar daryo, kanal bo‘ylarida, yer osti suvlari yer yuziga yaqin bo‘lgan, buloq, artesian suvlar chiqqan joylarda bo‘ladi.

Gaz quvuri – gaz qazib olinadigan va ishlab chiqariladigan joylardan iste‘mol qilinadigan joylarga quvurlarda yuborish uchun qurilgan inshoot. Gaz quvuri gazni ko‘p-kam o‘tkazishi quvurlar yo‘g‘onligiga bog‘liq. Eng yo‘g‘on gaz quvuri diametri 1420mm.

Gidroelektrostansiyalar – suv oqimi quvvatidan elektr energiya hosil qilinadigan inshootlar va jihozlar majmuasi.

Gorizont tomonlari – gorizontning to'rtta asosiy tomoni – shimol, janub, sharq, g'arb tomonlari bo'ladi. Bu tomonlar oralig'i oraliq tomonlar deyiladi: shimoli-sharq, shimoli-g'arb, janubi-sharq, janubi-g'arb.

Granit (lotincha granum-dona) – otqindi tog' jinsi. Yer po'stining chuqur qismida, magmaning butunlay kristallanishidan hosil bo'ladi. Granitdan binokorlikda bezash materiali sifatida, poydevor, zinapoyalar qurishda, haykaltaroshlikda ishlatiladi.

Grafit (yunoncha grafu-yozaman) – Yer po'stida uchraydigan sof uglerodning bir turi. Rangi qora, to'q kul rang, metalsimon yaltiraydi. Grafitdan elektr sanoatida, qalam, tigel, bo'yoq tayyorlashda, metallurgiyada ishlatiladi.

Grunt suvlari – yer yuzasiga yaqin joylashgan doimiy suvli qatlamdagi yer osti suvlari. Grunt suvlar joylashgan qatlam ustida suv o'tkazmaydigan qatlam bo'lmaydi.

Daryo – o'zi hosil qilgan tabiiy o'zandan oqadigan suv. Daryolar bir-birlaridan uzunligi, kengligi, havzasining maydoni, chuqurligi, nishabi, oqim tezligi, oqiziqlari, to'yinish turi, suvning kimyoviy tarkibi bilan farq qiladi. Daryolar tog' va tekislik daryolariga bo'linadi.

Daryo vodiysi – yer yuzasida uzunasiga cho'zilgan qiyosan kambar soylik. Daryo vodiylari oqar suvlarning ishi natijasida vujudga kelgan bo'lib, daryo oqadigan tomonga qiya va ko'pincha egri-bugri bo'ladi.

Delta – daryoning dengizga yoki ko'lga quyilish joyida suvda oqib kelgan jinslarning cho'kib to'planishidan hosil bo'lgan tekislik. Delta atamasi Nil daryosining quyari joyidagi Delta deb ataladigan joy nomidan olingan. Deltada daryo suvi panjaga o'xshab yo'nalgan ko'pdan-ko'p tarmoqlarga bo'linib oqadi.

Demografiya (yunoncha demos-xalq, grafo-yozaman) – aholining ko'payishi, holati va o'zgarishlarini o'rganuvchi fan. D. biror hudud, mamlakat, qit'a, o'lka va butun dunyo aholisi sonining, yosh va jinsiy tarkibining o'zgarishlarini, oilaviy masalalarini ham o'rganadi.

Dengiz – okeanning bir qismi; D. okeandan quruqlik yoki orollar, yarim orollar va suv osti relyefining ko'tarilgan joylari bilan ajralib turadi.

Dehqonchilik – qishloq xo'jaligining ekinlar yetishtirish bilan shug'ullanadigan muhim tarmog'i.

Dovon (mo'g'ilcha daban) – tog' tizmasi yoki tog' massivi qirrasining eng past, o'tish oson bo'lgan qismi.

Dunyo okeani – Yer yuzidagi barcha okeanlar birgalikda Dunyo okeani deyiladi. Umumiy maydoni 361,1 mln.km². Yer yuzasi maydonining 70,8%ini tashkil etadi. Shimoliy yarimsharda butun maydonning 61%ini, janubiy yarimsharda esa 81%ini D.o. egallagan. O'rtacha chuqurligi 3800m, eng chuqur joyi Mariana botig'ida 11022m.

Dyuna – shamol keltirib to'plagan qumtepalar. To'zima qumlar mavjud yerlarda hosil bo'ladi. Balandligi 10m dan 200-300m gacha bo'lishi mumkin.

Yengil sanoat – turli xom ashyolardan keng iste'mol buyumlari va sanoat xom ashyosi ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari. Xom ashyoga dastlabki ishlov beruvchi, jumladan paxta tozalash, ip gazlama, jungazlama, shoyi to'qish, tikuvchilik, kanop-jun, poyabzal, trikotaj, mo'yna, mebel, chinni, attorlik buyumlari, teri oshlash va boshqalar Y. s. tarkibiga kiradi.

Yer po'sti – Yer qattiq qismining yuqorigi qobig'i. Y. p. ning quyi chegarasi qilib Moxopovichich yuzasi qabul etilgan. Qalinligi 5km dan 75km gacha yetadi. Okean va quruqlik Y. p-ga bo'linadi.

Yonuvchi tabiiy gazlar – yonuvchi uglevod gazlari. Y. t. g. orasida metan, etan, propan ko'p tarqalgan. Y. t. g. tabiatda alohida gaz konlaridan ham, neft bilan qo'shilgan holda ham chiqadi.

Geografik qobiq – Yerning litosfera, gidrosfera, atmosferatutashib va bir-biriga ta'sir etib hosil qilingan bir butun qobig'i, inson yashaydigan va faoliyat ko'rsatadigan muhit.

Immigratsiya – (lotincha immigrare- kelib oʻrnatishmoq)- mamlakatga boshqa davlatlar kishilarining uzoq muddatga yoki doimiy yashash uchun kelishi. Koʻchib kelgan kishilar immigrantlar deyiladi.

Import – chetdan mol keltirish (lotincha import- kiritaman) – chet mamlakatlardan biron davlatga ichki bozorda sotish uchun mol (tovar) keltirish.

Intensivlash, jadallashtirish (lotincha intensio – jadallash) – xalq xoʻjaligida yangi fan yutuqlarini, yangi texnikani va mehnatni tashkil etishning yangi usullarini joriy qilish yoʻli bilan ishlab chiqarishni koʻpaytirish, kengaytirish.

Iqtisodiy geografik oʻrin – iqtisodiy geografik obʼektlarning undan tashqarida boʻlgan, lekin uning rivojlanishiga taʼsir koʻrsatadigan tabiiy, iqtisodiy, tarixiy obʼyektlarga (transport yoʻllari, iqtisodiy hududlar, davlat chegaralari, dengizlarga) nisbatan tutgan oʻrni.

Iqtisodiy rayon – mamlakat xalq xoʻjaligining hududiy va iqtisodiy bir butun qismi. I.r. oʻziga xos tabiiy va iqtisodiy sharoiti, tarixiy tarkib topgan yoki geografik mehnat taqsimoti asosida vujudga kelgan, mustahkam xoʻjalik aloqalari mavjud boʻlgan xoʻjalik ixtisosi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Iqtisodiy faol aholi – aholining ishlab chiqarishning turli sohalarida va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida band boʻlgan qismi.

Kabotaj (fransuzcha kabotage) – bir mamlakat dengiz portlari orasidagi kema qatnovi. K. ikki xil boʻladi: 1) katta K.- turli dengizlar portlari orasidagi kema qatnovi va 2) kichik K.- bir dengiz portlari orasidagi kema qatnovi.

Kavir – Erondagi shoʻrxok choʻllar. Relyefning botiq shakllarida boʻladi.

Kaolin – asosan kaolinitdan iborat oq loy. Yuqori darajada oʻtga chidamliligi, moʻrtligi va ancha yirik donadorligi bilan ajralib turadi. Boyitilgan K. chinini, kimyo, qogʻoz, kabel, rezina, attorlik sanoatida ishlatiladi.

Kauchuk – toʻqimalarida tabiiy kauchuk olish uchun ishlatiladigan sutshira toʻplaydigan oʻsimliklar – Braziliya geveyasi, Meksika gwayulasi, qoqioʻt, fikus va boshqalar. Hozirgi vaqtda asosan geveyadan kauchuk olinadi.

Kvarts – oq rangli, shishasimon yaltiroq mineral. Qimmatbaho tosh hisoblanadi, zargarlikda ishlatiladi. Oʻtga chidamli asboblarni tayyorlashda, radiotexnika, optika, meditsina, oyna keramika sanoatida ishlatiladi.

Keng bargli oʻrmonlar – qishda bargini toʻkadigan shapaloq bargli daraxtlar oʻsadigan oʻrmonlar: buk, eman, zarang, joʻka, grab va boshqalar oʻsadi.

Kokislanuvchi koʻmir – toshkoʻmirning kokislanganda (havosiz qizdirilganda) kokis, kokis gazi va smola beradigan navi.

Konsessiya – mamlakat boyliklarini boshqa mamlakatga shartnoma asosida foydalanishga berish.

Koriz – yer osti suvini yigʻib yer ustiga chiqarish uchun quriladigan quduqlar tizimi.

Koʻrfaz – koʻl, dengiz, okeanlarning quruqlik ichkarisiga ancha uzoq kirib brogan qismi.

Laterit tuproqlar (lotincha later-gʻisht) – doimiy yashil sernam oʻrmonlar tagida tarkib topadigan qizil tuproqlar. Tarkibida temir koʻpligidan temir zanglab qizil tusga ega boʻladi tuproqning yuza qatlamida chirindi 4-6 foizgacha yetadi.

Legirlovchi metallar (nemischa legieren-eritmoq) – metall yoki metall qotishmalarining mexanik, fizik, kimyoviy xossalari yaxshilash uchun ularga boshqa metallar va metall qotishmalarini qoʻshish. Legirlovchi metallar xrom, nikel, marganets, magniy, volfram, molibden, vanadiy, titan, kremniy.

Mangra oʻrmonlari – tropiklarning dengiz suvi koʻtarilganda suv bosadigan pastak tekis qirgʻoqlarida oʻsadigan doimiy yashil butazor va past boʻyli daraxtzorlar.

Marmar – ohaktoshning yuqori bosim va harorat taʼsirida oʻzgarishidan hosil boʻladigan kristall togʻ jinsi. Oq, kul rang, pushti va boshqa ranglarda boʻladi. Oson arralanadi va yaxshi silliqilanadi. Asosan devorlarni qoplash uchun ishlatiladi.

Materik sayozligi – shelf- materiklarning dengiz va okeanlar qirgʻoqlari boʻylab choʻzilgan suv osti davomi. Eni bir necha km dan 1200-1500 km gacha yetadi. M.s. dengiz choʻkindilari

(shag'al, qum, qumoq, loyqa) ko'p to'planadigan joy, yorug' va iliq bo'lganidan organizmlar, jumladan baliq ko'p. M.s. da ko'plab neft, gaz konlari topilmoqda.

Metallurgiya – ma'danlardan metall olish, metall va uning qotishmalari tuzilishini, tarkibini o'zgartirish jarayonlarini o'z ichiga olgan ishlab chiqarish sohasi, shu soha haqidagi fan.

Mehnat resurslari – mamlakatning mehnatga layoqatli yoshdagi barcha aholisi. Shuningdek, ishlab chiqarishda ishtirok etadigan 16 yoshgacha bo'lgan yoshlar va mehnatda band bo'lgan faxriylar ham M.r. hisoblanadi.

Milliy daromad – muayyan vaqt davomida mamlakatning butun aholisi mehnati bilan yaratilgan jami boyliklar. M.d. ni hisoblashda yaratilgan butun boylikdan sarflangan xom ashyo, energiya, dastgohlar va ishlab chiqarish binolarining yeyilgan qismi qimmati, ishchilar mehnat haqi chegirib tashlanadi.

Molibden ma'danlari – tarkibida sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan miqdorda molibden bor bo'lgan molibden birikmalari. Ma'dan tarkibida 0,1%dan 1%gacha mis bo'lsa, sanoat ahamiyatiga ega deyiladi.

Musson iqlimi – musson shamollari ta'sirida tarkib topadigan iqlim. Yil odatda ikki faslga bo'linadi: sernam issiq yoz, quruq salqin qish. Iqlim yozda dengizdan keladigan sernam havo, qishda quruqlikdan esadigan quruq havo ta'sirida hosil bo'ladi.

Neft – Yerning cho'kindi tog' jinslari orasida uchraydigan yonuvchi suyuq moy, eng muhim foydali qazilmalardan biri. Rangi to'q qo'ng'ir, ko'kish qo'ng'ir bo'ladi. Yonganda 10400-11000kkal t/kg issiqlik beradi. Neftning 84-85%i uglerod, 12-14%i vodoroddan iborat. Neftdan benzin, kerosin, surkov moylari, qora moy, gudron, vazilin, paraffin va b. olinadi.

Neft quvurlari – neft va neft mahsulotlari yuboriladigan quvurlar. Bu transport turi boshqa transport turlaridan arzon va tejamli.

Nikel ma'danlari – tarkibida nikel bo'lgan mineral birikmalar. Odatda tarkibida 1-2% nikel bo'lgan ma'danlar qazib olinadi. Nikel zanglamaydi va yaxshi silliqlanadi. Shu sababli metall buyumlar nikellanadi. Nikel qo'shilgan po'lat qayishqoq bo'ladi.

Oziq-ovqat sanoati – oziq-ovqat va noz-ne'mat mahsulotlari ishlab chiqaradigan sanoat. O.o.s.ga aholini oziq-ovqat mahsulotlari, shirinliklar bilan ta'minlaydigan (tegirmonlar, go'sht, konserva, yog', non zavodlari, qandolatchilik, qand zavodlari) korxonalardan tashqari choy, qahva ishlab chiqarish va boshqalar ham kiradi.

Olmos – eng qattiq mineral. Tarkibiga ko'ra sof uglerod. Tabiatda sochma holda va otqindi jinslar tarkibida uchraydi. Rangi havorang, oq, rangsiz, sariq, qo'ng'ir, qora bo'ladi. Qirralanib ishlangan olmos brilliant deyiladi. O. karat hisobida o'lchanadi. 1 karat 0,2ga teng. O. tog' jinslarini burg'ilashda, qattiq materiallarga sayqal berishda, metal va toshlarga gul solishda ishlatiladi.

Oltin – yumshoq, og'ir, ishlov berish qulay bo'lgan qimmatbaho metal. Rangi sariq, zanglamaydi. O. tabiatda ko'proq sof holda uchraydi.

Oltinugurt – tug'ma element holida uchraydigan mineral. Temir bilan birikma holida (pirit), tabiiy gaz va boshqalar bilan birga ham chiqadi. O. asosan sulfat kislota olish uchun ishlatiladi.

Og'ir sanoat – sanoatning ishlab chiqarish vositalari- mashinalar va jihozlar, yoqilg'i, energiya, metallar, kimyo mahsulotlari, qurilish jihozlari ishlab chiqaradigan tarmoqlari.

Ohaktosh – asosan kalsitdan tarkib topgan cho'kindi tog' jinsi. Toza ohaktosh oq bo'ladi, aralashmalar- gil, qum, dolomit tufayli sariq, jigar rang, qora va to'q kul rang ohaktoshlar ham uchraydi. Metamorfiklashish oqibatida qaytadan kristallashib marmarga aylanadi.

Paleogeografiya (yunoncha paleos- qadimgi) – Yer yuzasi tabiatining qadimgi davrlardagi rivojlanish tarixini o'rganadigan fan.

Pasttekislik – mutloq balandligi dengiz sathidan 200m gacha bo'lgan tekisliklar. P.lar dengiz sayyozligining daryolar keltirgan loyqalar bilan to'lishidan, tog' oldi bukilmalarining tog'lardan tushgan nuroq jinslar bilan to'lishi natijasida hosil bo'ladi.

Pirit – oltingugurtli temirtosh, mineral. Tarkibida oltingugurt va temirdan boshqa mis, kobalt, oltin va boshqa metallar bo‘ladi. P.dan rangdor metallar, sulfat kislota olinadi, qoldig‘idan temir rudasi sifatida foydalaniladi.

Plato – yer yuzasi yassi yoki sal to‘lqinlangan, ba‘zan bir oz parchalangan baland tekislik.

Platforma (fransuzcha plat- yassi, forme-shakl) – Yer po‘stining nisbatan barqaror, tektonik harakatlarga kam beriladigan yirik, barqaror bo‘laklari.

Plita – platformalarning pasaygan va ustini salgina qiya yoki gorizontal yotgan cho‘kindi jinslar qoplagan qisimlari.

Polimetall rudalari – tarkibi asosan qo‘rg‘oshin va rux, ba‘zan misdan iborat bo‘lgan tabiiy mineral hosilalar. Ularga aralashgan holda oltin, kumush, kadmiy va boshqalar bo‘ladi.

Rangli metallurgiya – temirdan boshqa metallar ma‘danlarini qazib chiqarish, boyitish va metallar eritib olish.

Relief (fransuzcha relief- ko‘taraman) – yer yuzasi shakillari: tog‘lar, tekisliklar, pasttekisliklar, adirlar, yassi tog‘liklar, tepaliklar, qirlar, vodiylar, botiqlar, soyliklar, jarlar va boshqalar majmui.

Reeksport – ilgari boshqa davlatlardan mamlakatga keltirilgan mollarni chetga chiqarish.

Savdo balansi – mamlakatga bir yil davomida keltirilgan tovarlar qiymati bilan undan chetga chiqarilgantovarlar qiymati nisbati. Agar keltirilgan tovarlar qiymati ortiq bo‘lsa, manfiy, kam bo‘lsa musbat balans bo‘ladi.

Siyosiy-geografik o‘rin – mamlakatlar va ularning ayrim qisimlarining ittifoqdosh, do‘st yoki raqib mamlakatlarga nisbatan joylashgan o‘rni. Xalq xo‘jaligini rivojlantirishda ta‘sir ko‘rsatadi.

Sirokko (arabcha sharq so‘zidan) – O‘rta dengiz havzasida siklonlarning old qismida janub va unga yaqin tomonlardan esadigan issiq shamol.

Slanets – tarkibi turli xil, zarralari juda mayday bo‘lgan qat-qat yoki kitob varaqlari kabi juda yupqa plstinkalardan iborat metamorfik tog‘ jinslari.

Subalp o‘tloqlari – mo‘‘tadil va subtropik mintaqalarda tog‘larning yil bo‘yi deyarli bir tekisda yog‘in tushadigan, salqin, asosan o‘t o‘simliklari o‘sadigan mintaqasi. O‘rmon mintaqasidan yuqorida, alp mintaqasidan pastda joylashgan.

Tayfun (xitoycha tay fin- katta shamol) – Uzoq Sharq tropic quyunlarda ro‘y beradigan dovullar. Shamol tezligi saotiga 30-50km ga, ba‘zan 100km gacha yetadi. Tinch okean, Jan. Xitoy dengizi va Filippin orllari ustida vujudga keladi.

Tekislik – yer yuzasining yassi yoki bir oz o‘r-qir bo‘lgan katta maydonlari.

Teokratik yakka hokimlik (yunoncha teos- xudo, kratos- hokimiyat) – butun hokimiyat ruhoniylar qo‘lida bo‘lgan davlat boshqaruvi shakli.

Tog‘-kon sanoati – turli xil foydali qazilmalarni qazib chiqarish va kambag‘al foydali qazilmalarni boyitish bilan shug‘ullanadigan sanoat.

Tranzit (lotincha tranzitus- o‘tish) – biron stansiya, viloyat, mamlakat orqali yuk yoki yo‘lovchi olib o‘tish.

Uran ma‘danlari – tarkibida uran yoki uning birikmalari bo‘lgan tabiiy mineral hosilalari. Tarkibidagi uran miqdoriga qarab, kambag‘al (0‘1%gacha uran), o‘rta (0‘1%dan 1%gacha) va boy (1%dan ortiq) u. m. ga bo‘linadi.

Urbanizatsiya (lotincha urbanus- shahar) – shaharlashish, ya‘ni shaharlarning o‘sishi va ko‘payishi. Bu jarayon fan-texnika inqilobi davrida keskin kuchayib, shahar aholisining ko‘payishiga, shahar turmush tarzining keng tarqalishiga olib keladi.

Fauna (lotincha Fauna- qadimgi Rim afsonasida o‘rmon, dala, hayvonlar xudosi) – Yer yuzida geologik o‘tmishda yashagan yoki hozir mavjud bo‘lgan barcha hayvonlar.

Flora (lotincha Flora- Rim afsonasida gullar va bahor ma‘budasi) – biror-bir joy, mamlakat yoki geologik davrga xos bo‘lgan barcha o‘simliklar majmui.

Fosforit – fosfor birikmalariga boy bo‘lgan cho‘kindi tog‘jinslari. Fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarishda ishlatiladi. Nodir metallar ham olinadi.

Chala cho‘llar – mo‘‘tadil mintaqada dashtlar bilan cho‘llar orasida joylashgan, quruq iqlim sharoitida tarkib topgan tabiat zonalar.

Chorvachilik – qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri. Aholiga go‘sht, sut, yog‘, tuxum va b. lar yetkazib beradi.

Cho‘l – mo‘‘tadil, subtropik, tropik mintaqalardagi juda qurg‘oqchil kontinental iqlimli yerlar.

Eksport (lotincha eksporto-tashqariga chiqaraman) – mamlakatda tayyorlangan tovarlarni xorijda sotish uchun chetga chiqarish.

Ekstensiv xo‘jalik (lotincha ekstensis- kengayib boruvchi) – mablag‘ va mehnat kam sarflanadigan, fan-texnika yutuqlaridan kam foydalaniladigan va yaxshi mexanizatsiyalashmagan xo‘jalik. Mas. Yaylov chorvachiligi.

Emigratsiya (lotincha emigraro- ko‘chib ketmoq) – kishilarning o‘zi tug‘ilib o‘sgan mamlakatlaridan xorijga ko‘chib ketishlari.

Erkin iqtisodiy hudud – xorij kapitalining erkin amal qilishi uchun ajratilgan maxsus hudud. E.i.h.tashkil etish xalqaro iqtisodiy munosabatlarda faol qatnashish shart-sharoitlaridan biri hisoblanadi.

Yalpi mahsulot – biror-bir korxona, xalq xo‘jaligining biror-bir tarmog‘iyoki butun xalq xo‘jaligi ma‘lum vaqt mobaynida ishlab chiqargan mahsulotning pul hisobidagi qiymati.

Yarimorol – uch tomonidan suv bilan o‘ralib, faqat bir tomonda kichik masofada katta quruqlikka tutashgan yer.

O‘rta dengiz iqlimi – O‘rta dengiz bo‘yiga xos qishi iliq(5-10°), yozi issiq(20-25°), yog‘in miqdori yiliga 400-600mm bo‘lgan, yog‘in asosan qishda yog‘adigan iqlim tipi.

Qalayi rudalari – tarkibidan sanoatda qalay ajratib olinadigan tabiiy birikmalar. Asosan minerali kassiterid.

Qora metallurgiya – og‘ir sanoat tarmog‘i bo‘lib, mashinasozlik va boshqa sanoatlarni rivojlantirishga negiz bo‘ladi. Q.m. qora metall – cho‘yan, po‘lat prokatlari, quvurlar, temir qotishmalari ishlab chiqaradi.

Quvur transporti – gaz, suyuq va kukunsimon qattiq mahsulotlarni quvurlar orqali to‘xtovsiz tashishga mo‘ljallangan transport turi. Asosan neft, neft mahsulotlari, gaz, suv tashish uchun quriladi.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT



- **Azizova Feruza** - 1990-yil Toshkent davlat universitetining “geografiya” fakultetini tamomlagan(O’zMU)
- 1990-95-yillar toshkent shahar 94-o’rta maktab geografiya o’qituvchisi
- 1995-2001-yillar toshkent shahar 283-o’rta maktab geografiya o’qituvchisi
- 2001-yildan Toshkent davlat sharqshunoslik institut “tabiiy fanlar” kafedrasida o’qituvchisi
- 2008-yildan O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti kafedrasining tabiiy fanlar seksiyasi katta o’qituvchisi
- Geografiya fanidan dars beradi
- Ilmiy yo’nalishi “Zamonaviy geografiyaning o’qitish metodikasi”
- “Xorijiy sharq mamlakatlari geografiyasi” (I,II qismlar) o’quv qo’llanmasi avtor, TDSHI, 2010 (19 b.t.)
- So’nggi marta 2011-yil yanvar oyida Mirzo Ulug’bek nomli O’zMU qoshidagi Oliy pedagogika institutida malaka oshirgan
- Ilmiy maqolalari:
- “Toshkent Davlat sharqshunoslik institutida geografiya fanini o’qitish uslubi”.Iqtidorli talabalar va yosh olimlarning respublika ilmiy –amaliy konferensiyasi materiallari,T.,6-8-may,2008-yil,O’zMU
- “O’zbekiston va Koreya munosabatlari” ,Qarshi DU,2010
-

Mundarija

• Anotatsiya.....	3
• Kirish.....	4
• “Geografiya” fanining me’yoriy hujjatlari.....	6
• “Geografiya” fanining o’quv dasturi.....	7
• “Geografiya” fanining ishchi dasturi.....	12
• “Geografiya” fanining tayanch konspekti.....	27
• Seminar mashg’ulotlari uchun topshiriqlar to’plami.....	50
• “Geografiya” fani bo’yicha o’quv materiallari.....	53
• “Geografiya” faniningta’lim texnologiyalari.....	54
• “Geografiya” fanining talabalar bilimni baholash me’zoni.....	132
• “Geografiya” fanidan referatlar va kurs ishlari mavzulari.....	137
• “Geografiya” fanining nazorat turlari uchun tayyorlangan topshiriqlar varianti.....	138
• Test savollari.....	140
• Umumiy savollar.....	146
• “Geografiya” fanidan tarqatma va taqdimot materiallari.....	147
• “Geografiya” fanidan mustaqil ishni tashkil etish bo’yicha uslubiy ko’rsatma.....	148
• Fanni o’zlashtirish bo’yicha maslaxat va tavsiyalar.....	151
• Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	158
• Xorijiy adabiyotlar.....	159
• Glossariy yoki lug’at.....	160
• Muallif haqida ma’lumot.....	166
• Mundarija	167